O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI
“MENEJMENT” KAFEDRASI

“IQTISODIY TARAQQIYOT VA SAMARALI BOSHQARUV: XALQARO TAJRIBA, TENDENSIYALAR VA DOLZARB MASALALAR”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(II qism)

(2023 yil 10 - 11 noyabr)

SAMARQAND – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“MENEJMENT” KAFEDRASI

«Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar»

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
MATERIALLARI TO‘PLAMI

(II qism)

(2023 yil 10 - noyabr)

SAMARQAND – 2023

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА “МЕНЕДЖМЕНТ”

“Экономическое развитие и эффективное управление: международный опыт, тенденции и актуальные проблемы”

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

международной научно-практической конференции

(часть II)

(10- ноября 2023 г.)

САМАРКАНД – 2023

UO‘K: 338.1
T 8
KBK: 65.011ya43

Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar// Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023 yil 10-11 noyabr. Samarqand, SamISI, 2023. – 218 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
F.U. Tursunov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

Nashr uchun mas’ullar:
D.X.Aslanova- iqtisod fanlari nomzodi, professor
M.T.Alimova – iqtisod fanlari doktori, professor
B.B.Raxmatov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
A.E.Tangirov - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
M.E.Ahtamova– iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
N.A.Usmanova - iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
Z.K.Raximov - iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.

Sahifalovchi: B.M.Abdumannonov – SamISI “Menejment” kafedrasi assistent-stajyori

Ilmiy – amaliy konferensiya materiallarida “Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar”ga oid yo‘nalishlar yoritilgan. Unda “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari”, “Yashil” iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning dolzarb masalalari”, “Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida samarali faoliyat va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari”, “Standartlashtirish va sifat menejmenti: xalqaro tajriba va zamonaviy tendensiyalar”, “Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni innovatsion rivojlantirishning dolzarb masasalari”ni hal qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o‘rin olgan.

Tezislar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Экономическое развитие и эффективное управление: международный опыт, тенденции и направления, связанные с актуальными проблемами, освещены в материалах научно-практической конференции. Он включает “Особенности и тенденции социально-экономического развития регионов”, “Актуальные проблемы «зеленой» экономики и устойчивого развития”, “Направления совершенствования механизмов управления для обеспечения эффективной работы и высоких темпов роста во всех отраслях и отраслях экономики”, “Стандартизации и управления качеством: международный опыт и современные тенденции”, статьи и диссертации, богатые научно-теоретическими и практическими рекомендациями, направленными на

решение актуальных проблем инновационного развития социально-экономических систем.

Тезисы редактируются авторами. Авторы несут ответственность за представленные в них цифры, факты, выводы и рекомендации. Некоторые их мнения могут не соответствовать взглядам организационной группы.

Economic development and effective management: international experience, trends and directions related to current problems are covered in the materials of the scientific and practical conference. It includes features and trends in the socio-economic development of regions, current problems of the green economy and sustainable development, directions for improving management mechanisms to ensure effective operation and high growth rates in all sectors and sectors of the economy, standardization and quality management. : international experience and modern trends, articles and dissertations, rich in scientific, theoretical and practical recommendations aimed at solving current problems of innovative development of socio-economic systems.

Abstracts are edited by the authors. The authors are responsible for the figures, facts, conclusions and recommendations presented in them. Some views of the authors may not coincide with the views of the organizing group.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2023.
© “STEP-SEL” MChJ. Nashriyoti, 2023.

MUNDARIJA

I SHO‘BA. HUDUDLARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI VA TENDENSIYALARI.		
А.И.Туреniязова К.В.Спришевский	РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА	10-12
Н.А.Рахимова	ҚУРИЛИШ СОҲАСИДА ФУНКЦИОНАЛ ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМАЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ	12-16
Ф.У. Турсунов	КОРХОНАНИ БОШҚАРИШДА АХБОРОТ ТИЗИМИ	16-19
М.М.Рустамова	АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ	19-21
Ф.Ф. Улугмуродов М.Б. Боймуротова Б.Е.Холбоев	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	22-24
Sh.B.Bahodirov X.T.Uktamov	HUDUDIY TURIZM XIZMATLARINING O‘SISH SUR’ATLARINI TA’MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI	25-29
X.Y.Axrorov B.N.Gapparov	JIZZAX VILOYATINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA KOOPERATSIYAGA ASOSLANGAN KLASTERLARNING ROLI VA AHAMIYATI	29-33
M.A.Aynakulov	JIZZAX VILOYATINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TURIZM SOHASINING POTENTSIAL IMKONIYATLARI	33-36
M.A.Aynaqulov	JIZZAX VILOYATIDA TURIZM SOHASIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARI, YO‘NALISHLARI VA BOSHQARUV USLUBLARINI TAKOMILLASHTIRISH ME’ZONLARI	36-39
B.N.Gapparov	JIZZAX VILOYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA BO‘LAJAK MUHANDIS-KONSTRUKTORLARNING KOMPETENSIYAVIY JIHATDAN ROLI	40-43
F.Sh.Teshayeva	HUDUDLAR IJTIMOIY-IQTISODIY	43-46

M.A.Aynakulov	RIVOJLANISHINING TUB MOHIYATI, NEGIZI, MANBALARI VA XUSUSIYATLARI	
A.A.Наврузов	ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ: ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР	47-50
II SHO‘BA. “YASHIL” IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISHNING DOLZARB MASALALARI		
Z.Z.Tursunaliyev	YASHIL IQTISODIYOTIGA O‘TISH ORQALI HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	51-54
Sh.K.Yuldashev U.A.Boliboyeva	“YASHIL IQTISODIYOT” O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHINING ASOSI SIFATIDA	54-57
O.A.Yo‘ldashev	YASHIL IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI	58-61
Ахтамова М.Э. Ахроров М.А. Акбаров Б.А.	КОНЦЕПЦИЯ «ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ» И ЕГО РАЗВИТИЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	61-64
A.N.Achilov	GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHLARI IMKONIYATLARI, MUAMMOLARI VA MOLIYALASHTIRISH SHARTLARI	64-67
М.Э.Ахтамова Л.Х.Курбанов	АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ» РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	67-70
III SHO‘BA. IQTISODIYOTNING BARCHA SOHA VA TARMOQLARIDA SAMARALI FAOLIYAT VA YUQORI O‘SISH SUR’ATLARINI TA’MINLASHDA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI		
B.M.Abdumannonov	INSON RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA YAPONIYA AMALIYOTI	71-75
Ҳ.Н.Очилова	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛИ	75-80
А.Э.Тангиров У.З.Турсунова	БОШҚАРУВНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	81-85
B.M.Abdumannonov	SHAXS TEMPERAMENTI VA UNING XUSUSIYATLARI	85-90

Ш.У.Ташматов	ЎЗБЕКИСТОНДА ИНТЕРНЕТ САВДО ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	90-94
Д.Ж.Абдуразаков	ТУРИЗМ ҚИШЛОҚЛАРИДА СТРАТЕГИК БОШҚАРУВНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	95-98
F.F. Ulugmurodov A.O. Abruyev	XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISH ZARURIYATI	98-100
Ҳ.Э.Азимова	БАНК ТИЗИМИДА МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ АҲАМИЯТИ	101-104
F.B.Aminov	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI	104-107
H.Hasanov	ISHBILARMONLIK MUHITI: MOHIYATI, TARKIBI VA BAHOLASH MEZONLARI	107-112
Z.M.Abdullayeva	OLIY TA`LIMDA RAQAMLI XIZMAT KO`RSATISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO`LLARI	112-115
D.Sh.Nasriddinova	OLIY TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQOTLARINING O‘RNI	115-118
B.X.Qilichov	O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN SUG‘URTA TASHKILOTLARINING YIG‘ILGAN SUG‘URTA MUKOFOTLARI TAHLILI	118-123
A.P.Isanov	TRANSPORTDA MENEJMENT SHAKLLARI VA TASHKILIY TUZILMALARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI	123-126
Г.А.Абдувоҳидова	ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИГА ТАЛАБ ВА ТАКЛИФНИНГ ШАКЛЛАНИШИ	126-129
A.B.Muxitdinov	TRANSPORT XIZMAT KO‘RSATISHINING DASTURIY-MAQSADLI MENEJMENTI	129-132
F.B.O‘razaliyev	VAQTNI BOSHQARISHNING SAMARADORLIKNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI	133-136

IV SHO‘BA. STANDARTLASHTIRISH VA SIFAT MENEJMENTI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR		
Ж.Б.Ахтамов	ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТЛАРИДА ЯККАКУРАШ ЎЙИНЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ЁРДАМИДА УЛАРДА ЖИСМОНИЙ КЎНИКМАЛАРНИ ХОСИЛ ҚИЛИШ	137-140
Ахтамова Мохигул Эркиновна Сулейманова Асель Арамановна	БЕНЧМАРКЕТИНГ КАК МЕТОД ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ	140-142
Носирова Умида Мизробовна	РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ТУРИЗМЕ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ	143-145
Д.Т.Юсупова	СИСТЕМА МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА – ЗАЛОГ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БИЗНЕСА	145-150
З.К.Рахимов	ИНСОН РЕСУРСЛАРИНИ БОШҚАРИШДА РЕКРУТМЕНТ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ	150-152
Фахриддинова Сарвиноз Фазлиддиновна	МЕТОДОЛОГИЯ ВЫБОРА ФАКТОРОВ ПРИ ПОСТРОЕНИИ ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ	152-156
З.С.Ганиева	РЕШЕНИЕ КООПЕРАТИВНЫХ ИГР СВЕДЕНИЕМ К БИМАТРИЧНЫМ ИГРАМ	156-160
Ризаева Зумрад Алишеровна Раббимова Мафтуна Зохидовна	СТАНДАРТИЗАЦИЯ И МЕНЕДЖМЕНТ КАЧЕСТВА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	160-164
B.M.Abdumannonov	MARKAZIY OSIYO - TURIZM MENEJMENTI	164-167
Г.М.Шадиева	ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	167-174
B.M.Abduraimov	XIZMATLAR SOHASIDA SIFATNI OSHIRISHDA STANDARTLASHTIRISHNING ROLI	174-178
U.R.Ismatov	ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISH VA JOYLASHTIRISH MODELLARI	179-182

V SHO‘BA. IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI		
T.G‘.Durumov	IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASASALARI	183-186
J.K.Boymurodov	SANOAT KORXONALARI INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MADANIYATNING ROLI	186-189
N.A.Usmanova	IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA RAHBARNING SHAXSIY MEHNATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI	190-194
Н.А.Усманова	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ КОРПОРАЦИЙ	194-198
F.F. Ulugmurodov B.E.Xolboyev	XIZMATLAR SOHASIDA INNOVASION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	198-201
M.A.Najmiddinova	IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA YECHIMLARI	201-203
B.X.Qilichov	SUG'URTA BOZORINING INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITDA RIVOJLANISHI	203-206
D.A.Ro‘ziyeva	KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH BOSQICHLARI	207-209
N.A.Yuldasheva	SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	210-213
М.Э.Аҳтамова	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ИННОВАЦИОН АСОСДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	213-216
Баймуратова Г.Т.	МОЛИЯВИЙ РИСКЛАРНИ СУҒУРТАЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ - ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ	216-218

А.И.Торениязова к.ф.м.н, доцент Нукусского филиала Ташкентского университета информационных технологии,
К.В.Спришевский студент факультета «Компьютерныи инжиниринг» Нукус, Узбекистан

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА

Annotatsiya: *Maqolada sun’iy intellektning (AI) hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri ko‘rib chiqiladi, shahar va qishloq o‘rtasidagi farqlarga e'tibor qaratiladi. Ta'lim, sog'liqni saqlash va ish o‘rinlarini yaratishda sun’iy intellektning roli, shuningdek, ishchi kuchining malaka talablarini o‘zgartirishi ta'kidlangan. AI innovatsiyalar va tadbirkorlik uchun katalizator bo‘lib, iqtisodiy o‘sishga va turmush darajasini yaxshilashga olib kelgan bo‘lsa-da, ish o‘rinlarini almashtirish xavfi hali ham mavjud bo‘lib, ishchi kuchining malakasini oshirish va avtomatlashtirishga kamroq moyil bo‘lgan tarmoqlarni rivojlantirishga yordam beradigan siyosat zarurligini ta'kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *Sun’iy intellekt, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ishchi kuchining malakasi, turmush darajasi, innovatsiyalar, tadbirkorlik, ish joyini ko‘chirish, malaka oshirish.*

Аннотация: *В статье рассматривается влияние искусственного интеллекта (ИИ) на социально-экономическое развитие регионов с акцентом на различия между городской и сельской местностью. Подчеркивается роль ИИ в обеспечении образования, здравоохранения и создании рабочих мест, а также в изменении требований к квалификации рабочей силы. Хотя ИИ является катализатором инноваций и предпринимательства, что ведет к экономическому росту и повышению уровня жизни, всё же сохраняется риск перемещения рабочих мест, что подчеркивает необходимость принятия политических мер, способствующих переподготовке рабочей силы и развитию отраслей, менее подверженных автоматизации.*

Ключевые слова: *Искусственный интеллект, социально-экономическое развитие, квалификация рабочей силы, уровень жизни, инновации, предпринимательство, перемещение рабочих мест, повышение квалификации.*

Abstract: *The article examines the impact of artificial intelligence (AI) on the socio-economic development of regions, with an emphasis on the differences between urban and rural areas. The role of AI in providing education, healthcare and job creation is highlighted, as well as changing the skill requirements of the workforce. While AI is a catalyst for innovation and entrepreneurship, leading to economic growth and improved living standards, there is still a risk of job*

displacement, highlighting the need for policies that promote workforce reskilling and the development of industries less susceptible to automation.

Key words: *Artificial intelligence, socio-economic development, workforce qualifications, standard of living, innovation, entrepreneurship, job relocation, skills development.*

Социально-экономическое развитие регионов зависит от множества факторов, включая образование, инфраструктуру, управление и технологии. В последние годы тенденции в этой области существенно изменились, и все более заметную роль играют технологии, в частности искусственный интеллект (ИИ).

Одной из ключевых особенностей социально-экономического развития является неравенство между различными регионами. Городские районы, как правило, имеют лучший доступ к образованию, здравоохранению и трудоустройству, что способствует росту доходов и уровня жизни, в то время как сельские районы часто отстают в развитии, и их жители имеют ограниченный доступ к экономическим возможностям. ИИ способен устранить этот разрыв, обеспечив удаленный доступ к услугам образования и здравоохранения, а также создав новые возможности для трудоустройства в технологически развитых отраслях.

Интеграция ИИ в различные отрасли экономики также меняет характер труда и навыки, необходимые для рабочей силы. Регионы, которые быстро внедряют технологии ИИ и инвестируют в программы обучения и подготовки кадров для получения необходимых навыков, скорее всего, будут демонстрировать ускоренный экономический рост и повышение уровня жизни. И наоборот, регионы, которые не спешат адаптироваться, могут оказаться в невыгодном положении: их промышленность устареет, а рабочая сила не будет обладать необходимыми навыками, чтобы конкурировать на рынке труда.

Еще одной тенденцией социально-экономического развития является повышение роли инноваций и предпринимательства. Регионы, в которых формируется культура инноваций и оказывается поддержка стартапам и малому бизнесу, с большей вероятностью будут привлекать инвестиции и талантливых специалистов, способствуя экономическому росту и созданию новых рабочих мест. ИИ является одним из ключевых факторов, способствующих инновациям, предоставляя предпринимателям инструменты, необходимые для разработки новых продуктов и услуг, а также для оптимизации их деятельности.

Однако интеграция ИИ в экономику сопряжена и с проблемами, в частности с перемещением рабочих мест и неравенством. Наиболее подвержены риску автоматизации рабочие места, связанные с выполнением рутинных задач, а регионы, в значительной степени зависящие от отраслей, подверженных автоматизации, могут столкнуться с потерей рабочих мест и экономическим спадом. Для снижения этих рисков политикам необходимо принимать меры по поддержке переподготовки и повышения квалификации работников, а также содействовать развитию отраслей, менее подверженных

автоматизации.

В заключение следует отметить, что ИИ играет все более важную роль в формировании социально-экономического развития регионов. Он способен стимулировать экономический рост, повышать уровень жизни и сокращать разрыв между городскими и сельскими районами. Однако он также создает проблемы, связанные с перемещением рабочих мест и неравенством, что подчеркивает необходимость продуманных политических мер, обеспечивающих широкое распространение преимуществ ИИ в обществе.

Список использованных источников:

1. On the possibilities of using artificial intelligence in higher education. Tureniyazova A. I., Sprishevskiy K. V. p. 213-216 https://doi.org/10.30525/978-9934-26-277-7-234

2. Анализ возможностей и проблем внедрения искусственного интеллекта. Турениязова А. И., Спришевский К. В. International Scientific and Technical Conference “Digital Technologies: Problems and solutions of Practical Implementation in the Spheres”. Tashkent – April 27-28, 2023 – P. 201-204 https://doi.org/10.5281/zenodo.785607

3. Analysis of possibilities and prospects for development of cloud computing. Sprishevskiy K. V., Tureniyazova A.I. Journal “Science and education in Karakalpakstan”. #4/2, 2022. P.147-149.

Н.А.Рахимова - СамДАҚУ докторанти

ҚУРИЛИШ СОҲАСИДА ФУНКЦИОНАЛ ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМАЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Аннотация. *Мазкур мақолада бошқарув самарадорлигини ошириш, бошқарув тузилмаларининг турлари, функционал тузилманинг қурилишда қўлланилиши, унинг афзалликлари ва камчиликлари кўриб чиқилган. Тузилма схемасида бошқарув ахборот мониторингини жорий этиш, функционал тузилмаларда коммуникация алоқаларини бойитиш, назорат бўлинмасини яратиш таклиф этилган.*

Калит сўзлар: *бошқарув тузилмаси, бошқарув тузилмасининг турлари, функционал бошқарув тузилмаси.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности управления, виды структур управления, использование функциональной структуры в строительстве, ее преимущества и недостатки. В структурной схеме предлагается ввести мониторинг управленческой информации, обогатить коммуникационные связи в функциональных структурах, создать отдел управления.*

Ключевые слова: *структура управления, виды структур управления, функциональная структура управления.*

Annotation. *This article discusses issues of increasing management structures, use of a functional structure in construction, its advantages and*

disadvantages. The structural diagram proposes to introduce monitoring of management information, enrich communication links in functional structures and create a control department.

Key words: *structure of management, types of management, functional management structure.*

Кейинги йилларда Ўзбекистонда олиб борилаётган ислоҳотлар барча тармоқлар сингари қурилиш тармоғи ривожланишига ҳам туртки бўлмоқда. Республикадаги янги, замонавий бинолар, савдо марказлари қурилиш ишларига бўлган талабнинг ошиб боришига ва яшаш шароитининг яхшиланишига олиб келмоқда. Хусусан 2022 йил бўйича қурилиш ишлари 130767.1 млрд.сўмни ташкил этади, асосий капиталдаги инвестициялар эса 106.6% ошган [1].

Соҳанинг ривожланиши тўғридан-тўғри унинг бошқарувига боғлиқ. Замонавий қурилиш ташкилотларидаги бошқарув фаолияти ўзининг мураккаблиги билан ажралиб туради. Бунга бозор механизмларининг жадал ривожланиши, мамлакатимизда қурилиш ташкилотларининг кўпайиши, соҳада рақамли технологияланинг кириб бориши сабаб булмоқда.

Қурилиш ташкилотларида ички бошқарув фаолияти самарадарлиги унинг элементлари бўлмиш ташкилий тузилмалар, бошқарув усуллари, қарор қабул қилиш тизими, коммуникациялар тизимига боғлиқдир.

Айниқса, ташкилий тузилманинг бошқарувга таъсири жуда катта аҳамиятга эга, чунки бошқарувнинг моҳияти жуда кўп жихатдан ташкилий тузилмада ўз аксини топади. Бошқарув тузилмасининг тўғри танланганлиги корхона ривожланишининг гарови хисобланади. Ушбу ҳолатдан келиб чиққан ҳолда ташкилий тузилмаларга назарий ва амалий жихатларини ўрганиш менежмент фанининг долзарб муаммоларидан ҳисобланади. Бу борада кўплаб илмий ишлар, изланишлар олиб борилган[2,3]. Хусусан, қурилиш ташкилотларида ташкилий тузилмалар муаммоларига И.Ю.Зильбарова, И.В.Новоселова, О.В.Никулина, Король С.П., Король Р.А. изланишлари бағишланган [4,5]. Шу билан бирга, қурилиш ташкилотларидаги ташкилий тузилманинг хусусиятлари илмий изланишларда етарли ёритилмаганлиги, ушбу муаммони чуқур ўрганишни тақазо қилади.

Бошқарувнинг ташкилий тузилмалари бўйича олимларнинг илмий изланишларидаги таснифларини умумлаштирган ҳолда, бошқарув тузилмаларининг чизиқли, функционал, чизиқли-функционал (штабли), лойиҳали, дивизионал, бригадали, матрицали ва тўрсимон турларга ажратдик. Бошқарув тузилмаларининг барча турлари корхоналарнинг фаолияти, хусусиятлари, стратегияси ва ривожланиши натижасида келиб чиқади.

Бошқарув тузилмалари поғоналарининг минимал даражада бўлиши, барча салбий томонларнинг камайишига, бошқарувнинг самарали, оптимал ва иқтисодий томондан ўзгаришига олиб келади.

Ташкилотда гуруҳлаш муайян ташкилий бўлинмалар ва иш ўринларини бирлаштириб, унинг барча қисмлари ишининг самарадорлигига муайян ҳисса

қўшади.

Ташкилий тузилмаларни тадқиқ қилишнинг дастлабки босқичи уларни идентификациялаш, яъни ягона таснифдаги ўрнини аниқлашдан иборат. Тузилмаларни алоҳида гуруҳларга функционал ва бозор асосидаги тузилмалар ўз хоссаларига кўра тубдан фарқ қилади. Бунда функционал гуруҳлаш тамойили ташкилотда вазифалар, функциялар тақсимоти ва қамраб олишини ҳисобга олади. Бозор асосидаги гуруҳлаш эса маҳсулот, харидор, тарқатиш жойи ва силжитиш занжиридаги ўрни билан белгиланади.

Қурилиш сохаси мураккаб ишлаб чиқариш технологияси, хилма-хил вазифаларнинг ва функцияларнинг марказлашуви билан ажралиб туради, шунинг учун ташкилий муносабатларни функционал гуруҳлаш қурилиш ташкилотлари учун муҳим деб хисоблаймиз. Кенг тарқалган атамага назар солсак, фунционал тузилма – умумий фаолият асосида муайян лавозимларни бўлимларга гурухлашни назарда тутадиган ташкилий тузилманинг бир тури. Функционал бошқарув тузилмаси бошқарув жараёнларининг қийинлашишидан вужудга келган. Фунционал тузилманинг хусусиятлари бу яккабошчилик сақланган ҳолда, ҳар бир бошқарув бўлимига шу соҳанинг мутахасиси бўлган функционал бўлинмаларга ажратилади.

Функционал бошқарув структурасининг асосчиси Ф.У.Тейлор менежментда фақат мутахассислар ишлаши керак деб хисобларди, яъни бошқарув муносабатлари фақт тор мутахассилар доирасида бажарилишини кўзда тутган.



1-расм. Функционал бошқарув тузилмасининг анъанавий схемаси.
Д - директор; Ф – функционал бошлиқлар; И - ижрочилар

Бундан кўриниб турибдики, битта ижрочига жуда кўп вазифа тушиши билан, бошқаларига вазифаларнинг нисбатан камлиги табиийки улар ўртасидаги алоқаларнинг бузилишига олиб келади. Буни олдини олиш мақсадида ҳар бир ижрочига бир хил вазифа тақсимланиши назоратга олиниши ва шу билан бирга горизонтал муносабатларнинг пайдо бўлиши учун умумий натижалар хисобга олинишини амалга оширсак, функционал тузилмаларининг самарадорлиги юқори бўлишига олиб келади.

Энг самарали функционал тизилмалар ягона махсулот ишлаб чиқарувчи корхоналарда узоқ муддатли ва мураккаб инновацион лойихаларни амалга оширувчи корхоналарда, ўта юқори ихтисослашган корхоналарда,

шунингдек, йирик қурилиш бирлашмалари ва трестларда қўлланилиб келади.

Функционал тузилманинг хусусиятларидан бири ишлаб чиқариш бўлинмаларининг бир неча функционал бўлимлар бўйсуниш тизимидир. Аслида, бу ҳолат бир вақтнинг ўзида хам афзаллик, хам камчиликка эга. Бир томондан, функционал муттахасислар ишлаб чиқариш фаолиятига бевосита таъсир кўрсатиши ва шунга мос равишда пайдо бўлган муаммоларни тезда ҳал қилиши мумкин. Бошқа томондан, агар бошқарув қарорлари функционал бўлимлар ўртасида етарли даражада мувофиқлаштирилмаса, қарама-қаршиликлар пайдо бўлиши мумкин. Функционал менежерлар бир-бирини истисно қиладиган ечимларни амалга оширишда қийинчиликларга дуч келишади. Шунинг учун бундай тузилмада самарадорликнинг муҳим элементи функционал бўлимлар раҳбарлари ўртасида қарорларни мувофиқлаштириш ҳисобланади. Олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, анъанавий функционал тузилмада фақат иерархик муносабатларнинг акс эттирилиши унинг мазмун моҳиятини тўлиқ ифодаламайди. Фикримча, мавжуд алоқаларга қўшимча равишда коммуникатив ва ахборот алоқаларини киритиш зарурати бор.

Функционал бошқарув тузилмаларининг асосий афзалликларига муайян функциялар учун маъсул бўлган ходимларнинг юқори малакаси, улар бир ишни бажарганларидан ўша ишнинг муттахасис бўлишлари, қурилиш объектлари менежерлари кўпгина ихтисослашган масалаларни ҳал қилишдан озод бўлиши, ишлаб чиқаришни оператив бошқариш нуқтаи назаридан уларнинг имкониятлари кенгайиши, муаммоларнинг тезлик билан ечим топишига туртки бўлади. Иш жараёнида тажрибали муттахасисларнинг маслаҳатларидан фойдаланишнинг мумкинлиги, кенгроқ профилдаги мутахассисларга эҳтиёжнинг камайиши, нотўғри қарор қабул қилишнинг олдини олади. Бошқарув функцияларининг такрорланишини истисно қилиниши билан ҳар бир ижрочининг вазифаси аниқ бўлади.

Функционал тузилманинг камчиликларига турли функционал хизматлар ўртасидаги доимий алоқани сақлашда қийинчиликнинг бўлиши, бунда ҳар бир функционал ходим фақат ўз ишини мухим ҳисоблаши ва бир-бири билан алоқанинг камлигини таъкидлаш мумкин. Бошқарув қарорларини қабул қилишнинг кўп вақт талаб қиладиган тартиби, ҳамма мутахассисларнинг таклиф ва мулохазаларини йиғиш, ва таҳлил қилишга кўп вақт талаб қилинади. Функционал бўлимлар ўртасида ўзаро тушуниш ва ҳаракатларда, бирлик мавжуд эмаслиги эса корхонанинг умумий мақсадларига таъсир кўрсатиши мумкин. Бутун жараённинг боришини ва алоҳида лойиҳалар контекстида назоратнинг қийинлашиши, функционал бўлимларнинг кўпайиши билан уларни назорат қилиш ҳам қийинлашади. Назарий ва амалий изланишлар шуни кўрсатдики, бошқарувнинг юқори поғоналарида функционал тузилманинг қўлланилиш доираси кенглигича қолмоқда. Қурилиш ташкилотларида функционал тузилманинг самарасини оширишда қуйидаги тавсиялар ишлаб чиқилган:

-тузилма схемасида ахборот оқимларининг ҳажми ва йўналишларини ифодалаш услубиятини яратиш. Таклиф бўйича тузилманинг ҳар бўғинида

бошқарув ахбороти мониторингини жорий этиш кўзда тутилади. Бунда тузилма бўғини алоҳида турдаги ахборотни қайта ишлаш ва сақлаш маркази сифатида кўрилади;

-функционал тузилманинг асосий камчилиги бўлмиш коммуникациялардаги муаммоларни ҳал қилишда бўғинларни бирлаштирувчи алоқаларнинг мазмунини бойитиш таклифини киритиш. Бунда бўғинларнинг нафақат бўйсуниш вазифалари, балки ўзаро таъсир ўтказиш вазифалари ҳам тузилмалар таркибига киритилади.

Шуни таъкидлаш керакки, қурилишда бошқарувнинг ташкилий тузилмаси - бу ўзаро таъсирнинг мураккаб механизми. Бошқарув даражаларининг умумий сони, таркиби ва ходимларнинг сони, ишлаб чиқаришнинг ихтисослашуви ва ҳажми билан белгиланади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, қурилиш соҳасида функционал тузилманинг ишлатилиши назорат бўлинмасининг яратилиши, унинг бўғинлари ва алоқаларини ривожлантириш билан, ҳар бир ижрочига тушадиган вазифалар тўғри тақсимланиши кўпроқ самара беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги статистика агентлиги. https://stat.uz/uz/

2. Структура в кулаке: создание эффективной организации/ Г. Минцберг; пер. с англ. Под ред. Ю.Н. Каптуревского. - СПб.: Питер,2004. - 512 с.

3. Изюмова Е.А. Совершенствование организационной структуры управления // Фундаментальные исследования. – 2009. – № 5. – С. 133-135; URL: https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=1830.

4. И.Ю.Зильбарова, И.В.Новоселова, О.В.Никулина “Совершенствование организационного поведения в системе менеджмента предпринимательских структур строительной отрасли” России Инженерный вестник Дона, №1 (2018) ivdon.ru/ru/magazine/archive/n1y2018/4732

5. Король С.П., Король Р.А. Структура управления организации как систематическая основа ее технико-организационного и экономического развития: строительство // Экономика, предпринимательство и право. – 2021. – Том 11. – № 12. – С. 3005–3018. doi: 10.18334/epp.11.12.113987

Ф.У. Турсунов – СамИСИ, “Менежмент” кафедраси мудири, и.ф.н., доцент

КОРХОНАНИ БОШҚАРИШДА АХБОРОТ ТИЗИМИ

Аннотация: *Мақолада ҳужжатлар айланишини автоматлаштириш, мижозларга хизмат кўрсатиш сифатини яхшилаш, инвестиция ва бошқа хизмат кўрсатиш ресурсларидан самарали фойдаланиш ўрганлиган.*

Калит сўзлари: *Ахборот тизими, стратегик бошқариш, самарадорлик, коммуникация, инвестиция, мижоз, хизмат кўрсатиш.*

Аннотация: *В статье рассматривается автоматизация документооборота, повышение качества обслуживания клиентов, эффективное использование инвестиционных и других сервисных ресурсов.*

Ключевые слова*: Информационная система, стратегическое управление, эффективность, коммуникация, инвестиции, клиент, сервис.*

Abstract: *The article examines the automation of document flow, improving the quality of customer service, effective use of investment and other service resources.*

Keywords: *Information system, strategic management, efficiency, communication, investment, client, service.*

Замонавий корхоналарда стратегик режалаштириш ҳамда бошқаришнинг энг илғор усулларидан фойдаланиб келинмоқда, аммо янгидан ташкил этилаётган корхоналарда ўз стратегияларини белгилашда ташқи ва ички муҳитнинг ўзгарувчан шарт-шароитларига мослаша олмаяпти. Бу эса стратегик бошқаришда ахборот тизимларидан самарали фойдаланиш зарурлигини кўрсатади ва корхона ривожланишини стратегик механизмларини ишлаб чиқиш билан боғлиқ.

Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, ҳар қандай ижтимоий иқтисодий ва ташкилий-хизмат кўрсатиш тизимини бошқариш ахборот алмашуви билан боғлиқ. Бошқарув қарорларининг бажарилишини таъминлаш учун бошқарув жараёнида ҳар лаҳзада тизимнинг ҳолати, олдинга қўйилган мақсадларга эришиш ёки эришилмаётганлик тўғрисида маълумотлар олиниши керак. Бошқарув органи бошқарув объекти тўғрисида ахборот олади, уни таҳлил қилади, қарор қабул қилади ва уни яна бошқарув объектига юборади, шу тариқа, тизимда ахборот оқимлари доимий равишда ҳаракатда бўлади. Бошқарув жараёнида зарур ахборот қайд этилади, сақланади, тўпланади, қайта ишланади ва узатилади.

Ушбу тадбирлар мажмуи бошқарувнинг ахборот жараёнларини ташкил этади. Бошқарувнинг ахборот жараёнларида иқтисодий ахборот муҳим ўрин тутади. Корхонанинг молиявий ҳисоботини тузишда ахборотни йиғиш, сақлаш ва қайта ишлаш амалга оширилади. Буни техник жиҳатдан амалга ошириш учун ишни ташкил этишнинг тегишли шакллари, техник воситалар, маълумотларни ўзгартириш усуллари ва тегишли малакага эга бўлган ходимлар талаб этилади.

Бугунги кунда мамлакатимизда ахборот-коммуникациялар технологияларидан фойдаланмаётган ташкилотлар деярли қолмади ва улардан аксариятининг ҳозирги вақтдаги муаммоси у ёки бу жараёнларни автоматлаштирилмаганлигида эмас, балки узоқ муддатли режаларсиз ва уни ривожлантириш истиқболари ҳақида тасаввурга эга бўлмасдан туриб амалга оширилган стихияли автоматлаштириш оқибатидир.

Корхонани тезкор бошқариш тизимида компьютерлар кўпроқ қуйидаги мақсадлар учун фойдаланилади:

-хизмат кўрсатишнинг тезкор режаларини ишлаб чиқиш ва уларнинг бажарилишини назорат қилиш;

-хизмат кўрсатиш жараёнлари учун зарур бўлган техникалар

заҳираларининг ҳаракатини назорат қилиш;

-буюртмаларни назорат қилиш;

-хизматлар кўрсатилганлиги тўғрисидаги маълумотларни таҳлил қилиш;

-тўловлар тушумини рўйхатга олиш;

-ҳисоб юритиш ва ҳисоботлар.

Телекоммуникациялар тизимларининг ривожланиши рақамли ва матнли ахборотга ишлов беришнинг барча техник воситаларини корхона ичидаги ягона ахборот тизимига бирлаштириш имконини берди. Бир вақтнинг ўзида ҳисоблаш техникаси ва матнли ахборотга автоматлаштирилган тарзда ишлов бериш воситаларидан фойдаланишга асосланган ахборот тизими энг самарали ҳисобланади.

Корхона фаолиятининг самарадорлиги корхонада ҳужжатлар айланиши қандай ташкил этилганлигига боғлиқ. Корхонани бошқариш сифатига ҳужжатларни шакллантирилганлиги, ахборотни қабул қилиш-узатишнинг тезкорлиги ва сифати, маълумот-ахборот хизмати ишлашининг уйғунлашганлиги, ҳужжатларни сақлаш, қидириб топиш ва улардан фойдаланишнинг аниқ ташкил этилиши каби омиллар таъсир кўрсатади.

Ҳужжатлар айланишини автоматлаштириш асосан қуйидагилар учун зарур:

-корхонада содир бўлаётган яхлит манзарани шакллантириш;

-барча бўлинмаларнинг уйғунлик билан ишлаши;

-мижозларга хизмат кўрсатиш сифатини яхшилаш;

-инсон, коммуникация, инвестиция ва бошқа хизмат кўрсатиш ресурсларидан самарали фойдаланиш.

Кўплаб мамлакатлар тажрибаси ҳозирги динамик ривожланаётган дунёда ахборот-коммуникация технологиялари иқтисодий ривожланишнинг локомотиви эканлигини, мамлакатга инвестициялар жалб этилишига, янги иш ўринлари ташкил этилишига, илғор технологияларни ишлаб чиқаришга ва бошқарувга татбиқ этилишига, ахборот айирбошлашда чиқимлар қисқартирилишига кўмаклашишини кўрсатмоқда. Бу ўз навбатида қуйидаги вазифаларни амалга ошириш зарурлигини белгилайди:

-интернет ресурсларидан фойдаланган ҳолда ташқи алоқаларни таъминлашда зарур бўлган тармоқ ресурсларини интеграциялаш;

-ҳужжатларнинг электрон айланишининг ягона тизимини жорий этиш;

-оммавий электрон хизматларнинг бошланғич рўйхатини белгилаш, тегишли порталлар ташкил этиш, улар билан боғлиқ бўлган интерактив ахборот айирбошлашни шакиллантириш;

-бизнес субъектлари ва аҳоли учун интернет ресурсларига киришни таъминлайдиган ахборот–коммуникация инфратузилмасини шакиллантириш муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: «Ўзбекистон», 2022 йил.

2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови. – Т.: «Ўзбекистон», 2017 йил.

3. Салихов С.А. Инновацион фаолиятни бошқариш. Дарслик.-Т.: ТДИУ, 2013 йил.

4. Борисова.О.В. и другие. Корпоративные финансы. Учебник и практикум.- М.: Юрайт, 2015 год.

5. Веснин В.Р. Управление персоналом в схемах. М., 2007 год

М.М.Рустамова - Ферганский Политехнический институт преподаватель кафедры «Менеджмент»

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ

Аннотация: *Значимость статьи состоит в том, что ее концептуальные положения, методологические подходы и выводы позволяют дополнить и уточнить существующие научные представления о содержании процессов и характеристик инновационного развития социально-экономических систем, расширить методический аппарат, используемый для обоснования резервов и источников интенсивного хозяйственного роста в нестабильной рыночной среде, а также вносят определенный вклад в формирование механизма обеспечения конкурентоспособности национальной инновационной системы.*

Ключевые слова: *Инновационные процессы, социально-экономическая система, современная экономическая наука, научно-технический прогресс, демократизация, либерализация, общественная жизнь, глобализация хозяйствования, инновационное разделение труда.*

Annotatsiya: *Maqolaning ahamiyati shundaki, uning kontseptual qoidalari, uslubiy yondashuvlari va xulosalari jarayonlarning mazmuni haqidagi mavjud ilmiy g‘oyalarni to‘ldirish va aniqlashtirish imkonini beradi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning innovatsion rivojlanishi va xususiyatlari, uslubiy apparatini kengaytirish; barqaror bo‘lmagan bozor sharoitida intensiv iqtisodiy o‘sish zahiralari va manbalarini oqlash uchun foydalaniladi; hamda milliy innovatsion tizimning raqobatbardoshligini ta‘minlash mexanizmini shakllantirishga ma‘lum hissa qo‘shish.*

Kalit suzlar: *Innovatsion jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy tizim, zamonaviy iqtisodiy fan, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, demokratlashtirish, liberallashtirish, jamiyat hayoti, iqtisodiy globallashuv, innovatsion mehnat taqsimoti.*

Abstract: *The significance of the article lies in the fact that its conceptual provisions, methodological approaches and conclusions make it possible to supplement and clarify existing scientific ideas about the content of processes and characteristics of innovative development of socio-economic systems, expand the methodological apparatus, used to justify reserves and sources of intensive*

economic growth in an unstable market environment, and also make a certain contribution to the formation of a mechanism for ensuring the competitiveness of the national innovation system.

***Keywords**: Innovation processes, socio-economic system, modern economic science, scientific and technological progress, democratization, liberalization, public life, globalization of economics, innovative division of labor.*

I. Введение.

Инновационные процессы оказывают сегодня значительное влияние на трансформацию социально-экономических систем всех современных экономик. Поэтому анализ инновационного развития является теоретически весьма значимой задачей современной экономической науки. Общепризнанным является то, что к числу аспектов, оказывающих наибольшее влияние на инновационное развитие социально-экономических систем относят следующие: научно-технический прогресс, демократизация и либерализация общественной жизни, глобализация хозяйствования. Еще одним важнейшим аспектом инновационного развития, которому, как правило, недостаточно уделяется внимания на теоретическом уровне, и который воспринимается как само собой разумеющийся, является инновационное разделение труда между странами, сложившееся де-факто, в современном мире. Рассмотрим данный вопрос подробнее.

В условиях технологической гонки между старыми экономическими лидерами и новыми индустриальными странами, сформировалась новая макроконкурентная парадигма – концептуальный взгляд на развитие социально-экономических макроуровня в современных условиях [1].

Согласно данной парадигме, в современном мире сложилось устойчивое трехуровневое разделение труда, которое страны современного мира разделили на три основных эшелона. Первый эшелон образуют страны-лидеры. Страна лидер – это прежде всего генератор инновационного интеллектуально-информационного продукта мирового уровня. Это лидер в области генерации технических, технологических, предпринимательских и прочих идей, концепций, ноу-хау. Совокупность стран лидирующих в производстве инновационного информационно-интеллектуального продукта образует первый эшелон стран в международном инновационном разделении труда.

Часть интеллектуально-информационных наработок стран первого эшелона используются ими внутри собственных социально-экономических систем. Но подавляющая их часть, предназначенная для производства продукции массового спроса, продается прежде всего странам второго эшелона в виде лицензий, различного рода прав аренды на технические, технологические и организационные решения[2]. Также информационные наработки могут реализовываться в страны второго эшелона в виде продажи принципиально новой продукции и услуг. Данная продукция является продукцией непосредственно «от производителя». Особенность сделок с данной продукцией заключается в том, что при ее продаже у покупателя возникает возможность, во-первых, опередить своих конкурентов

технологически, используя данную продукцию по ее прямому назначению, во-вторых, – исследовав ее, произвести копию и выйти на международный рынок с соответствующей, по существу пиратской копией[1]. То есть принципиальная значимость этой продукции заключается в том, что она может служить носителем информационно-интеллектуального продукта в неявном виде.

Научно—теоретическое предложение и рекомендации. Странам третьего эшелона со стороны стран первого эшелона так же могут быть проданы отдельные идеи, продукты и услуги, но в значительно меньшем объеме. Существенный признак, отличающий позицию стран третьего эшелона в международном разделении труда от позиции стран второго эшелона – это то, что страны третьего эшелона покупают товары исключительно для внутреннего потребления. Они не используют его для производства экспортных товаров, не изучают его для производства копии. Исключение составляют отдельные сырьевые отрасли и отрасли производящие продукцию низких переделов, на которых, как правило, специализируются страны третьего эшелона. Для таких отраслей покупается высокотехнологичная продукция у стран первого и второго эшелона. Но и продукт данных отраслей предназначен в основной своей массе для международной торговли – для стран первого и второго эшелона.

Экспортируемый поток информационно-интеллектуального продукта из стран первого эшелона порождает встречный финансовый поток, оплачивающий соответствующий экспорт. Так, продавая идеи, патенты, лицензии и принципиально новую продукцию за рубеж, страны первого эшелона: покрывают свои затраты на разработку инновационных идей, продукции и услуг, покрывают свои затраты на производство инновационной продукции и услуг, получают средний процент прибыли на вложенный капитал на производство информационно-интеллектуального продукта и принципиально новой продукции и услуг; получают особый вид дохода – инновационную маржу, которую взимают с покупателей своей продукции.

Список литературы / References

1.Батукова Л.Р. Инновационное развитие социально-экономических систем: структуризация мировой экономики на основе инновационного разделения труда (Москва, 2020 г.).

2. Батукова Л.Р. Актуальные вопросы экономики и управления Междунар. науч. конф. (Москва, апрель 2021 г.) С. 95-97.

Улугмуродов Ф.Ф. – СамИСИ “Рақамли иқтисодиёт” кафедраси ассистент стажёри
Боймуротова М.Б. – СамИСИ Иқтисодиёт факултети ик-422 гуруҳ талабаси
Холбоев Б.Е. – СамИСИ Иқтисодиёт факултети ик-422 гуруҳ талабаси

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Аннотация: *Мақолада туризм соҳасидаги рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши, шунингдек, унинг ривожланишига таъсир қилувчи ички ва ташқи омиллар муҳокама қилинган. Ушбу тадқиқотнинг аҳамияти шундан иборатки, рақамли иқтисодиётни шакллантиришнинг шарт-шароитлари ва омиллари ва туризм фаолиятини ахборот билан таъминлашнинг ҳозирги кўриб чиқилиши унинг ривожланиши учун енг муҳим туртки ҳисобланган масалалар кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *рақамли иқтисодиёт, тадбиркорлик, туризм, туризм соҳаси, ахборот технологияларнинг ривожланиши.*

Abstract: *The article discusses the development of the digital economy in the field of tourism, as well as internal and external factors affecting its development. The importance of this study is that the conditions and factors of the formation of the digital economy and the current review of the provision of information to tourism activities are considered the issues that are considered the most important impetus for its development.*

Key words: *digital economy, entrepreneurship, tourism, tourism sector, development of information technologies.*

Аннотация: *В статье рассматривается развитие цифровой экономики в сфере туризма, а также внутренние и внешние факторы, влияющие на ее развитие. Важность данного исследования заключается в том, что условия и факторы формирования цифровой экономики и современный обзор информационного обеспечения туристической деятельности рассматриваются как вопросы, которые считаются важнейшим стимулом для ее развития.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, предпринимательство, туризм, туристический сектор, развитие информационных технологий.*

Туризмни ривожлантириш даражаси – мамлакат, унинг ҳудудлари ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ва аҳоли фаровонлигини тавсифловчи параметрлардан биридир. Туризм соҳасида айниқса инновациялар муҳим рол ўйнайди. Жаҳон амалиёти шуни кўрсатадики, туризм рентабеллиги ва ривожланиш динамикаси бўйича нефт ва газни қазиб олиш ва қайта ишлашдан кейин иккинчи ўринда туради. Туризм кўплаб давлатларнинг миллий иқтисодиётлари учун иқтисодий фаолиятнинг енг муҳим соҳасидир. Бундан ташқари, туризм ахборотга бой соҳа бўлиб, унда ахборотни йиғиш, узатиш, таҳлил қилиш ва сақлаш соҳанинг барча даражаларида қарорлар

қабул қилишда муҳим рол ўйнашини таъкидлаш лозим.

Шу муносабат билан рақамли иқтисодиётни шакллантириш ва ривожлантириш туризм фаолияти учун катта аҳамиятга ега бўлиб, унда енг янги ахборот-коммуникация технологиялари фаол қўлланилмоқда. Туризмни ахборот билан таъминлаш – бу туризм тизимининг самарали ишлашини таъминлайдиган туризм фаолияти ва уни қайта ишлаш ва таҳлил қилиш учун мўлжалланган ихтисослаштирилган ахборот технологиялари тўғрисидаги маълумотлар мажмуаси. Туризм фаолиятида хизматларни ишлаб чиқаришнинг асосий омили хизматларнинг потенциал истеъмолчиси олиши мумкин бўлган маълумотдир ва туристик фаолиятнинг якуний натижаси истеъмолчининг саёҳат пайтида олган таассуротидир.

Фаолиятнинг аксарияти рақамли иқтисодиётнинг ривожланишига мос равишда, жумладан, турларни брон қилиш тизими, електрон тўлов технологиялари ва бошқаларни ҳисобга олган ҳолда қайта тузилди.Рақамли иқтисодиётнинг шаклланиш даражаси кўп жиҳатдан ахборот-коммуникация технологияларининг (АКТ) ривожланиши ва уларни жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига жорий етиш даражаси билан белгиланади. Технологияларнинг ривожланиши туфайли Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг 81 фоизи, савдо корхоналарининг 93 фоизи, транспорт корхоналарининг 80 фоизи, давлат органларининг 95 фоизи интернетдан фойдаланади. Энг муҳими, интернет-технологиялар молиявий операцияларда, давлат органлари билан ўзаро алоқада, етказиб берувчилар ва истеъмолчилар билан алоқа қилишда қўлланилади. Асосан, туризм соҳасидаги барча корхоналар у ёки бу даражада ахбороткоммуникация технологияларидан фойдаланади.Ахборот инфратузилмасини мега даражада шакллантириш билан Жаҳон сайёҳлик ташкилоти (UNWTO), Бутунжаҳон саёҳат ва туризм кенгаши (WTTC) каби ташкилотлар шуғулланади. Макро даражада туризмда ахборот инфратузилмасини ривожлантириш миллий туризм маъмуриятлари ва миллий туризм ташкилотлари зиммасига юкланган. Минтақавий даражада ахборот инфратузилмаси тегишлиҳудудий туризмни бошқариш органлари томонидан шакллантирилади. Қайд етиш жоизки, туризм ва рекреацион фаолиятда рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши асосан ички ва ташқи муҳит омилларига боғлиқ. Бу омиллар бир-бири билан ўзаро таъсир қилади ва макродаражада давлат ва минтақа, микродаражадаги корхоналар ривожланишининг ўзига хос ижтимоийиқтисодий шароитларига боғликдир.

2024-йилда Ўзбекистионга 10 млн хорижий сайёҳ келишини кутмоқдамиз — Азиз Абдуҳакимов

«2022-йилда Ўзбекистионга 5,2 млн сайёҳ ташриф буюрган бўлса, 2023-йилнинг дастлабки уч чорагида биз 7 млн меҳмонни қабул қилдик, 2024-йилда 10 млн хорижий сайёҳ келишини кутмоқдамиз», — деди Екология, атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим оʻзгариши вазири Азиз Абдуҳакимов Глобал инвестиция форумининг очилиш маросимида. 2026-йилда Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарлари бўйлаб ҳаракатланадиган ҳашаматли поезд қантови йўлга қўйилади деб таъкидлади.

Макро даражада туризм соҳасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш учун ташқи омиллар шакллантирилади. Анъанавий равишда улар икки гуруҳга бўлинади:

1. Статистик - табиий-иқлим, географик, маданий-тарихий

2. Динамик - сиёсий-ҳуқуқий, ижтимоий-демографик, молиявий-иқтисодий, моддий-техник.

Минтақа ва мамлакат миқёсида туризмнинг асосини табиий ресурслар ташкил етади, улар таркибига табиий ландшафтлар, денгизлар, вулқонлар, дарёлар, тоғлар, минерал сувлар, шифобахш булоқлар, иқлим киради. Шунингдек, туризм фаолиятини ривожлантиришда маданий-тарихий омиллар: тарихий ёдгорликлар, ёдгорликлар, музейлар, ҳудудларнинг маҳаллий аҳолисининг маданияти ва урф-одатлари ва бошқалар муҳим рол ўйнайди. Туристик фаолият асосан табиий-иқлим ва маданий-тарихий омилларга қаратилган. Ҳудудларни саводсиз ўзлаштириш, табиий ва маданий меросдан фойдаланишга нотўғри ёндашувтуризм салоҳиятининг пасайишига олиб келиши мумкин.

Юқорида еътиборга олиб ишга хулоса қиладиган бўлсак, туризм фаолиятининг ташқи муҳитини таҳлил қилишда юқорида санаб ўтилган, рақамли иқтисодиёт ва янги маҳсулотларни шакллантириш, амалга ошириш ва кейинчалик ривожлантиришга бевосита таъсир кўрсатадиган омилларга катта еътибор қаратиш лозим. Буларнинг барчаси бутун туризм соҳасининг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021, 396 бет.

2. Рахимов З.О., Исмаилов Н.И. Ривожланаётган рақамли иқтисодиётда рақамлашаётган туризмнинг аҳамияти. Нукус 2020 йил 3-сон (ISSN 2010-9075). 42-45 бет.

3. Рахимов З.О. Рақамли иқтисодиётда рақамлашаётган туризмнинг янги турларининг ривожланиши. СамИСИда ўтказилган «Туризмда инновацион-инвестиция жараёнларини ривожлантириш истиқболлари» мавзусида халқаро онлайн илмий-амалий конфренсияси.

4. Loyiha Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ko‘magida amalga oshiriladi (https://www.railway.uz/uz/informatsionnaya_sluzhba/novosti/35119/).

5. Ulugmurodov, F. F., & Bahodirovich, H. U. (2023). Prospects of Developing Active Tourism in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(6), 69-71.

6. Faxriddinovich, U. F. ., & Bakhodirovich, E. D. . (2023). The main directions of development of innovative activities in the service sector in the digital economy. "online - conferences" platform, 98–100.

Sh.B.Bahodirov - SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali “Raqamli texnalogiyalar va iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
X.T.Uktamov - SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali “Raqamli texnalogiyalar va iqtisodiyot” kafedrasi B.H 21-11-guruh talabasi

HUDUDIY TURIZM XIZMATLARINING O‘SISH SUR’ATLARINI TA’MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda turizm xizmatlari bozorining rivojlanishida Raqamli texnologiyalarni joriy etish, turizm sohasini asosiy tendensiyalari, Raqamlashtirishning ahamiyati, mamlakatimizda hududlarning turistik imkoniyatlarini oshirish va targ‘ib etish O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi o‘rni holati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *xalqaro turizm xizmatlar bozori, Raqamli texnologiyal, YaIMdagi turizm hajmi, turistik xizmatlar eksporti, turizm sohasiga sarflangan davlat xarajatlari dinamikasi, turizm sohasiga kapital qo‘yilmalar hajmi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются внедрение цифровых технологий в развитие рынка туристических услуг Узбекистана, основные тенденции развития туристической отрасли, значение цифровизации, повышение и продвижение туристического потенциала регионов нашей страны, а также роль цифровая экономика в валовом внутреннем продукте Узбекистана.*

Ключевые слова: *международный рынок туристических услуг, Цифровые технологии, объем туризма в ВВП, экспорт туристических услуг, динамика государственных расходов на туризм, объем капитальных вложений в туризм.*

Abstract: *This article analyzes the introduction of digital technologies in the development of the market of tourism services in Uzbekistan, the main trends of the tourism industry, the importance of digitalization, increasing and promoting the tourist potential of regions in our country, and the role of the digital economy in the gross domestic product in Uzbekistan.*

Key words: *international tourism services market, Digital technology, volume of tourism in GDP, export of tourist services, dynamics of government spending on tourism, volume of capital investments in tourism.*

Raqamli texnologiyalarni joriy etish turizm sohasini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini shakllantiradi, bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va raqamli xizmatlar va platformalar ishtirokchilarining xabardorligini oshirish orqali turizm mahsulotining deyarli barcha tarkibiy qismlariga tobora ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln. nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln. nafarga etkazish vazifasini amalga oshirishga mamlakatimizda xalqaro turizm bilan bir qatorda ichki turizmni

ham izchil rivojlantirish bo‘yicha katta imkoniyatlar mavjud.

Zero, turizm iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi farovonligini yuksaltirishning muhim omilidir. Shu bois mamlakatimizda hududlarning turistik imkoniyatlarini oshirish va targ‘ib etish, kurortlar hamda turistik tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Har bir hududning o‘ziga xos jihatlari, ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda manzilli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne’matlarining ustuvor o‘rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o‘ziga xos tushuncha bo‘lib, uning o‘rganish ob’yekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davrida bo‘lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga o‘tishi atiga bir necha o‘n yilni tashkil etadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli ko‘rinishdagi ma’lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir.

Dunyoda raqamli iqtisodiyot o‘sishining sur’atlari yiliga deyarli 20 foizni tashkil etmoqda. Taraqqiy etgan davlatlarda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 foizga etgan. Ular hozirning o‘zida raqamli iqtisodiyotning joriy qilinishidan juda katta naf ko‘rishmoqda. Xususan, Amerika Qo‘shma Shtatlari yiliga 400 milliard AQSh dollaridan ko‘proq raqamli xizmatlarni eksport qilmoqda. Mazkur davlat yalpi ichki mahsulotining 5 foizidan ko‘prog‘i bevosita internet va axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari bilan bog‘liq sohalarga to‘g‘ri keladi. 2025 yilgacha AQSh sanoatni raqamlashtirishdan qo‘shimcha 20 trln. dollar daromad olishi kutilmoqda. Bunday iqtisodiy samaradorlik, ayniqsa iste’mol tovarlari ishlab chiqarish (10,3 trln. dollar), avtomobil sanoati (3,8 trln. dollar) va logistikada (3,9 trln. dollar) yuqori bo‘lishi ta’kidlanmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 13 fevral kuni axborot texnologiyalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadbirda keltirgan statistik ma’lumotlariga ko‘ra raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi Rossiyada 3,9 foiz, Hindistonda 5,5 foiz, Belorussiyada 6,5 foiz, Xitoyda 10 foiz, AQShda 10,9 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 2 foizdan ham oshmaydi (1.3.1-rasm).



1.3.1-rasm. Ayrim horijiy mamlakatlar va O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi o‘rni (% da).

Raqamlashtirishning ahamiyati va ta’sirini qanchalik ortib borayotganligini baholash uchun so‘nggi o‘n yillikdagi bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va raqamli platformalarning jahon bozoridagi kapitallarining ulushini ko‘rish kifoya. Xususan, BMTning savdo va rivojlanish konferensiyasi ma’lumotlarida qayd etilganidek, bu ko‘rsatkich 2009 yilda 16 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning oxiriga kelib 66 foizga etgan.

Bu borada, so‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotimizni tubdan modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va davlat boshqaruvi tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 3- iyuldagi PQ-3832-sonli qarori qabul qilinishi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim qadam bo‘lib, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagilarni nazarda tutuvchi eng muhim vazifalar belgilab berildi:

Chunonchi, mamlakatimizda “Elektron hukumat” tizimini joriy etish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, uning asosiy maqsadi ma’muriy tartib va taomillardan o‘tishni soddalashtirish, aholi turmush sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan.

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida 2020 yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nom berish taklifi ilgari surilishi tom ma’noda O‘zbekiston hayotida global taraqqiyotga hamohang ravishda tarixiy

burilish davri boshlanganini tasdiqladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, 2026 yilga kelib global YaIMning chorak qismi raqamli sohada bo‘lishini taxmin qilinmoqda. Lekin, xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish indeksi bo‘yicha O‘zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-o‘rinni egallab turishining o‘zi mamlakatimizda bu sohada hali o‘z echimini kutayotgan masalalar va qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘pligidan dalolat beradi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin”.

O‘z o‘rnida qayd etib etish lozimki, mamlakatimiz hayotida raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o‘tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o‘tkazilmoqda.

Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyot miqyosining kengayib borishida xalqaro hamkorlikni imkon qadar kuchaytirish zarur. Shu o‘rinda mamnuniyat bilan qayd etish joizki, O‘zbekistonda axborot xavfsizligi sohasida olib borilayotgan ta’sirchan chora-tadbirlar natijasida 2019 yilda Kiberxavfsizlik global indeksida 41 pog‘onaga ko‘tarilib, 52 o‘rinni egalladik.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi. Bunga erishish uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi asosiy shartlari va ustuvor yo‘nalishlarini sanab o‘tish maqsadga muvofiq:

raqamli texnologiyalar barqaror faoliyat ko‘rsatishi uchun institutsional muhit va raqamli infratuzilmani yaratish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari, sog‘liqni saqlash, davlat kadastri va boshqa sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududini rivojlangan mamlakatlar darajasida internet global tarmog‘iga ulanish imkoniyatlari bilan imkon qadar to‘liq qoplashni bosqichma-bosqich ta’minlash;

kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish va bu yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilimga ega malakali dasturchilar va injener-texnik xodimlarni etishtirish, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to‘liq javob beradigan zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘qitish, shu jumladan, xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda “1 million dasturchi” loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirish;

raqamli iqtisodiyot sohasida ilmiy-nazariy bazani mustahkamlash va bu

sohada “Raqamli ishonch” jamg‘armasi mablag‘laridan maqsadli foydalangan holda ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash;

aholining keng qatlamlari o‘rtasida “raqamli savodxonlik”ni targ‘ib kilish va kengaytirish, ularni axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishga jalb qilish maqsadida o‘quv yurtlarida seminar, kurslar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish;

raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mehnat bozorini tashkil etish va uning mobilligini oshirish, yangi texnologiyalarni tezkorlik bilan o‘zlashtirish uchun mutaxassislar malakasini oshirib borish;

raqamli iqtisodiyot sohasidagi xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, etakchi xalqaro texnologik kompaniyalar bilan o‘zaro hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirish, shu jumladan, innovatsion ishlanmalar bo‘yicha zamonaviy ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalarini tashkil etish.

Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalar va IT-kompaniyalarni qo‘llab quvvatlagan holda qulay ekotizimni yaratishi lozim.

Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo‘llab-quvvatlash sohasida raqamli ta’limning zamonaviy metodlarini qo‘llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o‘zlashtirishda ko‘maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan risklarni pasaytirish choralarini ko‘rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

X.Y.Axrorov - Jizzax politexnika instituti “Qurilish materiallari va kimyoviy texnologiya” fakulteti 2-bosqich talabasi

B.N.Gapparov - Jizzax politexnika instituti “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

JIZZAX VILOYATINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA KOOPERATSIYAGA ASOSLANGAN KLASTERLARNING ROLI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: *Maqolada Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda kooperatsion klasterlarining o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qo‘llaniladigan kooperatsion munosabatlarning turli shakllari va usullari, jumladan, gorizontal va vertikal integratsiya, strategik ittifoq va sheriklik, kooperativlar, tarmoq tuzilmalari, konsorsiumlar, autsorsing va autstaffing, franchayzing, litsenziyalash, shuningdek, hamkorlikning qattiq va yumshoq shakllari tahlil qilinadi. Mazkur yondashuvlar sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni rag‘batlantirish, hududning eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi ahamiyati ta’kidlandi. Maqolada viloyat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida Jizzax viloyatida kooperatsion klasterlarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni davlat tomonidan*

qo‘llab-quvvatlash zarurligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: *Kooperatsion klasterlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Jizzax viloyati, gorizontal integratsiya, vertikal integratsiya, strategik hamkorlik, innovatsion hamkorlik, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль и значение кооперативных кластеров в социально-экономическом развитии Джизакской области. Анализируются различные формы и методы кооперативных отношений, используемые хозяйствующими субъектами, включая горизонтальную и вертикальную интеграцию, стратегические альянсы и партнерства, кооперативы, сетевые структуры, консорциумы, аутсорсинг и аутстаффинг, франчайзинг, лицензирование, а также жесткие и мягкие формы сотрудничества. Подчеркнута важность данных подходов в стимулировании развития промышленности и сельского хозяйства, повышении экспортного потенциала региона, создании новых рабочих мест и обеспечении устойчивого развития. В статье говорится о необходимости государственной поддержки инициатив, направленных на формирование и развитие кооперативных кластеров в Джизакской области, как одного из приоритетов региональной экономической политики.*

Ключевые слова: *Кооперационные кластеры, социально-экономическое развитие, Джизакская область, горизонтальная интеграция, вертикальная интеграция, стратегическое сотрудничество, инновационное сотрудничество, государственная поддержка.*

Annotation: *The article discusses the role and importance of cooperative clusters in the socio-economic development of the Jizzakh region. Various forms and methods of cooperative relations used by business entities are analyzed, including horizontal and vertical integration, strategic alliances and partnerships, cooperatives, network structures, consortia, outsourcing and outstaffing, franchising, licensing, as well as hard and soft forms of cooperation. The importance of these approaches in stimulating the development of industry and agriculture, increasing the export potential of the region, creating new jobs and ensuring sustainable development was emphasized. The article talks about the need for state support for initiatives aimed at the formation and development of cooperative clusters in the Jizzakh region, as one of the priorities of regional economic policy.*

Key words: *Cooperation clusters, socio-economic development, Jizzakh region, horizontal integration, vertical integration, strategic cooperation, innovative cooperation, government support.*

O‘zbekiston Respublikasining markazida joylashgan Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi, sanoat va kadrlar salohiyati jihatidan mamlakatimizning strategik muhim mintaqalaridan biridir. Bu hududda kooperatsiya klasterlarini rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashda alohida ahamiyatga ega. Avvalo, kooperatsion klasterlar nima?

Kooperatsion klasterlar - bu iqtisodiyotni birgalikda rivojlantirish, raqobatbardoshlik, innovatsiya va samaradorlikni oshirishdan iborat bo‘lgan korxonalar, ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va davlat organlarining

birlashmalaridir. Klasterlarning asosiy vazifasi o‘zaro manfaatlarga erishish uchun ishtirokchilar o‘rtasida samarali hamkorlik qilish uchun sharoit yaratishdir.

Jizzax viloyati an’anaviy tarzda qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lsada, keyingi yillarda viloyatda sanoat, xizmat ko‘rsatish va turizm jadal rivojlanmoqda. Bunday sharoitda kooperatsion klasterlarni yaratish va rivojlantirish iqtisodiyotning turli tarmoqlarini integratsiyalash va sinergik samaraga erishish mexanizmiga aylanadi.

Xo‘sh, Jizzax viloyatida kooperatsion klasterlarning roli qanday ?

1.Sanoat rivojlanishini jadallashtirish bo‘yicha:

Klasterlar sanoatni rivojlantirish uchun resurslar va vakolatlarni jamlash imkonini beradi. Ular yuqori ishlab chiqarish va innovatsion faollikni ta’minlaydi, yangi texnologiyalarni joriy etishga va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

2.Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha:

Maslan, Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasidan foyda ko‘rishi mumkin, chunki klasterlashtirish qishloq xo‘jaligi texnologiyalaridan yaxshiroq foydalanish, zamonaviy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish va mahsulotlar bozorlarini kengaytirish imkonini beradi.

3.Eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha:

Kooperatsion klasterlar eksportga yo‘naltirilgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga, mintaqaviy brendlarni shakllantirishga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga chiqishiga ko‘maklashadi.

4.Yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha:

Klasterlar faoliyatini faollashtirish yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, ishsizlikning kamayishiga va natijada aholi turmush darajasining oshishiga olib keladi.

5.Barqaror rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha:

Klasterlar iqtisodiy rivojlanish va ekologik manfaatlarni muvozanatlashda yordam beradi va shu orqali mintaqaning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalari iqtisodiyotni samarali rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Ular sizga resurslar, tajriba va ma'lumotlarni almashish imkonini beradi va shu bilan har bir alohida korxonaning xatarlari va xarajatlarini kamaytiradi. Bu erda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan qo‘llaniladigan hamkorlikning bir nechta asosiy shakllari va usullari keltirilgan:

Gorizontal va vertikal integratsiya

Gorizontal integratsiya ishlab chiqarish jarayonining bir bosqichida bir sohada faoliyat yurituvchi kompaniyalarning birlashishini o‘z ichiga oladi. Bunday kombinatsiya bozor qudratini oshirish, raqobatni kamaytirish va miqyosda iqtisodga erishishga qaratilgan.

Vertikal integratsiya bir xil sanoatni ishlab chiqarish yoki taqsimlashning turli bosqichlarida ishlaydigan tashkilotlarni birlashtirishni o‘z ichiga oladi, bu mahsulot yoki xizmatni yaratishning to‘liq siklini nazorat qilish imkonini beradi.

Strategik ittifoqlar va hamkorliklar

Bu ikki yoki undan ortiq mustaqil kompaniyalarning korporativ

mustaqilligini saqlab qolgan holda strategik maqsadlarga erishish uchun hamkorligidir. Hamkorlar birgalikda tadqiqot va ishlanmalar, marketing, savdo va boshqa sohalarga sarmoya kiritishlari mumkin.

Kooperativlar

Kooperativlar - bu xodimlar, iste'molchilar yoki etkazib beruvchilar bo'lishi mumkin bo'lgan o'z a'zolariga tegishli bo'lgan va boshqaradigan tashkilotlar. Bu kooperativ a'zolariga o'z xo'jalik faoliyati shartlariga ta'sir qilish imkonini beradigan o'z-o'ziga yordam va o'zini o'zi boshqarish shaklidir.

Tarmoq tuzilmalari

Tarmoq tuzilmalari tashkilotlarga aloqalarni boshqarish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda birgalikda ishlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv moslashuvchanlikni va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishni ta'minlaydi.

Konsorsiumlar

Bu katta loyiha ustida birgalikda ishlash yoki birlashtirilgan resurslar va maxsus bilim talab qilinadigan tenderlarda qatnashish uchun bir nechta tashkilotlarni birlashtirishni o'z ichiga oladi.

Autsorsing va autstaffing

Autsorsing - bu xarajatlarni kamaytirish va asosiy vakolatlarga e'tibor qaratish uchun ma'lum biznes jarayonlari yoki ishlab chiqarish funktsiyalarini boshqa kompaniyaga o'tkazish jarayoni hisoblanadi.

Autstaffing - bu bir kompaniyaning boshqa tashkilotga ma'lum ishlarni bajarish uchun xodimlarni taqdim etishidir.

Franchayzing. Franchayzingda bir kompaniya (franchayzer) boshqa biznesga (franchayzi) kompensatsiya evaziga o'z brendi, biznes modeli va yordamidan foydalanish huquqini beradi.

Litsenziyalash

Bu patentlar, savdo belgilari, mualliflik huquqlari yoki texnologiyalardan foydalanish huquqini boshqa kompaniyalarga haq evaziga berishdir.

Hamkorlikning qattiq va yumshoq shakllari

Hamkorlik munosabatlari, shuningdek, qattiq (uzoq muddatli shartnomalar bilan qo'shma korxonalar yaratish) yoki yumshoq (vaqtinchalik loyihalar asosida rasmiylashtirilmagan tarmoqqa ulanish) sifatida tasniflanishi mumkin.

Kooperatsiyaning bu shakllari bir-birini istisno qilmaydi, balki ko'pincha bir-birini kesib o'tadi va to'ldiradi, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi murakkab va ko'p bosqichli o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi. Ayniqsa, bunday hamkorlik barqaror rivojlanishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan murakkab va dinamik iqtisodiyotlarga taalluqlidir.

Kooperatsion klasterlarning Jizzax viloyati rivojiga qo'shgan hissasini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Ular nafaqat iqtisodiy o'sish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga hissa qo'shmoqda, balki mintaqaning ijtimoiy va ekologik farovonligida muhim rol o'ynaydi. Bunday tashabbuslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning davom etishi Jizzax viloyatini O'zbekistonning etakchi iqtisodiy markazlaridan biriga aylanishini tezlashtirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. М.А.Айнакулов, Э.М.Абдухамидов. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов. // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спец выпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.
2. Aynakulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. 2020. № 2 (120). 91-94 b.
3. Aynakulov M.A. Problems, prestiges of animation process and technique // Uz ACADEMIYA. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL.ISSN (E)-2181-1334.VOL 1, ISSUE 2, AUGUST 202. Jild-2.

M.A.Aynakulov - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent Jizzax politexnika instituti, “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi mudiri.

JIZZAX VILOYATINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TURIZM SOHASINING POTENTSIAL IMKONIYATLARI

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizning Jizzax viloyatida uning tabiiy potensiali orqali turistik sohalarini tashkil qilish yo‘nalishlari hamda uning potensial imkoniyatlari bayon qilingan.*

Kalit sozlar: *Turizm, rekreastiya, madaniy-tarixiy meros, ziyorat turizmi, infratuzilma, vegetatsiya, turizm mahallasi va qishlog‘i.*

Аннотация: *В статье описаны направления организации туристической отрасли в Джизакской области нашей страны через ее природный потенциал, а также ее потенциальные возможности.*

Ключевые слова: *Туризм, рекреация, культурно-историческое наследие, паломнический туризм, инфраструктура, растительность, туристический микрорайон и деревня.*

Annotation: *The article describes the directions of organizing the tourism industry in the Jizzakh region of our country through its natural potential, as well as its potential.*

Key words: *Tourism, recreation, cultural and historical heritage, pilgrimage tourism, infrastructure, vegetation, tourist neighborhood and village.*

Jizzax viloyati O‘zbekistonning markaziy mintaqasida joylashgan bo‘lib, shu tufayli har taraflama keng ko‘lamli xo‘jalik yuritish imkoniyatiga egadir. Uzunligi sharqdan g‘arbga, ya’ni Yangiobod tumanidan Forish tumanigacha 180 km, janubdan shimolga, ya’ni Baxmal tumanidan Mirzacho‘l tumanigacha 175 km. ni tashkil etadi. Maydoni 21,1 ming kv.km. Shundan 4,8 ming kv.km. (22,7 %) qishloq xo‘jaligida foydalanishda bo‘lgan erlardir. O‘rmon va o‘rmonchilik bilan bog‘liq ekinlar ekiladigan maydon 1,8 ming (8,5%) kv.km dan iboratdir. Maydonining katta qismini sharqdan g‘arbga va qisman shimoli-g‘arb tomonga cho‘zilgan Chimqortog‘ va Molguzar, g‘arbdan sharqqa, sharqi-janubga va

janubga tomon cho‘zilgan Nurota tog‘ tizmalari, shimol tomondan Qozog‘istondagi Chordora to‘g‘onidan viloyatning shimoli-g‘arbidan Navoiy viloyati hududiga qadar cho‘zilgan Aydarko‘l tashkil etadi. Bu qadimiy yurtda ajdodlarimiz zakovati, salohiyatidan darak beruvchi – qadimiy turkiylarning quyosh yili timsoli – “Quyosh taqvimi”, (“Saklar taqvimi”), 19 fevraldan 21 martgacha quyosh nuri tushadigan Huttosh, shuningdek, Qantartosh, Hamaltoshlarning o‘zi sirli bir olam. Viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ham Sa’d ibn Vaqqos, Usmand ota, Novqa ota, Xo‘jamushkent ota, Parpi ota, Sayfin ota, Savruk ota, Qulfisar ota kabi ziyoratgohlarlar xizmat qiladi. E’tiborli jihati bu erdagi tabiiy buloqlardan yiliga o‘rtacha 16-20 mln. kubometr suv olish imkoniyati mavjud. Eng asosiysi viloyatning Baxmal, Zomin, G‘allaorol tumanlari hamda Sh. Rashidov va Forish tumanlarining tog‘li hududlarida yog‘ingarchilik nisbatan mo‘l bo‘ladi. Shuningdek, haroratning mo‘tadilligi tufayli Baxmal, G‘allaorol va Forish botiqlarida, Zominsoy, Ettikechuv va Ko‘rpasoyda suvning parchalanishi nisbatan kam. Viloyatda turizm va uning zaminidagi rekreatsiya klasterlarini rivojlantirish uchun ham birmuncha sezilarli imkoniyatlar, ya’ni viloyat tabiatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri tog‘lar va tog‘ yon bag‘irlarida tarkibida temir, oltingugurt, vodorod, radiy, kremniy kislotasi, karbon gazi, ishqorli termo-minerallar bo‘lgan bir qator mavjud shifobaxsh suv manbalari mavjud. Darhaqiqat, ayni paytda viloyatning G‘allaorol, Forish, Mirzacho‘l tumanlarida ana shunday balneologik suvlar bilan davolovchi “Marjonsuv”, “Birlashgan”, “Gagarin” nomli sanatoriylar va bir nechta profilaktoriylar ishlab turibdi. Shuning bilan birgalikda viloyatning Zomin, Jizzax, Baxmal tumanlarida ham ma’danga boy manbalari bor. Viloyatdagi barcha ma’danli suvlar kimyoviy va balneologik tarkibiga ko‘ra eng tabiiy o‘ziga xosligi bevosita hududning ancha qismini egallagan tog‘liq zona ekanligi bilan bog‘liqdir. Mazkur hududlarning tog‘ yon bag‘irlarida bir-biridan go‘zal tabiat go‘shalari, archazorlar bodomzorlar yong‘oqzorlar, shifobaxsh o‘tloqlar, soyliklar, zilol suvlar, hatto, musaffo toza havo qatlamining o‘zi bir olam. Ulkan daralarda qir-adirlar va soyliklarda kamyob o‘simliklar va hayvonlar, parrandalarning turfa xillari mavjud. Baxmal va Zomin tumanlaridagi qir-adirlar, ulkan bog‘-rog‘lar, shuningdek, Baxmaldagi dengiz sathidan 2600 metr balandlikdagi ma’danli suv, Xalq bog‘i va qo‘riqxonalar, ajoyib sharsharalar, qirlar bag‘ridagi o‘nlab chashmalar insoniyatni o‘ziga chorlovchi saxiy tabiatning o‘ziga xos ne’matidir. Viloyatda turizm klasterlarining asosiy poydevori sanalgan Zomin tumanidagi 1976 yilda tashkil etilgan 48 ming gektarli Xalq bog‘ining tabiati o‘ta go‘zal. Balandligi dengiz sathidan 4 ming metrgacha cho‘zilgan tog‘ yon bag‘rida yoz va bahorda havo qatlami kamalak rangida tovlanadi. Qalin archazorlar va bahaybat daralar, soyliklardagi toshqin suvlar go‘yo tabiatning haqiqiy tabiiy ko‘rgazmasini namoyish etadi. Albatta bu kabi jarayonlarning xususiyati shundaki, inson hamisha ko‘pincha o‘zlashtirilmagan, inson qo‘li tegmagan tabiiy go‘shalarga ehtiyoj sezishidadir. Xalq bog‘i yonida Zomin qo‘riqxonasi tashkil etilgan, Xalq bog‘i va qo‘riqxonaning umumiy maydoni 78 ming gektarni tashkil etadi. Bu qo‘riqxonada 100 dan ortiq shifobaxsh va dorivor o‘simliklar, oq tirnoqli ayiq, yovvoyi cho‘chqa, bo‘rsiq, alqar, (tog‘ echkisi), jayra kabi hayvonlar, kemiruvchilar, kalxat,

qora turna, bulduruq, tuvaloq, kaklik, tustovuq kabi parrandalarning 150 dan ortiq turlari uchraydi. Ushbu tabiat maskanida “Zomin” sanatoriysi, O‘riklisoy dam olish maskani, sayyohlar uchun ko‘plab mexmonxona uylari faoliyat ko‘rsatib turibdi. Shu sabab mazkur rekreatsion hududlarda yil mobaynida dam oluvchilar, sayyohlar, ya’ni rekrentlar oqimi uzilmaydi.

Viloyat rel’efi shimol, shimoli-g‘arb tomondagi pasttekisliklar, cho‘l va dashtlardan qirlar, tog‘lar sari balandlab borishi bilan bog‘liq ravishda hayvonlar turlari ham ko‘payib boradi. Viloyatda baliqchilik sanoatini rivojlantirish uchun ham keng ko‘lamli imkoniyatlar mavjud, xususan, Aydarko‘l-Tuzkon Arnasoy ko‘llarida baliqlarning zog‘ora, laqqa, suzak va ilonbaliq kabi turlari bor. Buning ajablanarli tomoni shundaki, aydarko‘l-tuzkon Arnasoy ko‘llari viloyatda baliqchiliq sanoatini rivojlantirish bilan bir paytda rekreatsiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Viloyatning tabiiy iqlim sharoiti keskin mo‘tadil.Yozi quruq va issiq, qishi nisbatan yumshoq. Baxmal, qisman Zomin, Forish tumanlarining tog‘liq hududlarida yoz fasli biroz salqin o‘tadi. Yilning eng issiq oyi cho‘l zonalarida iyun-iyul, tog‘ zonasida iyul-avgust. Kunning uzunligi kunduz yozda 15 soat, qishda 9 soat davom etadi. Yanvar oyida harorat +1+4 daraja, iyul oyida esa +26+28 daraja. Bir yillik yog‘in miqdori 400-500 mm. Vegetatsiya davri 240-260 kun. Havoning namlik darajasi qishda 70-80 %. Bir yilda quyoshli kunlar 2800-3000 soat atrofida. Birinchi qorning yog‘ishi asosan oktyabr oyiga to‘g‘ri keladi.

Viloyat hududining nisbatan yaxlitligi va subtropik kengliklarga yaqinligi harorat rejimining birxilligini ta’minlaydi. Yil davomida o‘rtacha 250-270 kun havo ochiq, osmon beg‘ubor bo‘ladi. Fevraldan noyabrgacha quyosh energiyasi nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Havoning harorat yig‘indisi janubiy pasttekisliklarda 5,5 ming daraja, shimoliy pasttekisliklarda 4,3-4,5 ming darajaga etadi.

Viloyat hududida yog‘ingarchilik asosan qish va bahor fasllariga to‘g‘ri keladi. Shimoldan janubga tomon yog‘ingarchilik ko‘payib boradi. Yillik yog‘in miqdori balandligi 276 metr bo‘lgan Mirzacho‘lda 295, balandligi 392 metr bo‘lgan Sangzorda 400 mm.dan oshadi. Qor turib qoladigan kunlar bir yilda tekisliklarda 20-22 kun, tog‘li hududlarda 60-70 kunni tashkil etadi. Hududning tekislik qismida yillik yog‘in miqdori 200 mm. atrofida. Bug‘lanish darajasi 100-120 mm.ga teng. Viloyat hududida shimoli-g‘arbda vaqti-vaqti bilan kuchli shamol bo‘lib turadi. Aprel va may oylarida kuchli shamol, do‘l va jala yog‘ish holatlari uchraydi.

Viloyat aholisi 2022 yil yanvar oyi holatiga 1382100 kishini tashkil etib, yil boshidan 29700 kishiga yoki 102,2 foizga ko‘paydi. Shundan 647900 kishi –shahar joylarida (46,8%) va 734200 kishi qishloq joylarida (53,2 foiz) istiqomat qiladi.

Tarkibiga ko‘ra 70 dan ortiq millat vakillari bor. Umumiy aholisining 83 foizini o‘zbeklar tashkil qiladi. O‘rtacha zichligi bir kv.km. ga 65,5 kishi [4].

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, aholisi 163,6 ming kishi bo‘lgan viloyatning Zomin tumanida (viloyat aholisining 11,8%), aholisi 155,8 ming kishi bo‘lgan Baxmal tumanida (viloyat aholisining 11,3%), aholisi 171,4 ming kishi bo‘lgan G‘allaorol tumanlarida (viloyat aholisining 12,4%) negizida rekreastiya mavjud bo‘lgan turistik ovullarni, shuningdek, ularning o‘zaro

kooperastiyasi asosidagi turizm klasterlarini tashkil qilish uchun keng qamrovli imkoniyatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aynakulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Motivatsiya samaradorlik garovi sifatida // Ilmiy axborotnoma jurnali. Samarqand Davlat Universiteti. 2020. № 2 (120). 91-94 b.

2. Айнакулов М.А., Абдухамидов Э.М. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

M.A.Aynaqulov - Jizzax politexnika instituti “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

JIZZAX VILOYATIDA TURIZM SOHASIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARI, YO‘NALISHLARI VA BOSHQARUV USLUBLARINI TAKOMILLASHTIRISH ME’ZONLARI

Annotatsiya*: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Jizzax viloyati misolida turizm sohasidagi mavjud mexanizmlar va boshqaruv usullari har tomonlama tahlil qilingan. Maqolada muallif tomonidan turistlarni jalb qilishning turli usullarini, jumladan marketing, reklama va sayyohlik agentliklari bilan hamkorlikni batafsil ko‘rib chiqilgan, turizmni rivojlantirishning madaniy, ekoturizm va gastronomik turizm kabi yo‘nalishlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada sayyohlarni jalb etishning asosiy mexanizmlari, jumladan, infratuzilmani rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va turistlar xavfsizligini ta’minlash masalalari muhokama qilingan. Muallif turizmning hudud yalpi ichki mahsulotiga qo‘shgan hissasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’sirini tahlil qilib, aholi turmush darajasini oshirishda ushbu sohaning ahamiyatini ta’kidlaydi. Xulosa qilib aytganda, maqolada turizm sohasini rivojlantirishni rag‘batlantirish va Jizzax viloyatida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun boshqaruv amaliyotini yanada takomillashtirish zarurligiga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar:*Turizm, infratuzilma, boshqaruv mexanizmlari, mintaqa, marketing, reklama, me’yoriy-huquqiy baza, ekoturizm, gastronomik turizm, tadbir turizmi.*

Аннотация: *В данной статье всесторонне анализируются существующие механизмы и методы управления в сфере туризма на примере Джизакской области Республики Узбекистан. В статье автор подробно рассматривает различные способы привлечения туристов, включая маркетинг, рекламу и сотрудничество с туристическими агентствами, особое внимание уделяется изучению таких направлений развития туризма, как культурный, экотуризм и гастрономический туризм. Также в статье*

рассматриваются основные механизмы привлечения туристов, в том числе развитие инфраструктуры, повышение качества услуг и обеспечение безопасности туристов. Автор анализирует вклад туризма в валовой внутренний продукт региона и его влияние на социально-экономическое развитие, а также подчеркивает значение этой отрасли в повышении уровня жизни населения. В заключение в статье акцентируется внимание на необходимости дальнейшего совершенствования практики управления в целях стимулирования развития туристической отрасли и достижения устойчивого социально-экономического развития Джизакской области.

Ключевые слова: *Туризм, инфраструктура, механизмы управления, регион, маркетинг, реклама, правовая-нормативная база, экотуризм, гастрономический туризм, событийный туризм.*

Annotation: *This article comprehensively analyzes the existing mechanisms and methods of management in the field of tourism using the example of the Jizzakh region of the Republic of Uzbekistan. In the article, the author examines in detail various ways to attract tourists, including marketing, advertising and cooperation with travel agencies, special attention is paid to the study of such areas of tourism development as cultural, ecotourism and gastronomic tourism. The article also discusses the main mechanisms for attracting tourists, including developing infrastructure, improving the quality of services and ensuring the safety of tourists. The author analyzes the contribution of tourism to the region's gross domestic product and its impact on socio-economic development, and also emphasizes the importance of this industry in improving the living standards of the population. In conclusion, the article focuses on the need to further improve management practices in order to stimulate the development of the tourism industry and achieve sustainable socio-economic development of the Jizzakh region.*

Key words*: Tourism, infrastructure, management mechanisms, region, marketing, advertising, regulatory framework, ecotourism, gastronomic tourism, event tourism.*

Turizm O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan Jizzax viloyati ham o‘zining tarixiy merosi, madaniy xilma-xilligi va noyob tabiiy landshaftlari tufayli ulkan sayyohlik salohiyatiga egadir. Shu munosabat bilan turizm sohasida boshqaruv mexanizmlari va usullarini takomillashtirish ushbu sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlashning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Bu borada quyidagilarni ta’kidlash muhim hisoblanadi:

1. Turizm sohasida mavjud boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish. Takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash uchun turizm sohasidagi mavjud boshqaruv mexanizmlarini har tomonlama tahlil qilish zarur. Mintaqada turizmni rivojlantirishga ta’sir etuvchi ham ichki, ham tashqi omillarni hisobga olish muhim. Bu omillarga infratuzilma, xizmat ko‘rsatish sifati, marketing va reklama, shuningdek, qonunchilik va me’yoriy-huquqiy baza kiradi.

2. Boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish me’zonlari. Turizm

sohasida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bir qancha me’zonlarga asoslanishi kerak. Bu me’zonlarga samaradorlik, egiluvchanlik, moslashuvchanlik, shaffoflik va barqarorlik kabilar kiradi. Samaradorlik resurslarni maqbullashtirish va maksimal natijalarga erishishni anglatadi. Egiluvchanlik va moslashuvchanlik tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga va turistlarning ehtiyojlariga tezda javob berish uchun zarurdir. Shaffoflik barcha manfaatdor tomonlarning ishonchini shuningdek, barqarorlik esa turizm sanoatining uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi.

3. Boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari. Jizzax viloyatida turizm sohasida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning bir qancha asosiy yo‘nalishlari mavjud, xususan:

- birinchidan, sa’y-harakatlar infratuzilmani, jumladan, transport, uy-joy va xizmatlarni rivojlantirishga qaratilishi kerak;

- ikkinchidan, xizmat ko‘rsatish sifati va xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishga e’tibor qaratish lozim.

- uchinchidan, marketing va mintaqani sayyohlik yo‘nalishi sifatida targ‘ib qilishni faollashtirish muhim. Nihoyat, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish uchun qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishni ta’minlash zarur.

Endi eng asosiysi turistlarni turizm jarayoniga jalb etish usullari, yo‘nalishlari va mexanizmlari xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur mavzu har qanday hududda turizm industriyasini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu erda asosiy jihatlarning batafsil ko‘rinishi quyidagilarni bayon qiladi:

1. Turistlarni jalb qilish usullari:

- marketing va reklama: turistik mahsulotni ijtimoiy tarmoqlar, televidenie, radio, bosma ommaviy axborot vositalari va Internet kabi turli kanallar orqali ilgari surish. Mazkur jarayonda samarali reklama kompaniyalari xabardorlikni oshirishga va potentsial sayyohlarning e’tiborini jalb qilishga yordam berishi lozim;

- turizm ko‘rgazmalari va yarmarkalarida ishtirok etish asosida mintaqaning turizm imkoniyatlarini xalqaro va milliy ko‘rgazmalarida salohiyatni namoyish qilish;

- sayyohlik agentliklari va turoperatorlar bilan hamkorlik negizida turoperatorlar va agentliklar uchun hamkorlik dasturlari va takliflarini ishlab chiqish va shu asosida ularning mintaqani sayohat paketlariga kiritishlarini ta’minlash;

- takroriy tashriflarni rag‘batlantirish uchun sodiqlik dasturlarini amalga oshirish.

2. Turistlarni jalb qilish yo‘nalishlari:

- madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish uchun tarixiy obidalar, muzeylar va madaniy tadbirlarni targ‘ib qilish lozim;

- ekoturizm va sarguzasht turizmi asosida milliy bog‘lar, qo‘riqxonalar va

tabiiy hududlarda turistik marshrutlarni ishlab chiqish;

- gastronomik turizm negizida mahalliy oshxonani targ‘ib qilish va gastronomik turlarni tashkil etish;

- tadbir turizmi negizida festivallar, yarmarkalar, konsertlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish.

3. Turistlarni jalb qilish mexanizmlari:

- infratuzilmani yaratish va rivojlantirish bo‘yicha hududning qulayligini, sifatli uy-joy, transport, ko‘ngilochar va xizmatlar mavjudligini ta’minlash;

- xizmat sifatini oshirish: xodimlarni o‘qitish, xizmat ko‘rsatish standartlarini oshirish va sifat tizimini joriy etish;

- axborotni qo‘llab-quvvatlash asosida tegishli va foydali ma’lumotlarni taqdim etuvchi axborot portallari, mobil ilovalar va turistik markazlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining Jizzax viloyatida turizm sohasida boshqaruv mexanizmlari va usullarini takomillashtirish turizm industriyasining barqaror rivojlanishiga erishishning asosiy omili hisoblanadi. Bu mavjud shart-sharoitlarni tahlil qilish va faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashga asoslangan kompleks yondashuvni talab qiladi. Taklif etilayotgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sayyohlar uchun hududning jozibadorligini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va turizm faoliyatidan olinadigan daromadlarni oshirishga xizmat qiladi, bu esa pirovardida Jizzax viloyati va butun O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risida” gi Qonuni. 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5781 son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5611 son Farmoni.

4. Rasmiy web sayt: www.jizzaxstat.uz

4.1. Elektron pochta manzili: jizzaxstat@uznet.net

4.2. Elektron ximoyalangan pochta manzili: jiz.stat@exat.uz

B.N.Gapparov - Jizzax politexnika instituti katta o‘qituvchisi

JIZZAX VILOYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA BO‘LAJAK MUHANDIS-KONSTRUKTORLARNING KOMPETENSIYAVIY JIHATDAN ROLI

Annotatsiya: *Maqolada bo‘lajak muhandis-konstruktorlarining Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o‘rniga bag‘ishlangan bo‘lib, ularni malakali etib etishtirish usullari va yo‘nalishlari o‘rganilgan. Asosiy e’tibor yosh mutaxassislar o‘rtasida texnik bilim, jamoada ishlash, kommunikativ ko‘nikmalar va qonunchilikni bilish kabi asosiy kompetensiyalarni shakllantirish zarurligiga qaratiladi. Ushbu maqsadga erishishning turli mexanizmlari va usullari, jumladan, ta’lim dasturlarini yangilash, malaka oshirish, murabbiylik, amaliy tajriba va uzluksiz o‘rganish kabilar ko‘rib chiqiladi. Maqolada hududning muvaffaqiyatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhandis-konstruktorlari malakasining muhimligi ta’kidlangan va uni takomillashtirish yo‘llari taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qurilish muhandislari, kompetentsiya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Jizzax viloyati, O‘zbekiston Respublikasi, ta’lim dasturlari, malaka oshirish, amaliy tajriba.*

Аннотация: *В стате рассматривается рол будущих инженеров-строителей в сотсиално-экономическом развитии Джизакской области, а также изучаются методы и направления их подготовки. Основное внимание аксентируется на необходимости формирования у молодых спесиалистов базовых компетенсий, таких как технические знания, умение работат в команде, коммуникативные навыки и знание законодателства. Рассмотрены различные механизмы и методы достижения этой сели, включая обновление учебных программ, профессионалное развитие, наставничество, практический опыт и непрерывное обучение. В стате подчеркивается значение квалификатсии инженеров-строителей в успешном сотсиално-экономическом развитии региона и предлагаются пути ее повышения.*

Ключевые слова: *Инженер-конструкторы, компетентност, сотсиално-экономическое развитие, Джизакская област, Республика Узбекистан, образовательные программы, повышение квалификатсии, практический опыт.*

Annotation: *The article examines the role of future civil engineers in the socio-economic development of the Jizzakh region, and also studies the methods and directions of their training. The main focus is on the need to develop basic competencies in young specialists, such as technical knowledge, ability to work in a team, communication skills and knowledge of legislation. Various mechanisms and methods for achieving this goal are considered, including curriculum renewal, professional development, mentoring, field experience, and lifelong learning. The article emphasizes the importance of the qualifications of civil engineers in the successful socio-economic development of the region and suggests ways to*

improve it.

Key words: *Design engineer, competence, socio-economic development, Jizzakh region, Republic of Uzbekistan, educational programs, advanced training, practical experience.*

Zamonaviy dunyoda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhandis-konstruktorlarining roli tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, ayniqsa, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi turmush darajasini yuksaltirishda milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalari muhim o‘rin tutadigan O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarga taalluqlidir. Ushbu maqolada bo‘lajak muhandis-konstruktorlarining O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi barkamol roli haqida so‘z boradi.

Avvalo, Jizzax viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, viloyat O‘zbekistonning keyingi yillarda jadal rivojlanib borayotgan hududlaridan biridir. Viloyat sanoat, qishloq xo‘jaligi va turizmni rivojlantirish uchun salmoqli salohiyatga ega. Viloyat hokimligi tomonidan sarmoya jalb etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yangi ish o‘rinlari yaratish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Keling endi ushbu salohiyatga xizmat qiluvchi hududni rivojlantirishda muhandis-konstruktorlarining o‘rniga to‘xtalaylik, ya’ni muhandis-konstruktorlar odamlar hayotini yaxshilash, iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoit yaratuvchi infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Albatta o‘z navbatida, ular yo‘llar, ko‘priklar, turar-joy va sanoat binolari, suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini qurishda ishtirok etadi.

Shunday ekan, bo‘lajak muhandis-konstruktorlarining malaka va ko‘nikmalari quyidagi me’yor doirasida bo‘lishi talab qilinadi, ya’ni Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda samarali ishtirok etish uchun bo‘lajak muhandis-konstruktorlar bir qator asosiy kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerak:

1. Texnik bilim va ko‘nikmalar: Bo‘lajak muhandis-konstruktorlar milliy iqtisodiyotda ishlatiladigan zamonaviy texnologiyalar va materiallarni yaxshi tushunishlari kerak;

2. Jamoada ishlash qobiliyati: Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish loyihalari odatda katta jamoalar, jumladan, turli fanlar vakillari tomonidan amalga oshiriladi. Samarali jamoaviy ish loyiha muvaffaqiyatining kalitidir;

3. Aloqa ko‘nikmalari: Bo‘lajak muhandis-konstruktorlar mijozlar, pudratchilar va ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan muloqot qila olishlari kerak.

4. Qonunchilikni bilish: Muhandis-konstruktorlar ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonini tartibga soluvchi huquqiy-me’yoriy hujjatlarni bilishlari kerak;

5. Muammoni hal qilish qobiliyati: Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonida tez va samarali echimlarni talab qiladigan turli muammolar ko‘pincha paydo bo‘ladiki, ularni tezda yumshatish ko‘nukmasiga ega bo‘lishlari kerak.

O‘zbekiston Respublikasining Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sharoitida bo‘lajak muhandis-konstruktorlarning malakasini tatbiq etish va oshirish uchun tayyorlash va malakasini oshirishning turli mexanizm va

usullaridan foydalanish mumkin. Keling, ulardan ba’zilarini ko‘rib chiqaylik:

1.Ta'lim dasturlari:

Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish loyihalarni boshqarish va boshqa muhim strategic yo‘nalishlar bo‘yicha joriy kurslar va modullarni o‘z ichiga olgan zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Jumladan, tajribali mutaxassislardan amaliy mashg‘ulotlar, amaliyot va mahorat darslarini tinglash.

2.Malaka oshirish va qayta tayyorlash:

Bo‘lajak muhandis-konstruktorlar uchun muntazam ravishda malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasida yangi talablar va standartlarni hisobga olgan holda mutaxassislarni qayta tayyorlash dasturlarini o‘tash.

3.Mentorlik va murabbiylik:

Tajribali muhandis-konstruktorlari o‘z tajriba va bilimlarini yosh mutaxassislar bilan baham ko‘radigan murabbiylik tizimini yaratish. Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasida ilg‘or tajriba almashish uchun tarmoq uchrashuvlari va tadbirlarni tashkil etish.

4.Amaliy tajriba:

Talabalar va yosh mutaxassislarga tajribali muhandis-konstruktorlar rahbarligida haqiqiy ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish loyihalarida ishtirok etish imkoniyatini berish. Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasidagi dolzarb muammolarni hal qilish uchun tanlovlar tashkil etish.

5.Uzluksiz ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash:

Bo‘lajak muhandis-konstruktorlar o‘rtasida uzluksiz o‘rganish va o‘z-o‘zini takomillashtirish madaniyatini rivojlantirish. Texnikaviy yoki tegishli fanlar bo‘yicha elektron ta’lim resurslariga, vebinarlarga va onlayn kurslarga kirishni ta’minlash.

6.Yangi texnologiyalar va vositalardan foydalanish:

Ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish startegik dasturlarini loyihalash, modellashtirish va boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalar va dasturiy ta’minotni joriy etish. Muhandis-konstruktorlarni yangi vositalar va texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish, shu orqali ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish.

Ushbu va boshqa ko‘plab mexanizmlar va usullar bo‘lajak muhandis-konstruktorlarining malakasini oshirishga, ularning kasbiy kompetentliligini oshirishga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish mumkinki, etuk va malakali muhandis-konstruktorlar O‘zbekiston Respublikasi Jizzax viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ular infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etib, yangi ish o‘rinlari yaratib, aholi turmush darajasini oshirishga ko‘maklashadi. Bu sohada muvaffaqiyatli ishlash uchun bo‘lajak muhandis-konstruktorlar doimiy ravishda o‘z bilim va ko‘nikmalarini oshirib borishlari, muloqot ko‘nikmalarini va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gapparov B.N., Maxmatqulov M.R. “Bo‘lajak quruvchi-muhandis konstruktorlarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga innovatsion yondashuvlar”. Me′morchilik va qurilish muammolari (ilmiy-texnik jurnal) Samarqand. 2023 yil. 243-244 betlar.
2. Ivanov A.A. O‘zbekistonda qurilish muhandislari ta’limining hozirgi tendensiyalari. Toshkent: “Stroyobrazovanie” nashriyoti - 2022.
3. Mirzayev B.X., Rahmatullayeva, F.J. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhandis kadrlarning o‘rni. Jizzax: “Sangzor” nashriyoti - 2021.
4. Abdullayeva, Z.U. Ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida qurilish muhandislarining malakasini oshirish usullari. Samarqand: “Akademiya” nashriyoti -2020.

F.Sh.Teshayeva - Jizzax politexnika instituti “Servis” fakukteti “Professional ta’lim” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

M.A.Aynakulov - Jizzax politexnika instituti, “Muhandislik va kompyuter grafikasi” kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

HUDUDLAR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING TUB MOHIYATI, NEGIZI, MANBALARI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy sharoitlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini shakllantiruvchi asosiy tendentsiyalar ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor yangi imkoniyatlarni ochib beradigan va shu bilan birga raqobatni kuchaytiruvchi, mintaqaviy nomutanosiblikni chuqurlashtirgan globallashuv ta’siriga qaratiladi. O‘sishning harakatlantiruvchi omili sifatida bilim iqtisodiyotiga o‘tish tahlil qilinadi va demografik muammolar, jumladan, aholining qarishi va migratsiya ko‘rib chiqiladi. Barqaror rivojlanish va ekologik tashabbuslar, mintaqaviy integratsiya, texnologik innovatsiyalar, inson kapitalini rivojlantirish muhimligi, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik zarurligi ta’kidlanadi. Hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda infratuzilmani yangilashning ahamiyati muhokama qilinadi. Maqolada o‘zgarishlar sharoitida foydani ko‘paytirish va xavflarni kamaytirish uchun mintaqaviy rivojlanishni boshqarishda moslashuvchan yondashuv zarurligi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Globallashuv, bilimlar iqtisodiyoti, aholining qarishi, barqaror rivojlanish, mintaqaviy integratsiya, texnologik innovatsiyalar, demografik o‘zgarishlar, infratuzilmani yangilash.*

Аннотация: *В статье рассмотрены основные тенденции, определяющие социально-экономическое развитие регионов в современных условиях. Основное внимание уделяется влиянию глобализации, которая открывает новые возможности и в то же время усиливает конкуренцию и углубляет региональные дисбалансы. Переход к экономике знаний анализируется как драйвер роста, рассматриваются демографические*

проблемы, включая старение населения и миграцию. Подчеркивается важность устойчивого развития и экологических инициатив, региональной интеграции, технологических инноваций, развития человеческого капитала, а также необходимость политической и экономической стабильности. Обсуждается значение обновления инфраструктуры в повышении конкурентоспособности регионов. В статье подчеркивается необходимость гибкого подхода к управлению региональным развитием с целью увеличения выгод и снижения рисков в условиях перемен.

Ключевые слова: *Глобализация, экономика знаний, старение населения, устойчивое развитие, региональная интеграция, технологические инновации, демографические изменения, обновление инфраструктуры.*

Annotation*: The article examines the main trends that determine the socio-economic development of regions in modern conditions. The focus is on the impact of globalization, which opens up new opportunities and at the same time increases competition and deepens regional imbalances. The transition to a knowledge economy is analyzed as a driver of growth, and demographic problems are considered, including population aging and migration. The importance of sustainable development and environmental initiatives, regional integration, technological innovation, human capital development, as well as the need for political and economic stability are emphasized. The importance of updating infrastructure in increasing the competitiveness of regions is discussed. The article highlights the need for a flexible approach to managing regional development in order to increase benefits and reduce risks in the face of change.*

Key words: *Globalization, knowledge economy, population aging, sustainable development, regional integration, technological innovation, demographic changes, infrastructure renewal.*

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faollikni oshirish, raqobatbardoshlikni oshirish va hududlarning barqaror rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Bu rivojlanish hudud iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasida ham sifat, ham miqdoriy o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Aslida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘ziga yarasha mohiyatga, asosga xususiytga egadir. Keling ularni birma bir ko‘rib chiqamiz.

1.Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining mohiyati

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning mohiyati turli manfaatlar - shaxsiy, jamoat, milliy va global manfaatlar o‘rtasidagi maqbul muvozanatga erishishga qaratilgan ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni muvozanatli hal qilishdan iborat. U iqtisodiyot tuzilmasini takomillashtirish, uning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ifodalaydi.

2.Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asoslari

Hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asoslari uning resurs bazasi, sanoat-innovatsion tuzilmasi, tadbirkorlik darajasi, kadrlar sifati va infratuzilmasini o‘z ichiga olgan iqtisodiy salohiyati bilan belgilanadi. Shuningdek, yana bir muhim jihati, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va davlat boshqaruvini ham o‘z ichiga olgan ijtimoiy muhitdir.

3.Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish manbalari

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish manbalari ham ichki, ham tashqi resurslar bo‘lishi mumkin. Ichki resurslarga tabiiy resurslar, mehnat, kapital va innovatsiyalar kiradi. Tashqi manbalarga xorijiy investitsiyalar, texnologik almashinuv, jahon bozori aloqalari va xalqaro savdo kiradi.

4.Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning tavsiflari

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tavsiflari quyidagi jihatlarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot bo‘lib, bu mintaqaning iqtisodiy salohiyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir;
- iqtisodiy tuzilma bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, sanoat va xizmat ko‘rsatish kabi turli iqtisodiyot tarmoqlarining nisbati mintaqaning ixtisoslashuvi va iqtisodiy dinamikasini ko‘rsatadi;
- bandlik va ishsizlik darajasi bo‘lib, mintaqa iqtisodiyotining ish o‘rinlarini yaratish qobiliyatini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy ko‘rsatkichdir;
- investitsion jozibadorlik bo‘lib, mintaqaning o‘z iqtisodiyotiga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati tushuniladi;
- aholining hayot sifati borasida sog‘liqni saqlash, ta’lim, uy-joy sotib olish imkoniyati, jinoyatchilik darajasi va atrof-muhit sharoitlarini o‘z ichiga oladi;
- innovatsion faoliyat bo‘yicha tadqiqot va ishlanmalar, startaplar, ilmiy tadqiqotlarning mavjudligi va muvaffaqiyati kabilar kiradi;
- ekologik holat yuzasidan tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va ekologik xavfsizlik darajasini keltirish mumkin.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari global iqtisodiy o‘zgarishlardan tortib to noyob mahalliy sharoitgacha bo‘lgan keng ko‘lamli omillar bilan belgilanadi. So‘nggi yillarda mintaqaviy rivojlanish dinamikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan bir nechta asosiy tendentsiyalarni aniqlash mumkin. Keling, ulardan ham ba’zilarini ko‘rib chiqaylik.

Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi

Globallashuv mintaqalarga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, bu ularga eksport qilish, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, xalqaro iqtisodiy makonga integratsiyalashuvi uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Boshqa tomondan, globallashuv raqobatni kuchaytiradi, bu esa mintaqaviy nomutanosiblikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Bilim iqtisodiyotiga o‘tish

Axborot texnologiyalari, ta’lim va innovatsiyalar bilimlar iqtisodiyotida asosiy o‘rin tutadi. Ushbu sohalarni faol rivojlantirayotgan hududlar sarmoya va yuqori toifali mutaxassislarni jalb qilgan holda yuqori o‘sish sur’atlariga erishishi mumkin.

Aholining qarishi

Aholining qarishi ko‘plab rivojlangan mamlakatlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Bu sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlariga bosimning kuchayishiga, shuningdek, bozor talabi va ishchi kuchining o‘zgarishiga olib keladi.

Barqaror rivojlanish va ekologik tashabbuslar

Atrof-muhitga e’tiborning ortishi sanoatga bo‘lgan talablarning ortishi va iste’mol shakllarining o‘zgarishini talab qiladi. Yangi texnologiyalar va resurslardan barqaror foydalanishga e’tibor qaratadigan hududlar yashash va investitsiyalar uchun yanada jozibador bo‘ladi.

Mintaqaviy integratsiya

Mintaqalararo va transchegaraviy aloqalarni rivojlantirish iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash va resurslarni taqsimlashni rag‘batlantirish, shuningdek, siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni yaxshilashga yordam beradi.

Texnologik innovatsiyalar

Sun’iy intellekt, robototexnika, biotexnologiya, qayta tiklanadigan energiya va raqamli kommunikatsiyalar kabi sohalardagi yutuqlar mehnat bozorlari, biznes modellari va jamoat hayotini o‘zgartirib, mintaqaviy rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Demografik o‘zgarishlar va migratsiya

Ichki va xalqaro migratsiya hududlarning demografik tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ayrim hududlarda ishchi kuchi etishmasligiga, boshqalarida esa aholining haddan tashqari ko‘payishiga olib keladi, yangi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Inson kapitalini rivojlantirish

Ta’lim va kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan sarmoya ishchi kuchining malakasini oshiradi, bu esa yuqori texnologiyali va innovatsion ishlab chiqarishlarni jalb etish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Siyosiy va iqtisodiy barqarorlik

Mintaqadagi barqarorlik sarmoyalarni jalb qiladi va uzoq muddatli rejalashtirish va rivojlanish uchun asosdir.

Infratuzilmani yangilash

Transport, kommunikatsiya va energetika infratuzilmasini yangilash va rivojlantirish mintaqaviy o‘sish va raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tendentsiyalar mintaqaviy hokimiyat va siyosatchilardan o‘z manfaatlarini yuqori darajada oshirish va potentsial xavflarni kamaytirish uchun moslashuvchan bo‘lishni va o‘zgarishlarga tezda moslashishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гранин, Ю.Д. «Социально-экономическое развитие регионов: теория, практика, стратегия модернизации.» Москва: Экономика, 2021.

2. Петров, В.А., и Смирнова, О.Е. «Глобальные вызовы и региональное развитие: ответы на изменяющуюся экономическую среду.» Санкт-Петербург: Питер, 2022.

А.А.Наврузов - ТМИ

ИНВЕСТИЦИЯ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ЗАРУРИЯТИ: ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

Аннотация. *Инвестиция муҳити жозибадорлигини оширишнинг илмий-назарий асослари, инвестиция муҳит жозибадорлигини оширишнинг зарурияти: таъсир этувчи омиллар ва ўзига хос жиҳатлари ўрганилган.*

Калит сўзлар: *инвестиция муҳит, инвестицион имижи, жозибадорлиг, хорижий инвестиция.*

Аннотация. *Изучены научно-теоретические методы повышения привлекательности инвестиционной среды, необходимость повышения привлекательности инвестиционной среды: факторы влияния и конкретные аспекты.*

Ключевые слова: *инвективная среда, инвективный имидж, привлекательность, зарубежная инвектива.*

Abstract. *The scientific-theoretical methods of increasing the attractiveness of the investment environment, the need to increase the attractiveness of the investment environment: influencing factors and specific aspects are studied.*

Key words: *invective environment, invective image, attractiveness, foreign invective.*

Ривожланган ва ривожланаётган давлатлар тажрибасидан маълумки, ҳудудларга инвестицияларни жалб этишдаги асосий мезонлардан бири – инвестиция муҳитини яхшилаш, унинг жозибадорлигини таъминлаш, ҳудудлардаги ишлаб чиқариш инфратузилма тармоқлари ва ишлаб чиқариш кучларини қулай тарзда жойлаштириш орқали ишбилармонлик муҳитини ривожлантириш ҳисобланади. Бу борада, яратилган қулай инвестиция муҳитининг жозибадорлигини баҳолаш натижаларига кўра ҳар қандай инвестор ўзининг молиявий ресурсини ҳудудий ва тегишли тармоқ иқтисодиётига йўналтириш борасида қарор қабул қилади. Айнан инвестиция муҳити жозибадорлигини баҳолаш натижалари ҳудудларда инвестиция фаоллигини таъминловчи муҳим омиллардан биридир.

Мамлакатимизга жалб қилинаётган хорижий инвестициялар миқдор жиҳатдан ортиб бораётганига қарамасдан, уларнинг таркибидаги тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар улуши камлигича қолмоқда. Шунингдек, республикага чет элдан ўзлаштирилаётган маблағлар таркибида кредитларнинг улуши ҳам салмоқли ортиб бормоқда.

5-расмда ҳудудларда инвестиция муҳит жозибадорлигини оширишнинг зарурияти акс эттирилган бўлиб, биз тадқиқот давомида ҳудудлар миқёсида ва умуман инвестиция муҳити ҳамда унинг жозибадорлигини таъминлашнинг зарурияти, унинг ижобий самарасини қуйидаги 3 та муҳим йўналишда ифодаладик, яъни:

1) Инвестицион қарорлар қабул қилиш йўналиши. Мазкур йўналишда, таъкидлаш керакки, ҳар бир инвесторлар (маҳаллий ёки хорижий инвестор бўлишидан қатъий назар) қуйидаги жиҳатларни баҳолаган ҳолда инвестиция

киритиш ҳақида қарор қабул қилади:

ишлаб чиқариш инфратузилмаси ривожланганлик даражаси таҳлили;

қулай географик жойлашув, логистик имкониятлар: “landlocked” давлатлар, портлар, темир йўллар, автомагистраллар, авиақатновлар, логистик марказлар.



5-расм. Ҳудудларда инвестиция муҳити жозибадорлигини оширишнинг зарурияти[1]

[1] Муаллиф ишланмаси.

2) Инвестициялар фаоллигини таъминлаш йўналиши. Бу борада, жалб этилган инвестиция қуйидаги муҳим жиҳатларга ўзининг ижобий самарасини ва таъсирини кўрсатиши сабабли долзарб аҳамиятга эгадир:

ҳудудларнинг истиқболли иқтисодиёт тармоқлари ва соҳалари учун инвестицияларни жалб этиш;

иқтисодий "санация"га муҳтож тармоқларни "инвестициялаш" орқали иқтисодий фаолиятни тиклаш;

инвестицион "драйвер"ларни аниқлаш, шакллантириш ва ривожлантириш;

қулай ишбилармонлик ва тадбиркорлик муҳитини шакллантириш;

"Давлат-хусусий шериклик" механизми орқали ижтимоий шароитларни яхшилаш;

реинвестиция фаолиятининг фаоллашуви.

3) Инвестицион имижни яхшилаш йўналиши. Ушбу йўналишда инвестиция муҳитининг яхшиланиши натижасида мамлакат ва ҳудудий даражадаги "инвестицион имижи" шаклланади ва буни қуйидагилар орқали кўриш мумкин:

Мазкур йўналишда инвестиция муҳитининг яхшиланиши натижасида халқаро рейтингларда ҳудудлардаги инвестиция муҳитининг ривожлантирилганлигини сабабли мамлакатнинг ишбилармонлик муҳити борасидаги позицияларнинг яхшиланиши кузатилади. Ушбу халқаро индекслар тоифаларига қуйидагиларни келтириш ўринли:

а) Жаҳон иқтисодий форуми (World Economic Forum) томонидан мамлакатларнинг ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлари орқали баҳоланадиган "Глобал рақобатбардошлик индекси – Global Competitiveness Report";

б) АҚШда жойлашган Kearney глобал бошқарув консалтинг компанияси томонидан инвестиция муҳитига таъсир этувчи омиллар асосида ҳар бир давлатнинг келгуси даврда ривожланиш имкониятлари асосида баҳоланувчи "Kearney тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ишонч индекси" The Kearney Foreign Direct Investment Confidence Index;

в) Швейцариянинг Менежментни ривожлантириш институти томонидан Мамлакатларнинг корхоналар барқарор қиймат яратиши мумкин бўлган муҳитни шакллантириш имкониятларини баҳолаш натижасида эълон қилинадиган "Жаҳон рақобатбардошлик рейтинги – World Competitiveness Ranking";

г) Бирланган Миллар Ташкилоти (БМТ)нинг Саноатни ривожлантириш ташкилоти (United Nations Industrial Development Organization – UNIDO) томонидан дунё давлатларида рақобатбардош товарлар ишлаб чиқариши ва экспорт қилиш имкониятларини баҳолаш натижалари асосида тузиладиган "Рақобатбардош саноат унумдорлиги индекси – Competitive Industrial Performance";

д) Жаҳон банки (World Bank Group) томонидан мамлакатлардаги бизнесни юритиш учун қулай ҳуқуқий муҳитнинг яратилганлигини баҳолан натижалари кўра эълон қилинадиган "Бизнесни юритиш индекси – Doing Business Index ;

е) Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти (The Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD)) томонидан иқтисодий соҳалардаги инвестицияларга нисбатан қонуний чекловларни ўрганиш ва баҳолаш натижалари асосида тузиладиган Тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар учун тартибга солиш чекловлари индекси – FDI Regulatory Restrictiveness Index;

ё) 1957 йилда АҚШда нотижорат, нодавлат тадқиқот муассасаси сифатида зўравон можароларнинг олдини олиш ва барқарор хавфсизликни таъминлаш учун тадқиқотларни олиб бориш мақсадида ташкил этилган Тинчлик учун жамғармаси (The Fund for Peace) ўрганилаётган давлатда истиқомат қилаётган инсонлар ва фаолият юритаётган компаниялар учун мавжуд хавфлар даражасини баҳолаш орқали эълон қилинадиган "Давлатларнинг фаолиятсизлик индекси – Fragile States Index;

з) 1973 йилда АҚШда ташкил этилган Мерос жамғармаси (Heritage Foundation) томонидан мамлакатлардаги иқтисодий эркинлик даражасини ўрганиб, натижалари юзасидан эълон қилинадиган "Иқтисодий эркинлик индекси – Index of Economic Freedom;

хорижий ва маҳаллий инвесторларнинг "ишончини қозониш";

инвестициялар учун "суғурта" ва "фойда олиш" тасаввурини шакллантиришдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Pernia Ernesto M.; Salas John Michael Ian Sioson (2005) : Investment climate and regional development in the Philippines, UPSE Discussion Paper, No. 2005,01, University of the Philippines, School of Economics (UPSE), Quezon City

2. Moore M., Schmitz H. Idealism, realism and the investment climate in developing countries- Sussex: Institute of Development Studies, 2016 – p.22.

3. Доунс Дж., Гудман Дж. Э. Финансово-инвестиционный словарь. 3-е изд. М.: Инфра-М, 2017. – 255с.

4. Engman M., Onodera O., Pinali E. Export Processing Zones: Past and Future Role in Trade and Development, OECD Trade Policy Working Paper No. 53, 2006. P.

II SHO‘BA. “YASHIL” IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISHNING DOLZARB MASALALARI

Z.Z.Tursunaliyev - Namangan muhandislik-qurilish instituti, Iqtisodiyot fakulteti 2- IQT-23 guruh talabasi

YASHIL IQTISODIYOTIGA O‘TISH ORQALI HUDUDLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyo xo‘jaligidagi jiddiy, tarkibiy o‘zgarishlar va u orqali tabiatga inson ta’sirini kamaytirish, yashil iqtisodiyot shakllarini barpo etish bo‘yicha tadqiqot olib borilgan bo‘lib, yashil iqtisodiyot terminiga aniqlik kiritilgan, dunyo mamlakatlarida yashil iqtisodiyotni rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbolda rivojlanish strategiyalari ishlab chiqilgan. Shu asnoda O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot rivojlantirish orqali yangi o‘sish nuqtalari va qutblarini rivojlantirish yo‘llari va ularni nazariy jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *hududlar, iqtisodiy o‘sish, barqaror o‘sish, yashil iqtisodiyot, yashil sektor,. P4G sammiti, iqtisodiyot modellari, o‘sish markazlari, o‘sish qutblari, innovatsiya, innovasion bosqich, raqobat, ekologik muammolar, antropogen ta’sir, atrof-muhit, atrof-muhit indeksi, postindustrial bosqich, jahon iqtisodiyoti, BRIKS, geoekologiya, tabiatdan rasional foydalanish.*

Аннотация*: В данной статье проведено исследование серьезных, структурных изменений в мировой экономике и снижения через них воздействия человека на природу, становления форм зеленой экономики, уточнен термин зеленая экономика, развитие зеленой экономики. в странах мира разработаны направления и стратегии дальнейшего развития. В данном контексте проанализированы пути развития новых точек и полюсов роста и их теоретические аспекты в Республике Узбекистан через развитие зеленой экономики.*

Ключевые слова: *регионы, экономический рост, устойчивый рост, зеленая экономика, зеленый сектор. Саммит P4G, экономические модели, центры роста, полюса роста, инновации, инновационный этап, конкуренция, экологические проблемы, антропогенное воздействие, окружающая среда, экологический индекс, постиндустриальный этап, мировая экономика, БРИКС, геоэкология, рациональное природопользование.*

Abstract*: In this article, a study was conducted on serious, structural changes in the world economy and the reduction of human impact on nature through it, the establishment of forms of green economy, the term green economy was clarified, the development of green economy in the countries of the world directions and future development strategies have been developed. In this context, the ways of developing new growth points and poles through the development of green economy in the Republic of Uzbekistan and their theoretical aspects were analyzed.*

Key words*: regions, economic growth, sustainable growth, green economy, green sector. P4G summit, economic models, growth centers, growth poles, innovation, innovation stage, competition, environmental problems, anthropogenic impact, environment, environmental index, post-industrial stage, world economy, BRICS, geoecology, rational use of nature.*

Jahon iqtisodiyotini barqaror o‘sishiga erishish va mamlakatlar iqtisodiyotida yangi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali raqamli iqtisodiyotga o‘tish, keyingi bosqichda yashil iqtisodiyot bosqichiga ko‘tarish maqsad qilingan. Yashil iqtisodiyot - iqtisodiyotni atrof-muhitga ta’sirini minimillashtirish, antropogen ta’sirni salbiy tomonlarini yo‘qotish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tabiat qonunlaridan kelib chiqqan holda tartibga solishga aytiladi.

Mamlakatlar rivojlanishidagi yashil iqtisodiyotning o‘rni rivojlangan mamlakatlarda raqobatni yuqori darajadaligi bilan ajralib turadi. Kelgusida istiqbolda barqaror rivojlanish sur’atini ta’minlash, qambag‘allik muammosini hal etish, jamiyat hayotida inson ishtiroki muammolari hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Yashil iqtisodiyotga to‘liq amal qilish asosan BRIKS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Afrika Respublikasi) mamlakatlarida tabiiy resurslardan samarali foydalanish yo‘llari o‘tish orqali ta’minlangan. Dunyo xo‘jaligidagi “yashil sektor” tushunchasi iqtisodiyotda yashil o‘sish (green shoots) tushunchalari shakllanishiga olib keldi. AQSH iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni 4,2 % ini bermoqda va 600 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan holda u sohada 3 mln kishi band. Yaponiyada yashil iqtisodiyot ulushi YAIMni 3,4 %ini tashkil etib,1,5 mln kishi band, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa uning ulushi YAIMda 2,5 % ini tashkil etib, 3,4 mln kishi band hisoblanadi.

Germaniyada esa toza ekologik mahsulotlar eksporti bo‘yicha etakchilik qiladi va 4,8 % ini tashkil etadi. Buyuk Britaniya YAIM da yashil iqtisodiyot ulushining yuqoriligi bo‘yicha etakchilik qiladi va 8,8 % ini tashkil etgan holda eksport tarkibida ulushi 5 % ni tashkil etadi. Climate Bonds Initiative tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra 2019 yilda yashillashtirishni halqaro klassifikatsiyalash uchun 254,9 mlrd AQSH dollari sarflandi va bu sohada 2018 yilda 171,1 mlrd AQSH dollari sarflandi, 2019 yilda o‘tgan yilga nisbatan 2,6 % ga yashillik kreditlar o‘sdi [3]. Shu sababdan an’anaviy iqtisodiyot modellaridan yashil iqtisodiyotga o‘tish davrini boshlash lozim bo‘ladi. Yoqilg‘i-energetikaning qazilma turlaridar voz kechib, yangi yashil iqtisodiyotga kiruvchi qisqa uglerodli iqtisodiyot yaratish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash hisoblanadi. 2021 yil 30-31 may kunlari Koreya Respublikasining Seul shahrida tashkil etilgan “Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” (P4G) sammitidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma’ruzasini alohida e’tirof etish lozimdir. Ma’ruzada asosiy e’tibor yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, tabiatni sof holda saqlash, transchegaraviy suvlardan foydalanish, bioxilma-xilikni saqlash, iqlim o‘zgarishlari kabi global o‘zgarishlarga e’tibor qaratilgan bo‘lib, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan [1].

Jahon iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun bugunki kunda iqtisodiyotni

rivojlantirishning yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqishdan iborat. “Yashil iqtisodiyot” g‘oyasi 2008 yilda Yunepning “Global yashil iqtisodiyot” kursida ko‘tarilgan. 2008 yilda yuz bergan moliyaviy inqiroz va 2020 yilda boshlangan COVID-19 pandemiyasi ta’sirida yuz bergan inqiroz sharoitida yangi rivojlanishni tashkil etish va yangi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan beriladigan imtiyozlar va mexanizmlarni ishlab chiqish asosiy maqsad qilingan. Dunyo xo‘jaligidagi postindustrial bosqichga o‘tish uchun bir necha global muammolar echimini topish, yashil iqtisodiyot mexanizmlarini ishlab chiqish masalalariga e’tibor qaratish zarurdir. Barcha mamlakatlarda olib boriladigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda asosiy diqqatni atrof-muhit o‘zgarishlariga hisobga olish kerak. Shu sababdan bir necha tadqiqotlar barqaror rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqish, atrof-muhitni sof saqlash va antropogen ta’sirni minimallashtirish yo‘nalishlarini takomillashtirish zarur. Shu orqali dunyo xo‘jaligi oldida yangi iqtisodiyotni yaratish ya’ni yashil iqtisodiyotni rivojlantirish geoekologik qonuniyatlar doirasida amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Yashil iqtisodiyot – shunday iqtisodiyotki, unda inson faoliyati doirasida ijtimoiy munosabatlarni e’tiborga olgan holda ekologik xatarlarni kamaytirib, ekologik muammolar echimi topilgan va antrpogen ta’sir darajasini pasaytirilgan holdagi xo‘jalik shakllarini shakllantirishdan iborat [4]. Bizning fikrimizcha esa yashil iqtisodiyot – iqtisodiyotni xo‘jalik shakllarida inson ta’siri minimal darajada bo‘lishi, tabiatni sof holda saqlab, faoliyat yurgizish shakllari asosida iqtisodiyotni rivojlantirishdir.

Dunyo xo‘jaligi barcha sohalarda yashil iqtisodiyot barpo etish uchun qat’iy harakat qilar ekan, shu asnoda O‘zbekiston Respublikasi ham iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda, yangi yo‘nalishlarni tashkil etishda bunday tarkibiy o‘zgarishlarni e’tibordan qochirmasliklari zarurdir. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirar ekanmiz sohaga yangi innovasion ishlanmalarni joriy etishimiz, tabiatdan foydalanish darajasini tartibga solishimiz kerak bo‘ladi va shu orqali ekologik toza, zararsiz bo‘lgan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlarini barpo etish mumkin bo‘ladi. Yashil iqtisodiyot mexanizmlari orqali iqtisodiyotnning yangi o‘sish nuqtalarini va o‘sish markazlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash lozimki, dunyo xo‘jaligidagi tarkibiy o‘zgarishlar ta’sirida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlar yuz berish bu tabiiy holdir. Shu bilan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, yangi innovasion shakllarini barpo etish orqali iqtisodiyotni turli sohalari va tarmoqlarini jadal rivojlantirish va barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlashga erishishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot ta’sirida bir necha o‘zgarishlar bo‘lishi kutilmoqda:

Birinchidan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarini tabiatga bo‘lgan ta’siri pasaytirish;

Ikkinchidan, tabiiy ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali yashil iqtisodiyot ulushi yillar davomida oshirib borish;

Uchinchidan, iqtisodiyotni barcha soha va tarmoqlariga innovatsiyalarni

keng joriy qilinishi va tabiatga antropogen ta’sirni minimallashtirilishiga olib keladi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” ikkinchi xalqaro sammiti ishida so‘zlagan nutqi, 2021 yil, 30-31 may., https://oz.sputniknews-uz.com/20210530/mirziyoev-seuldagi-sammitda-ishtirok-etdi-asosiy-fikrlar-18989066.html

2.Soliyev A, Ahmedov E.A, Mahamadaliyev R.Y, Nazarov M.I, Tojiyeva Z.N, Boltayev M.J, Atajanova U.A. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T-2003,62-64 b.

3.Internet manzili: https://igtipc.org/ru/news-res/738-ob-jomy-zeljonogo-finansirovaniya-vyrosli-na-50-i-prevysili-250-mlrd-v-2019-g

UNEP’s Green Economy Initiative (GEI). URL: https://www.unep.org/greeneconomy (accessed 02.10.2019)

Sh.K.Yuldashev - SamDU Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish institute Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi dotsenti

U.A.Boliboyeva - SamDU Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti talabasi

“YASHIL IQTISODIYOT” O‘ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHINING ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “yashil iqtisodiyot” tushunchasi va O‘zbekistonda barqaror rivojlanishni ta’minlashda uning ahamiyati haqida qarashlar keltirilgan, ekologiya va iqtisodiyotning o‘zaro bog‘liqligi, mamlakat iqtisodiy faoliyatining atrof-muhitga ta’siri hamda natijalari ko‘rib chiqildi. Shuningdek mamlakat iqtisodiyoti hamda ishlab chiqarishi natijasida yuzaga keladigan ekologik xavflarni sezilarni darajada kamaytirilishi uchun “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish afzalliklari yoritib berildi.*

Kalit so‘zlari. *“Yashil iqtisodiyot”, resurs, strategiya, turistik-rekreatsion imkoniyatlar, ekologiya, barqaror rivojlanish, atrof-muhit”, yashillashtirish”.*

Аннотация. *В данной статье представлены взгляды на понятие «зеленая экономика» и ее значение в обеспечении устойчивого развития в Узбекистане, рассмотрены взаимозависимость экологии и экономики, влияние и результаты экономической деятельности страны на окружающую среду. Также были отмечены преимущества перехода к «зеленой экономике» в целях снижения экологических рисков, возникающих в результате производственной деятельности.*

Ключевые слова. *«Зеленая экономика», ресурс, стратегия, туристско-рекреационные возможности, экология, устойчивое развитие, окружающая*

среда», озеленение».

Abstract. *This article presents views on the concept of "green economy" and its importance in ensuring sustainable development in Uzbekistan, the interdependence of ecology and economy, the impact and results of the country's economic activity on the environment were considered. Also, the advantages of transition to "green economy" were highlighted in order to reduce the environmental risks arising as a result of the country's economy and production.*

Keywords. *"Green economy", resource, strategy, tourism-recreational opportunities, ecology, sustainable development, environment", greening".*

O‘zbekiston so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasida muvaffaqiyatlarga erishgan davlatdir. Texnikalar, atrof-muhitni himoya qilish, algoritmik texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarida faol ishlaydigan mutaxassislar O‘zbekistonning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida katta o‘rin tutadi. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini rivojlantirishga e’tibor qaratgan holda, mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar, muhandislik va inshootlarni rivojlantirish maqsadida ko‘plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yilning 8-avgustidagi PQ-271 sonli “Jahon banki ishtirokida “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yilning 2-dekabridagi PQ-436 sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari yurtimizda yashil iqtisodiyot rivojlanishi uchun keng imkoniyat yaratib berdi. Xususan, ushbu hujjatlarda yashil iqtisodiyotga o‘tish O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik yo‘nalishlaridan ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasida iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash bo‘yicha bir qator vazifalar keltirilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 15-maqsadi “Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, erlarning emirilishini to‘xtatish”dan iborat. Bu esa o‘z navbatida, hududlarning turistik-rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ekoturizmni rivojlantirish bilan bog‘liq.

Yashil iqtisodiyot bu shunday iqtisodiyotki bunda bandlik va daromadning o‘sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishni kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo‘qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyatga, ifratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy ivnestitsiyalarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda innovatsion taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, cheklangan resurslardan maksimal darajada oqilona foydalanish masalalari nafaqat milliy iqtisodiyot , balki butun jahon hamjamiyati oldida amalga oshirilishi

lozim bo‘lgan muhim vazifalardan sanaladi.

So‘nggi yillarda ekologiyaning buzilishi (iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, bio xilma-xillikning yo‘qotilishi), tabiiy kapitalning tugab borayotganligi, kambag‘allik miqyosini ortib borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiyaning etishmasligi, odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligi sabablaridir. Global inqirozlarning barchasi ish o‘rinlari qisqarishi, ijtimoiy himoyasizlik va qashshoqlik kabi, ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlardagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Dunyoning bugungi qiyofasi, tiklab bo‘lmas ekologik falokatlar va atrof-muhitga etkazilayotgan ulkan zararlar “yashil oqtisodiyot”ga o‘tish zarurligini taqozo etadi. Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, jahondagi etakchi mamlakatlar allaqachon yashil iqtisodiyotga o‘tish ishlarini boshlab yuborganligini ko‘rishimiz mumkin. Ular yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni o‘rnini bosa olmasligini balki barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi yo‘l ekanligini anglab etishgan.

Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o‘z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi zarurki, keying avlodlar ulardan kam bo‘lmagan iqtisodiy imkoniyatlardan va turmush farovonligiga ega bo‘lishlari lozimligida namoyon bo‘ladi.

So‘nggi yillar ichida “yashil” iqtisodiyot g‘oyasi nafaqat ekologiya iqtisodchilari, balki dunyoda ham keng muhokama qilinadi. Bu borada turli siyosoiy forumlarda, davlat rahbarlari, siyosatchi olimlar tomonidan bu masalaga ko‘p bora to‘xtalib kelinayotganligi “yashillashtirish” siyosatiga bo‘layotgan jiddiy e’tibor bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviylashgan iqtisodiyot sharoitida insoniyat ehtiyoji ham misli ko‘rilmagan tarzda oshib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni olishda tabiatga “murojaat qilish” ham ko‘payib bormoqda.

“Yashil iqtisodiyot mana shunday o‘zgarishlar kelajak avlod hayotiga salbiy ta’sir qilishini oldini olish va ular uchun ham farovon hayot ta’minlash zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Agarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy munosabatlarning tabiatga salbiy ta’siri oldi olinmasa, u nafaqat kelajak avlod hayotiga, balki jamiyatning hozirgi sharoitiga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Va aksincha, insoniyatning atrof tabiiy muhitga munosabati o‘zgarsa, ularda avvalo, ekologik madaniyat rivojlansa, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va mahsulotni iste’mol qilish bilan munosabatlar “yashillashtirish” sa’y-harakatlariga moslashga, albatta, biz va kelajak avlod hayotining ijobiy tarafga o‘zgaradi. Ya’ni “Yashil” iqtisodiyot aholi farovonligini ta’minlashdagi va iqtisodiy o‘sishda kabi barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish nima uchun zarur degan savolga javob beradigan bo‘lsak. Yashil iqtisodiyot er yuzidagi aholi uchun farovonlik olib keladi va kambag‘allik darajasini pasaytiradi. Barcha mamlakatlarda inson taraqqiyotining yuqori darajasi, xoh u ta’lim sohasi bo‘lsin xoh sog‘liqni saqlash bo‘lsin, xullas insonning farovon hayot kechirishi uchun nimaiki zarur bo‘lsa unga erishish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyot bio xilma-xillikni tiklashga yordam beradi, ekologiyadagi salbiy o‘zgarishlarni oldini olishga va atrof – muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohaga investitsiyalar jalb qiladi va samarali foydalanishga yo‘naltiriladi.

Shunday qilib yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog‘lig‘i uchun zarur bo‘lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bog‘liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga ososlangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo‘nalishi tushuniladi. Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo‘ladi:

Birinchidan, aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne’matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar etkazmasdan ko‘paytirib borish lozim.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo‘ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko‘paytirish, jamoat tarnsportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo‘nalishlarda ishlarni olib borish.

Uchinchidan, atrof-muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, arof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni etishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim bo‘ladi.

To‘rtinchidan, bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta’minlash maqsadida ne’matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham ko‘rish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Beshinchidan, aholining doimiy o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo‘ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-avgustdagi PQ-271-son “Jahon banki ishtirokida “Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo‘llash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

4. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T. Yashil iqtisodiyot. Darslik – T. “Universitet” 2020y. 31 bet.

O.A.Yo‘ldashev - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

YASHIL IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Annotatsiya. *Maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi, mohiyati yoritilgan. Shuningdek, barqaror rivojlanish konsepsiyasiga muvofiq iqtisodiy o‘sish yo‘nalishlari tahlil etilgan.*

Абстракт. *В статье раскрыто понятие и сущность зеленой экономики. Также анализируются направления экономического роста согласно концепции устойчивого развития.*

Abstract. *The concept and essence of green economy is explained in the article. Also, the directions of economic growth are analyzed according to the concept of sustainable development.*

Kalit so‘zlar. *Yashil iqtisodiyot, kontseptsiya, iqtisodiy o‘sish, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, samaradorlik, resurslarni tejash, farovonlik*

Ключевые слова. *Зеленая экономика, концепция, экономический рост, охрана окружающей среды, устойчивое развитие, эффективность, ресурсосбережение, благосостояние*

Keywords. *Green economy, concept, economic growth, environmental protection, sustainable development, efficiency, resource conservation, well-being*

Yashil iqtisodiyot so‘nggi yigirma yil ichida paydo bo‘lgan yangi tushunchalardan biri bo‘lib, barqaror rivojlanish kontseptsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo‘lib, turli mamlakatlar va hududlar uchun ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarga bir vaqtning o‘zida erishishni ta'minlashga qaratilgan. Biroq, barqaror rivojlanish kontseptsiyasidan farqli o‘laroq, yashil iqtisodiyot atrof-muhitni muhofaza qilish strategiyalariga qarshi emas, balki iqtisodiy o‘sishga urg'u beradi. “Yashil iqtisodiyot” atamasi birinchi marta 1989 yilda qo‘llanilgan. Keyinchalik bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanila boshlandi. Hozirgi vaqtda "yashil" iqtisodiyot masalalari xalqaro tizimlar doirasidagi turli qo‘mitalar, turli mamlakatlarning davlat organlari, xususiy tashkilotlar va boshqalar tomonidan e’tirof etilmoqda.

UNEP, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferentsiyasi (UNCTAD), BMT DESA, Barqaror rivojlanish komissiyasi (UNCSD), Yashil iqtisodiyot koalitsiyasi (GEC), Global yashil o‘sish instituti (GGGI) kabi xalqaro tashkilotlarning nashrlarida "yashil" iqtisodiyot va "yashil" iqtisodiy o‘sish ta'riflari va talqinlari taklif qilingan.

Yashil iqtisodiyot va yashil o‘sish ekologik va iqtisodiy muammolarning kesishishini ta'kidlasa-da, bu atamalarning aksariyat ta'riflari ijtimoiy masalalarni ham o‘z ichiga oladi.

Xalqaro ekspertlar samarali innovatsiyalarga sarmoya kiritish: energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, barqaror qishloq xo‘jaligi uchun shart-sharoit yaratish va qulay, ekologik toza infratuzilmani shakllantirishga sarmoya kiritib, iqtisodiy rivojlanishning yangi

yo‘li zarur, degan fikrda. Barqaror rivojlanish yashil iqtisodiyotga o‘tishni talab qiladi va bu borada investitsiyalar muhim rol o‘ynaydi. UNEP ma'lumotlariga ko‘ra, iqtisodiyotni "yashillashtirish"ga investitsiyalar 2011-2050 yillarda jahon yalpi ichki mahsulotining 2 foizini ta'minlaydi. joriy va kelajakdagi o‘sish sur'atlari iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligini oshirish va ekotizim xizmatlarining yo‘qolishi bilan bog'liq jiddiy xavflarning oldini oladi.

Mark Tersek va Jonatan Adams "Tabiat boyliklari" kitobida tabiat yangi texnologiyalar yoki biznes innovatsiyalari bilan bir qatorda biznes uchun juda istiqbolli soha ekanligini ta'kidlaydilar. Tabiiy resurslar tabiiy kapitaldir, qachonki insoniyat buni tushunsa, iqtisodiyotda ham, ekologiyada ham hammasi joyiga tushadi.

Bugungi kunda resurslar qanchalik ko‘p qazib olinsa va foydalanilsa, iqtisodiyot uchun shunchalik yaxshi degan xulosa bo‘ladi. Lekin bu mutlaqo barqaror bo‘lmagan holatdir. Iqtisodiyot o‘zi mavjud bo‘lgan tabiiy muhitning bog'liq tarkibiy qismidir. So‘nggi yigirma yillikda shakllangan "yashil" iqtisodiyot kontseptsiyasi ushbu uch komponent - ijtimoiy, tabiiy, iqtisodiy o‘rtasida yanada uyg'unlikni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, bu barcha mamlakatlar guruhlari - rivojlangan, rivojlanayotgan va o‘tish davridagi mamlakatlar uchun maqbul bo‘ladi.

Yashil iqtisodiyot nazariyasi uchta aksiomaga asoslanadi:

• cheklangan makonda ta'sir doirasini cheksiz kengaytirish mumkin emas;

• cheksiz resurslar bilan cheksiz o‘sib borayotgan ehtiyojlarni qondirish mumkin emas;

• Yerning barcha kurrasi o‘zaro bog‘langan.

Global miqyosda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun dunyoning barcha mamlakatlari an’anaviy iqtisodiyotdan yangi turdagi iqtisodiyotga - yashil iqtisodiyotga o‘tishlari kerak. Va agar an’anaviy iqtisodiyot barcha turdagi resurslarni keng jalb qilishga asoslangan bo‘lsa, yashil iqtisodiyot mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni, boylik yaratish uchun mutlaqo yangi ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish, chiqindilarni minimallashtirishni o‘z ichiga olgan intensiv iqtisodiyotdir.

Yashil iqtisodiyotning paydo bo‘lishi nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlari faoliyatiga, ularning faoliyat shartlarini o‘zgartirishga ham tubdan yangi tashkiliy va texnologik talablarni qo‘yadi. Yashil o‘sishga o‘tish muhim ta’sir ko‘rsatmoqda, jumladan, xalqaro savdoga, uni amalga oshirish uchun yangi shart-sharoitlar, muammolar va imkoniyatlar yaratishga yo‘naltiriladi. Shu munosabat bilan dunyoda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini batafsil ko‘rib chiqish va yaqin o‘n yilliklarda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni aniqlash muhim ko‘rinadi.

Молиявий мустақилликни қўлга киритгандан кейин Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ҳам тадбиркорлик фаолиятидан олинадиган даромадлар манбаларини кенгайтириб бормоқда. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг 2018-2022 йилларда тадбиркорлик фаолиятидан олинган даромадлари ҳажми ва таркиби 3-жадвалда келтирилган.

3-жадвал

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтида тадбиркорлик фаолиятидан олинган даромадлар турларининг 2018-2022 йиллардаги ўзгаришлари (млн. сўм ҳисобида)

№	Даромад манбалари ва кўрсаткичлари	Йиллар									
		2018 йил		2019 йил		2020 йил		2021 йил		2022 йил	
		миқдори	улуши, %	миқдори	улуши, %	миқ-дори	улуши,%	миқдори	улуши, %	миқдори	улуши,%
1.	Бино ва жиҳозлар ижараси	14485,0	2,6	23322,4	1,8	6975,7	3,0	66572,8	4,5	83969,2	6,8
2.	Ётоқхона хизмат-лари	108853,5	19,6	235044,0	18,2	39557,0	16,9	357937,0	24,2	223578,0	18,0
3.	Рангли ва қора метал топши-ришдан	-		-		2030,0	0,9	4039,2	0,3	4400,0	0,4
4.	Пуллик курслар	37401,9	6,7	41827,0	3,2	9808,0	4,2	87875,7	6,0	14600,0	1,1
5.	Хўжалик шартномал ари	-		66115,0	5,1	130801,0	55,8	384168,0	26,0	441914,0	35,7
6.	Бошқа даромад-лар	394342,3	71,1	925633,5	71,7	44925,5	1902	575554,4	39,0	470321,5	38,0
	Жами	555082,7	100	1291942,0	100	234097,1	100	1476147,1	100	1238782,7	100

Юқоридаги жадвалдан кўриниб турибдики, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтида ҳам қўшимча даромад манбалари кўпайиб бормоқда. Тадбиркорлик фаолиятидан олинган даромад таркибида бино ва жиҳозлар ижарасидан олинган даромадлар ҳажми 2018 йилда 2,6 фоиз бўлган бўлса, 2022 йилда 6,8 фоизни ташкил этган. Лекин, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтида 2018 йилга нисбатан пуллик курслар, бошқа даромадлар улуши 2022 йилга нисбатан пасайган. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтида ҳам ички салоҳиятлардан келиб чиқиб келгусида институт қошида нашриёт матбаа фаолияти, ўқув марказлари ва пуллик курслар ҳажмини ошириш мақсадга мувофиқ.

Тадқиқотимиз давомида Самарқанд Давлат чет тиллар институти ва Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтларининг 2018-2022 йилларда олинган даромадларининг қилинган харажатлари ўртасидаги фарқларнинг қиёсий таҳлили амалга оширилди (4-жадвал).

4-жадвал

Тадқиқот объектларининг олинган жами даромадларининг қилинган харажатлари ва фойдасининг 2018-2022 йиллардаги қиёсий таҳлили

(млн. сўм ҳисобида)

Йиллар	Самарқанд Давлат чет тиллар институти			Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти		
	жами даромадлар	жами харажатлар	фойдаси	жами даромадлар	жами харажатлар	фойдаси
2018	40798,4	30161,4	+10637,0	29441,6	22603,2	+6838,4
2019	86953,0	46111,4	+40841,6	42092,5	30712,0	+11380,5
2020	120341,1	61566,8	+58774,2	63090,5	30673,4	+32417,0
2021	136438,3	107510,7	+28927,6	83131,7	48079,4	+35052,3
2022	159620,2	146979,3	+12640,8	100131,3	69220,2	+30911,2

Самарқанд Давлат чет тиллар институти (СамДЧТИ) ва Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институт (СамИСИ)ларининг даромадларининг қилинган харажатларга нисбатан қиёсий таҳлилидан кўриниб турибдики, иккала ОТМ ҳам қилинган харажатларга нисбатан 2018-2022 йилларда даромадлар плюс бўлган. Харажатлар ҳам даромадлар ҳам ўсиш тенденциясини ифодаламоқда. ОТМ фаолият кўламига мос равишда даромад ва харажатлар ҳажмида фарқлар мавжуд.

Юқоридаги жадвал маълумотларини кўриниб турибдики, 2018 йилда СамДЧТИ олинган даромадининг 73,9 %ини харажат қилган, СамИСИ эса жами даромаднинг 76,8 фоизини сарфлаган. СамДЧТИ 2019 йилда 53,6 %ини, 2020 йилда эса 51,2 % ини харажат қилган. СамИСИ эса 2020 йил жами даромадининг 48,6 фоизини, 2021 йилда эса 57,8 % даромадини харажат қилган. Бу йилларни кам харажат қилинганлигининг асосий сабабларидан бири пандемия деб ҳисоблаймиз. СамДЧТИ 2022 йилда дами қилган даромадининг 92,1 % ини, СамИСИ эса қилинган даромадининг 69,1 фоизини харажат қилган.

Яна шуни келтириб ўтишимиз керакки, 2018 йилда СамДЧТИ 40798412,5 минг сўм, СамИСИ эса 29441635,4 минг сўм даромад қилиб, СамДЧТИ СамИСИга нисбатан 1,4 баравар кўп даромад қилган бўлса, СамДЧТИ 159620214,7 минг сўм, СамИСИ эса 100131345,7 минг сўм даромад қилиб, СамДЧТИ СамИСИга нисбатан 1,6 баравар кўп даромад қилган. СамДЧТИнинг СамИСИга нисбатан тадбиркорлик фаолиятидан қилинган даромад манбалари кўпроқни ташкил этади. Буларга нашриёт матбаа фаолияти хизматидан ҳамда пуллик марказлар ва курслардан қилинган даромадлар сезиларли даражада юқори даромад манбалари ҳисобланган.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, олий таълим муассасаларида таълим хизматлари ривожланишининг ички имкониятлари Самарқанд Давлат чет тиллар институти ва Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтларининг 2018-2022 йиллардаги таълим хизматлари ҳажмини таҳлили асосида ўрганилди. Ўрганилган ОТМ даромадлари 2022 йилда 2018 йилга нисбатан қариб 4 баробарга ошган. ОТМ молиявий мустақиллик берилгандан кейин тадбиркорлик фаолиятидан олинган даромадларининг турлари кенгайиб бормоқда. Биргина Самарқанд чет тиллар институтида нашриёт матбаа фаолияти хизматидан олинган даромад 2022 йил 2018 йилга нисбатан 5,1 бараварга ошиб, 172024,9 минг сўмни ташкил этган. Шунингдек, мазкур ОТМ қошида ўқув марказлари ҳамда пуллик курслардан олинган даромад 2022 йилда олинган жами даромаднинг 10,4 фоизни ташкил этган. Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтида ҳам қўшимча даромад манбалари кўпайиб бормоқда. Айниқса, мазкур ОТМда бино ва жиҳозлар ижарасидан олинган даромадлар ҳажми 2022 йилда 83969194,6 минг сўм, умумий даромаднинг 6,8 фоизини ташкил этган бўлса, хўжалик шартномалари эса 441914000,0 минг сўм, умумий даромадда 35,7 фоизни ташкил этган. Ўрганилган ОТМда асосий воситалар ва бошқа жиҳозларга қилинган харажатлар 2018 йилга нисбатан 2022 йилда кескин ошган. Самарқанд Давлат чет тиллар институтида асосий воситалар ва бошқа жиҳозларга қилинган харажатлар 2018 йилга нисбатан 2022 йилда 4,1 баробарга ошган бўлса, Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтида 41,4 бараварга ошган. Бундан кўриниб турибдики, ОТМларда янги ўқув аудиториялари, ўқув жиҳозлари, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, ўқув-лаборатория жиҳаозлари учун харажатлар кескин ошиб бормоқда.

Мамлакатимиздаги олий таълим муассасаларига молиявий ва академик мустақилликни берилиши улар ўртасида рақобатни келтириб чиқармоқда. Олий таълим эндиликда муайян бир давлатнинг монополиясида ҳам эмас. У бозор хусусиятини касб этмоқда. Бу эса ўз-ўзидан олий таълим хизматларини ривожлантириш масаласини долзарблаштирмоқда. Кўпгина олий таълим муассасаларида турли дастурлар ва янгидан-янги ўқитиш усуллари яратилмоқда. Энг асосийси олий таълим муассасалари тадбиркорлик фаолияти асосида даромад манбаларини кўпайтиришлари ва харажатларини тежаш асосида рақобат устунлигига эришиши мумкин.

А.Э.Тангиров – СамИСИ, Менежмент кафедраси и.ф.н., доцент
У.З.Турсунова - СамИСИ, магистранти

БОШҚАРУВНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация: *Мақолада корпоратив бошқарувнинг моҳияти, мақсади, Ўзбекистон миллий корпоратив бошқарув модели тузилмаси ва унинг камчиликлари ўрганилган ҳамда такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқилган.*

Калит сўзлар: *Корпорация, корпоратив бошқарув, корпоратив бошқарув тизими, менежмент, акциядорлар, акциядорлик жамият, кузатув кенгаши, ижро органи.*

Аннотация: *В статье рассматриваются сущность и цель корпоративного управления, структура национальной модели корпоративного управления в Узбекистане и ее недостатки, а также разработаны предложения по совершенствованию.*

Ключевые слова: *Корпорация, корпоративное управление, система корпоративного управления, менеджмент, акционеры, акционерное общество, наблюдательный совет, исполнительный орган.*

Annotation: *The article discusses the essence and purpose of corporate governance, the structure of the national model of corporate governance in Uzbekistan and its shortcomings, and also develops proposals for improvement.*

Key words: *Corporation, corporate governance, corporate governance system, management, shareholders, joint stock company, supervisory board, executive body.*

Жаҳон тажрибасида акциядорлик жамиятлари ривожланишига инвестициялар киритиш асосан, улардаги корпоратив бошқарув тизимининг самарадорлик даражасига боғлиқ бўлмоқда. Германиянинг «Дойче Банк» тадқиқотига кўра самарали корпоратив бошқарувига эга компанияларда бошқарув амалиёти сустлашиб бораётган компанияларга нисбатан ривожланиш даражаси икки йил мобайнида қарийб 19 фоизга ошган, шунингдек, ABN AMRO банкининг Бразилия компанияларида ўтказган тадқиқотларида корпоратив бошқарув тизими юқори бўлган компанияларда ROE (ўз капитал рентабеллиги) 45 фоизга, соф фойда 76 фоизга кўп эканлиги қайд этилади. Ушбу жиҳатларни эътиборга олганда миллий акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув усулларини янада такомиллаштириш муҳим масалалар қаторига кириши маълум бўлади.

Корпорация (лотинча corporatio–бирлашиш) – бу умумий мақсадларга эришиш, биргаликда фаолият кўрсатиш учун бирлашган ва ҳуқуқнинг мустақил субъектини – ҳуқуқий шахсни ташкил қилган жисмоний ёки ҳуқуқий шахслар бирлашмасидир.[3].

Корпорациялар - мулкчиликнинг ҳиссадорлик шаклининг замонавий кўринишларидан бири ҳисобланади. Унда бир неча мулкдорлар манфаатлари бирлашади, ягона мақсад доирасида инвесторлар капиталлари

бирлаштирилади[4].

Мамлакатмизда айнан акциядорлик жамиятлари жаҳон хўжалик ва ҳуқуқий амалиётида умум қабул қилинган корпорация тушунчаси билан тенглаштирилади.

Айтиб ўтиш керакки, корпорация тушунчасии ҳозирги шароитларда яна бир ўзига хос жиҳатни касб этмоқда. У бир нечта юридик шахслар томонидан ташкил этилган хўжалик субъектини белгилаш учун фойдаланилиб, уларнинг ҳар бирини бошқа мулкий муносабатлар, биргаликда бизнес юритиш, умумий мақсадлар ва манфаатлар, умумий ташкилий структура билан боғлиқ мустақил иқтисодий субъект сифатида кўриб чиқиш мумкин. Шундай қилиб, Ўзбекистонда корпорация мустақил акциядорлик жамияти бўлиши мумкин.

Корпоратив бошқарув бу – бизнеснинг ташкилий-ҳуқуқий расмийлаштирилишини, ташкилий структураларнинг оптималлашувини бошқариш, қабул қилинган мақсадларга мувофиқ компанияда ички ва ташқи фирма муносабатларини ташкил қилишдир.

Корпоратив бошқарувни унинг хусусиятлари бошқарув объекти сифатида корпорациянинг ўзига хосликлари билан изоҳланадиган алоҳида бир турга ажратиб, акциядорлар манфаатларининг устуворлиги ҳамда уларнинг корпорацияни ривожлантириш ва бошқаришдаги ролига асосланган, акциядорларнинг ўзаро алоқа қилишини кўзда тутадиган (корпоратив коммуникациялар) мулкчилик ҳуқуқининг амалга оширилишини ҳисобга оладиган, бутун корпорацияни ривожлантириш стратегиясига асосланган ва ниҳоят, корпоратив маданиятни, яъни хулқ - атвор тамойиллари, умумий анъаналар комплексини вужудга келтирадиган бошқарув сифатида тавсифлаш мумкин.

Корпорация раҳбарияти қарорлар қабул қилиш жараёнида жамиятни ташкил этувчи турли хил хўжалик юритувчи субъектларнинг манфаатларини ҳисобга олиши лозим.

Корпорациялар турли хил принципиал қарорларини қабул қилишда корпоратив алоқалар иштирокчилари эҳтиёжлари тенглигини ҳисобга олса, корпорациялар моҳиятини ва муҳимлигини оширади.

Корпоратив бошқарув кўпроқ стратегик характерга эга бўлиб, компаниянинг ташқи муҳитда муваффақиятли фаолият юритишига йўналтирилган бўлади (акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ҳукумат органлари, ҳамкорлар, кредиторлар ва бошқалар билан алоқа қилиш).

Корпоратив бошқарувни (corporate governance) менежмент (management) билан тенглаш тўғри эмас. Бу турли тушунчалардир. **Корпоратив бошқарув** учун муҳим нарса – ҳалол, масъулиятли, равшан корпоратив ҳулқ ва ҳисоботни таъминлашга қаратилган механизмлардир. **Менежмент** эса корхона бизнесининг профессионал мутахассислар томонидан юритилишига қаратилган механизмларни назарда тутади. Корпоратив бошқарув менежментга нисбатан раҳбарлик қилишнинг юқорироқ поғонасида жойлашган бўлиб, компания фаолиятини унинг акциядорлари манфаатлари йўлида

бошқарилишини таъминлайди. Корпоратив бошқарув ва менежмент вазифаларининг ўзаро кесишуви фақат компанияни ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқишда намоён бўлади.



1-Расм. **Ўзбекистон миллий корпоратив бошқарув модели тузилмаси**

Корпоратив бошқарувнинг мақсади корпорацияларнинг инвестиция жозибадорлигини ошириш ва барча манфаатдор томонлар манфаатларининг оқилона мувозанатига риоя қилган ҳолда, амалдаги қонунчилик доирасида акциядорлик жамиятларининг барча фаолият турларидан имкони қадар юқорироқ фойда олишдир. Нормал ҳолатдаги корпоратив бошқарувни амалга ошириш учун корпоратив тизимга тез мослаша олиш учун унинг қулай йўлларини топиш мақсадга мувофиқдир.

Рақобат муҳитида корхоналарни ривожлантиришнинг мосланувчан стратегиясини шакллантиришга қодир янги авлод менежерларини жалб қилмасдан туриб бизнесини корпоратив бошқариш вазифаларини бажариб бўлмайди.

Амалдаги қонунига биноан Ўзбекистон миллий корпоратив бошқарув модели тузилмаси 1-расмда к ў р с а т и л г а н .

Республикада фаолият кўрстаётган акциядорлик жамиятлари бошқарув

тузилмаси ўрганиш натижасида аниқландики, уларнинг ташкилий-иқтисодий фаолиятига давлат бошқарув органлари аралашуви
яьни устав фондининг турли сабабларга кўра ўзгартирилиш, мулкнинг бошқа шаклларига айланитрилиши, устав капиталида давлат улушининг юқорлиги каби сабаблар туфайли акциядорлик жамиятларини самарали ёки бозор иқтисодиёти талаблари даражасида бошқаришга ва унинг самарадорлигини оширишга йўл бермаяпти. Натижада акциядорлар умумий йиғилиши, кузатув кенгаши ва бошқа бошқарув органларнинг функцияларини амалда ижро органи бажармоқда. Бу эса ўз навбатида корхоналар иқтисодий ва молиявий мустақиллиги таъминланишига миллий молия бозорининг (капитал, қимматли қоғозлар, кўчмас мулк бозорлари) турли бўғинларини ривожлантириш ҳамда аҳолининг корхоналар капиталидаги иштирокини кенгайтиришга, ички бозорни турли маҳсулотлар билан тўлдириш ва маҳаллий корхоналарнинг рақобатбардошлик даражасини ошириш мақсадида рақобатдош бозор муҳитини яратишга, корхоналарга тўғридан-тўғри ва портфелли хорижий инвестицияларни жалб қилишга имконият бермаяпти.

Акциядорлик жамиятлари тажрибаси кўрсатдики, уларнинг капитлида давлат улушини кўпайтириш, турли сабаблар билан устав капитали ва мулк шакли ўзгартирилиши, турли шакилдаги ташқи бошқарув жорий этилиши акциядорлар моддий ва манавий манфатдорлигининг кескин сусайишига олиб келиши билан бирга амалда корпоратив бошқарув ривожланиши ва самарадорлигининг ошишига ҳамда акциядорлик жамиятларининг барқарор ривожланишига йўл бермади.

Такидланган муаммоларни ечиш мақсадида акциядорлик жамиятлар иқтисодий ва молиявий фаолиятига давлат бошқарув органлари аралашувни бутунлай чеклаш, устав капиталидаги давлат улушини давлат тассаруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш, хўжалик юритувчи субъектлар тўлиқ эркин фаолият юритишни таъминловчи иқтисодий механизмлар ишлаб чиқиш ва жорий этиш, акциядорлик жамиятлари бошқарувини сифат жиҳатдан тубда такомиллаштиришни амалга ошириш лозим.

Бунинг учун республикада корхоналарни бошқаришнинг мустақил институтитларни шакллантириш ва ривожлантириш, акциядорлик жамиятлари кузатув кенгаши таркибига камида 35-40 фоизини танлов асосида жалб этилган юқори малакали менежерларни киритиш, ижро органи талабгорларнинг жамиятни иқтисодий-ижтимой ривожлантириш дастурлари танлов асосида 5 йил муддатга тайинлашни амалга ошириш ва фаолияти натижалари бўйича уларнинг моддий манфатдорлигини ва жавобгарлигини кучайтириш орқали самарадорли корпоратив бошқарувни жорий этиш мумкин.

Хулоса ва таклифлар.

“Корпоратив бошқарув” ва “ Менежмент” тушунчалари бошқарувнинг турли даражаларида қўлланиладиган ва бир-биридан фарқ қиладиган механизмлардир.

Хўжалик юритувчи субъектлар мулки дахилсизлги ва иқтисодий

эркинлиги таъминланиши.

Акциядорлик жамиятлари устав капиталидаги давлат улушини давлат тассаруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш.

Республикада корхоналарни профессионал бошқариш институтитларни шакллантириш ва ривожлантириш.

Танлов асосида жалб этилган юқори малакали менежерларни акциядорлик жамиятлари кузатув кенгаши таркибига киритиш.

Акциядорлик жамиятни иқтисодий-ижтимой ривожлантириш дастурлари танлови асосида талабгорлардан ғолибини 5 йил муддатга ижро органига тайинлаш.

Фойдаланилган адабиётлар

1 Grandmont, Renato; Grant Gavin; and Silva, Flavia. “Beyond the Numbers-Corporate Governance: Implications for Investors”. Deutsche Bank.

2 Erbiste, Bruno. “Corporate Governance in Brazil: Is There a Link Between Corporate Governance and Financial Perfomance in the Brazilian Market? ABN AMRO Asset Management.

3. Иванова Е. А., Шишикина Л.В. Корпоративное управление. «Ростов н/Д.: Феникс», 2007.

4. Қурбонов Х.А. Корпоративные финансы Т.: «Консаудитин-форм». 2007й. 6б.

5. Суюнов Д., Хошимов Э. А. Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув самарадорлигини баҳолашнинг методологик жиҳатлари “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2018 йил 2/2018 (№ 00034) www.iqtisodiyot.uz.

B.M.Abdumannonov - SamISI, “Menejment” kafedrasi assistent-stajyori

SHAXS TEMPERAMENTI VA UNING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada shaxs temperamenti va uning xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. “Temperament” tushunchasini tahlil qilishning tarixiy yondashuvlari, shuningdek, temperamentlarning turli tasniflari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *temperament, temperamentlar tasnifi.*

Аннотация. *В статье рассматривается темперамент личности и его характеристики. Анализируются исторические подходы к анализу понятия «темперамент», а также различные классификации темпераментов.*

Ключевые слова: *темперамент, классификация темпераментов.*

Abstract. *The article examines personality temperament and its characteristics. Historical approaches to the analysis of the concept of “temperament” are analyzed, as well as various classifications of temperaments.*

Key words: *temperament, classification of temperaments.*

Ma’lumki, er yuzidagi mavjud insonlar orasida barmoq izlari bir xil bo‘lgan odamlar yo‘q va daraxtda ham mutlaqo bir xil barglar yo‘q. Xuddi shu tarzda,

tabiatda mutlaqo bir xil insoniy shaxslar mavjud emas - har bir insonning shaxsiyati o‘ziga xosdir. Biroq, inson ma’lum bir shakllangan shaxs sifatida dunyoga kelmaydi. U asta-sekin shakllanib boradi, ammo inson shaxs bo‘lishidan oldin ham individual ruhiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bu ruhiy xususiyatlar juda konservativ va barqarordir. Ular har bir insonda o‘ziga xos ruhiyatni shakllantiradi, keyinchalik uning xususiyatlariga qarab, faqat shu shaxsga xos bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar o‘sib boradi. Bu shuni anglatadiki, bolaning ruhiyati har qanday chizgilar tushirilishi mumkin bo‘lgan silliq taxtaga o‘xshamaydi va bolani tarbiyalash, shuningdek, o‘rgatish jarayonida uning tug‘ilishdan boshlab ega bo‘lgan xususiyatlariga tayanish kerak. Bu xususiyatlar barcha uchun farq qiladi. Odamlarning xulq-atvorini, qanday mehnat qilishini, o‘qishini va dam olishini, tashqi ta’sirlarga qanday munosabatda bo‘lishini, quvonch va qayg‘ularni qanday boshdan kechirishini kuzatar ekanmiz, biz, shubhasiz, odamlar o‘rtasidagi katta individual farqlarga e’tibor beramiz. Ba’zilari tez, jo‘shqin, shiddatli, boshqalari esa, aksincha, sekin, xotirjam va og‘ir-bosiq bo‘lishadi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu farqlar shaxsning mazmuniga emas, balki ba’zi tashqi ko‘rinishlarga tegishli hisoblanadi. Bu farqlar “temperament” tushunchasini tavsiflaydi.

Temperament - bu shaxsning psixologik jarayonlari dinamikasida reaksiya tezligi va kuchliligida, hayotining emotsional ohangida namoyon bo‘ladigan tipologik xususiyatlar yig‘indisidir. Mazkur maqolada temperament tushunchasi ochib berilgan bo‘lib, uning xususiyatlari va turlarini tavsiflash, shuningdek, temperamentning inson faoliyatida va individual faoliyat uslubini shakllantirishda qanday rol o‘ynashi o‘z aksini topgan.

Temperament muammosi yigirma besh asr davomida insoniyatni band etib keladi. Unga qiziqish odamlar o‘rtasidagi individual farqlarning dalillari bilan bog‘liq. Har bir insonning ruhiyati o‘ziga xosdir. Uning o‘ziga xosligi organizmning biologik va fiziologik tuzilishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari bilan ham, ijtimoiy aloqalar va shartnomalarning o‘ziga xos tarkibi bilan ham bog‘liq. Shaxsning biologik jihatdan aniqlangan quyi tuzilmalariga, birinchi navbatda, temperament kiradi.

Temperament haqida gapirganda, ular odamlar o‘rtasidagi juda ko‘p ruhiy farqlarni - mulohazalik, intensivlik, his-tuyg‘ularning barqarorligi, emotsional sezgirlik, harakat tezligi, energiya va ruhiy hayot, xatti-harakatlar va faoliyatning boshqa dinamik, individual barqaror xususiyatlaridagi farqlarni anglatadi. Shunga qaramay, temperament bugungi kunda munozarali va hal qilinmagan muammo bo‘lib qolmoqda. Biroq, muammoga yondashuvlarning xilma-xilligi bilan, olimlar va amaliyotchilar temperament - bu shaxsiyat ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanadigan biologik asos ekanligini tan olishadi. Temperament asosan tug‘ma xarakterdagi xatti-harakatlarning dinamik tomonlarini aks ettiradi, shuning uchun temperamentning xususiyatlari insonning boshqa ruhiy xususiyatlariga nisbatan eng barqaror va doimiydir. Temperamentning eng o‘ziga xos xususiyati shundaki, ma’lum bir shaxsning turli xil xususiyatlari bir-biri bilan tasodifiy qo‘shilmaydi, balki tabiiy ravishda bir-biri bilan bog‘lanib, ma’lum bir tizimni tashkil etadi.

Shunday qilib, temperament deganda shaxsning aqliy faoliyati dinamikasini belgilovchi, uning mazmuni, maqsadlari, motivlaridan qat’iy-nazar, turli xil

faoliyatda teng ravishda namoyon bo‘ladigan, balog‘at yoshida va o‘zaro bog‘liqlikda doimiy bo‘lib qoladigan psixikaning individual o‘ziga xos xususiyatlari tushunilishi kerak.

Temperament (Lotincha - Temperamentum - qismlarning to‘g‘ri nisbati) - bu aqliy faoliyat dinamikasining turli tomonlarini tavsiflovchi barqaror individual xususiyatlarning tabiiy munosabati. Temperament kontseptsiyasi qadimgi yunon shifokori **Gippokrat**[7]ning (miloddan avvalgi VI asr) ta’limoti asosida vujudga kelgan bo‘lib, u go‘yoki inson tanasini tashkil etuvchi to‘rtta elementning nisbati jismoniy rivojlanish jarayonini belgilaydi, deb ta’kidlagan.

Temperamentning xususiyatlari - aqliy jarayonlarning individual sur’ati va ritmi, hissiyotlarning barqarorlik darajasi, irodaviy harakatlarning intensivligi va boshqalar, aqliy faoliyatning barcha jihatlariga taalluqlidir. Aqliy faoliyat dinamikasi, shuning uchun temperamentning yuqorida qayd etilgan xususiyatlari boshqa psixologik holatlar - kayfiyat, faoliyat motivlari, vazifa va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, temperamentning xususiyatlari ko‘p yillar davomida, ko‘pincha butun hayot davomida saqlanib turadigan eng barqaror individual xususiyatlardir va temperamentga bog‘liq bo‘lmagan dinamik xususiyatlar ancha barqaror emas.

Temperamentlarning tasnifi

Temperamentning tabiiy ravishda o‘zaro bog‘liq xususiyatlarining har xil birikmalari temperament turlari deb ataladi. Psixologiyada temperament turlarining Gippokrat tasnifidan foydalanish odatiy holdir: sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik.

Insonning temperamenti haqidagi g‘oya uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari asosida shakllanadi.

Xoleriklar - asab tizimi qo‘zg‘alishi ustunligi bilan belgilanadigan, natijada u juda tez, ko‘pincha o‘ylamasdan reaksiyaga kirishadigan, o‘zini sekinlashtirishga yoki ushlab turishga imkon topa olmaydigan, sabrsizlik, shiddatlilik, keskinlikni ko‘rsatadigan odamdir. Xolerik insonning asab tizimi nomutanosibligi tufayli faoliyati va kuchining tsiklik o‘zgarishini oldindan belgilab beradi. U o‘z ishini ishtiyoq va fidoyilik bilan bajaradi. Uning kayfiyati va energiyaning ijobiy davrlarining salbiy pasayishi va tushkunlik davrlari bilan almashinishi notekis xatti-harakatlar va farovonlikni keltirib chiqaradi.

Sangvinikar - kuchli, muvozanatli, harakatchan asab tizimiga ega, reaktsiya tezligi yuqori, uning harakatlari o‘ychan, quvnoq, shuning uchun u hayot qiyinchiliklariga yuqori qarshilik bilan ajralib turadi. Uning asab tizimining harakatchanligi his-tuyg‘ularning, qiziqishlarining, qarashlarining o‘zgaruvchanligini va yangi sharoitlarga yuqori moslashuvchanligini belgilaydi. U xushmuomala odam, yangi odamlar bilan osongina tanishadi va shuning uchun u muloqot va mehr-muhabbatda doimiylik bilan ajralib turmasa ham, keng tanishlar doirasiga ega. U samarali mehnatkash, lekin qiziqarli ishlar ko‘p bo‘lgandagina,

[7] **Gippokrat** yoki **Hippokrates** (qadimgi yunoncha: *Ἱπποκράτης*, lotincha: *Hippocrates*) (mil. av. 460, Kos oroli - 377, Fessaliya), Buqrot, Abuqrat — yunon vrachi, ilmiy tibbiyot asoschilaridan biri. G. Yunonistonda mashhur bo‘lgan shifokor gippokratlar sulolasining o‘n sakkizinchi avlodi.

doimiy hayajon bilan ishlaydi. Stressli vaziyatda u “sher reaktsiyasini” namoyon etadi, ya’ni faol va o‘ylangan holda o‘zini himoya qiladi, vaziyatni normallashtirish vazifasini oladi.

Flegmatiklar - kuchli, muvozanatli, ammo inert asab tizimiga ega bo‘lgan odam, buning natijasida u sekin reaksiyaga kirishadi, sukut saqlaydi, his-tuyg‘ulari sekin paydo bo‘ladi, yuqori ishlash qobiliyatiga ega, kuchli va uzoq davom etadigan qo‘zg‘atuvchilarga va qiyinchiliklarga yaxshi qarshilik ko‘rsatadi, lekin kutilmagan vaziyatlarda tezda reaksiyaga kirisha olmaydi. U egallagan ko‘nikmalari va stereotiplaridan voz kecha olmaydi, odatlarni, tartiblarni, ish, do‘stlarni o‘zgartirishni yoqtirmaydi, yangi sharoitlarga qiyin va sekin moslashadi. Kayfiyati barqaror va bir tekis. Jiddiy muammolar bo‘lsa, flegmatik odam tashqi tomondan xotirjam bo‘lib qoladi.

Melankoliklar - zaif asab tizimiga ega bo‘lgan, hatto zaif stimullarga nisbatan sezgirligi yuqori bo‘lgan va stressli vaziyatlarda melanxolik odamning faoliyati natijalari tinch vaziyatga nisbatan yomonlashishi mumkin. Sezuvchanlikning oshishi tez charchashga va ishlashning pasayishiga olib keladi. Kichik bir sabab ham xafagarchilik va ko‘z yoshlarga olib kelishi mumkin. Kayfiyati juda ham tez o‘zgaruvchan, lekin odatda melanxolik odam yashirinishga harakat qiladi, o‘z his-tuyg‘ularini tashqi ko‘rinishda ko‘rsatmaydi, boshidan kechirganlari haqida gapirmaydi, ko‘pincha qayg‘uli, tushkunlikka tushadi, o‘ziga ishonchi yo‘q, tashvishlanadi va nevrotik kasalliklarga duch kelishi mumkin. Biroq, ular juda sezgir asab tizimiga ega, ular ko‘pincha badiiy va intellektual qobiliyatlarga ega.

Temperament insonning mehnat unumdorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ruhiy faktordir. Shunday qilib, sog‘lom odamning maxsus harakatchanligi, agar ish uni tez-tez bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tishni talab qilsa, qo‘shimcha samara berishi mumkin, qaror qabul qilishda samaradorlik, monotonlik va tartibli faoliyat, aksincha, uni tez harakat qilishga olib keladi.

Flegmatik va melanxolik odamlar, aksincha, qat’iy tartibga solish va monoton ish sharoitida xolerik va sangviniklarga qaraganda ko‘proq mahsuldorlik va charchoqqa chidamlilik ko‘rsatadilar. Xulq-atvorli muloqotda har xil turdagi temperamentga ega bo‘lgan odamlarning reaktsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini oldindan bilish va ularga adekvat javob berish lozim.

Biz temperament xulq-atvorning mazmunli xususiyatlarini emas, balki faqat dinamikani belgilaydi, deb ta’kidlaymiz. Rus psixologi **I.P.Pavlov**[8] oliy asabiy faoliyatning yana uchta “sof insoniy” turini aniqladi: aqliy, badiiy va o‘rtacha. Fikrlash turining vakillari (chap yarim sharning miyasining ikkinchi signal tizimining faoliyati ustunlik qiladi) juda oqilona, hayot hodisalarini batafsil tahlil qilishga, mavhum mantiqiy fikrlashga moyil. Ularning his-tuyg‘ulari mo‘’tadillik, vazminlik bilan ajralib turadi va odatda ong filtridan o‘tgandan keyin paydo

[8] **Ivan Petrovich Pavlov** 1849-yil 14-sentyabrda Ryazanda tug‘ilgan. 1936-yil 27-fevralda Leningradda vafot etgan. Rus fiziologi, klassik konditsionerlik bo‘yicha ishlari bilan mashhur. U fiziologiya va psixologiya sohasidagi tadqiqotlari bilan psixofiziologiya va eksperimental psixologiya sohalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan olimdir. U ikkala fanning asoschilaridan biri hisoblanadi. 1904-yilda fiziologiya va tibbiyot sohasida Nobel mukofotiga sazovor bo‘ladi.

bo‘ladi. Ushbu turdagi odamlar odatda matematika, falsafaga qiziqishadi va ular ilmiy faoliyatni yaxshi ko‘radilar. Badiiy tipdagi odamlar (o‘ng yarim sharning miyasining signal tizimining faoliyati ustunlik qiladi) hayoliy tafakkurga ega bo‘lib, u katta emotsionallik, tasavvurning yorqinligi, voqelikni idrok etishning o‘z-o‘zidan va ravshanligi bilan ajralib turadi. Ular, birinchi navbatda, san’at, teatr, she’riyat, musiqa, yozuv va badiiy ijodga qiziqishadi. Ular keng muloqot doirasiga intilishadi, ular chin liriklardir. Aksariyat odamlar (80%) “oltin o‘rtacha”, o‘rtacha turga tegishli. Ularning xarakterida ratsional yoki hissiy tamoyil biroz ustunlik qiladi va bu erta bolalikdan tarbiyaga, hayot sharoitlariga bog‘liq.

Zamonaviy tadqiqotchilar o‘ng va chap yarim sharlar o‘ziga xos funktsiyalarga ega ekanligini tasdiqladilar va u yoki bu yarim sharning faoliyatining ustunligi insonning individual xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Mashhur psixolog **Carl Gustav Jung**[9] odamlarni shaxsiyatiga ko‘ra ekstrovert va introvertlarga ajratadi. Ekstrovertlar ochiqko‘ngil, faol, optimistik, harakatchan, ular yuqori asabiy faoliyatning kuchli turiga ega va temperamenti bo‘yicha ular sangvinik yoki xolerikdir. Introvertlar beg‘araz, o‘zini tuta olmaydi, hammadan uzoqda, ularning harakatlari o‘z g‘oyalariga asoslanadi, qaror qabul qilishga jiddiy yondashadi va his-tuyg‘ularini boshqaradi. Introvertlarga flegmatik va melankolik odamlar kiradi. Biroq, hayotda mutlaqo sof ekstrovertlar yoki introvertlar kamdan-kam uchraydi. Har birimiz har ikkala xususiyatlariga egamiz, bu asab tizimining tug‘ma fazilatlariga, yoshiga, tarbiyasiga, hayotiy sharoitlarga bog‘liq [5, p. 67-69]. Qizig‘i shundaki, ekstrovertlarda etakchi yarim shar o‘ng yarim shar bo‘lib, u qisman hatto tashqi ko‘rinishda ham o‘zini namoyon qilishi mumkin, ularning chap ko‘zlari rivojlangan, ya’ni chap ko‘z yanada ochiq va mazmunli bo‘ladi (odamning nervlari kesishadi, ya’ni o‘ng yarim shardan tananing chap yarmiga va chap yarim shardan tananing o‘ng yarmiga), introvertlarda esa etakchi yarim shar - chap yarim shar hisoblanadi. Temperament umumiy yoki maxsus qobiliyatlar darajasini belgilamaydi. Bir xil temperamentli odamlar yuqori yoki zaif qobiliyatli bo‘lishi mumkin va aksincha. Har xil temperamentli odamlar bir sohada muvaffaqiyatli ishlashlari mumkin. Kasbiy faoliyatning ba’zi holatlarida temperamentning ma’lum xususiyatlari unda muvaffaqiyatga erishishga yordam berishi mumkin, boshqalarda xuddi shu faoliyat ostida unga xalaqit beradi. Agar faoliyat talablari temperamentning har qanday xususiyatiga zid bo‘lsa, u holda odam o‘zining temperamentiga eng mos keladigan va ma’lum sharoitlarda temperamentning salbiy ko‘rinishlarining ta’sirini engishga yordam beradigan shunday texnika va usullarni tanlaydi. Faoliyat jarayonida shaxs tomonidan ishlab chiqilgan bunday muvaffaqiyatli individual texnika va usullarning yig‘indisi uning individual faoliyat uslubini tavsiflaydi. Muayyan individual uslubga ega bo‘lish temperamentning o‘zini o‘zgartirmaydi, chunki individual uslub - bu uning temperamentini hisobga olgan holda, inson uchun eng qulay bo‘lgan faoliyat variantlari to‘plami. Temperament turini bilish va muayyan shaxs yoki odamlar

[9] **Karl Gustav Yung** (nem. Carl Gustav Jung [ˈkarl ˈgʊstaf ˈjʊŋ]; 1875-yil 26-iyul, Keesvil, Turgau, Shveytsariya – 1961-yil 6-iyun, Küsnacht, Tsyurix, Shveytsariya) - shveytsariyalik psixolog, o‘qituvchi. 1907-yildan 1912-yilgacha u Zigmund Freydning yaqin hamkori bo‘lgan.

guruhining turini aniqlash qobiliyati inson shaxsiga ma’lum bir shaxsga yondashuvni topishga va u bilan jamoada munosabatlarni yaxshiroq o‘rnatishga yordam beradi. Temperament - bu qo‘zg‘aluvchanlik darajasini va uning atrofdagi voqelikka munosabatini tavsiflovchi inson shaxsiyatining aqliy xususiyatlari to‘plami. Inson shaxsiyatining psixik xususiyatlari insonning ijtimoiy faoliyati davomida namoyon bo‘ladigan turli xil xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Faoliyat dinamikasiga ta’sir qiluvchi temperament uning unumdorligiga ta’sir qilishi mumkin.

Har xil faoliyat turlarida temperamentning roli har xil. O‘quv faoliyatida va ommaviy kasblarda (tokar, mexanik, to‘quvchi, sotuvchi, shifokor, o‘qituvchi, muhandis) muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo‘lgan va ma’lum bir shaxsda zaif ifodalangan temperamentning ba’zi xususiyatlari boshqa xususiyatlar va usullar bilan qoplanishi mumkin. Faoliyatning individual uslubini shakllantirishda temperamentning xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Batarshev A.V. Temperament va xarakter diagnostikasi. Sankt-Peterburg, Pyotr 2013. - 168 b.

2. Zeer E.F. Professional halokat psixologiyasi. M., Biznes kitobi 2013. – 240 b.

3. Keyn S. Xarakter xususiyatlaridan qanday foydalanish kerak. M., Mann 2013. - 384 p.

4. Smirnov V.N. Ekstremal sharoitlarda xodimlarni boshqarish psixologiyasi. M., Akademiya 2013. – 256 b.

5. Stolyarenko A.M. Umumiy va professional psixologiya. M., 2013. – 384 b.

10. Pryajnikov I.S. Mehnat psixologiyasi. M., Akademiya 2013. – 480 s.

Ш.У.Ташматов – СамИСИ Менежмент кафедраси катта ўқитувчиси, доцент в.б.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИНТЕРНЕТ САВДО ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация: *Ушбу мақолада Ўзбекситонда интернет савдо хизматларининг ривожланиши, унинг ўзига хос жиҳатлари ҳамда афзалликлари кўриб чиқилган.*

Калит сўзлар: *рақамли иқтисодиёт, яшил иқтисодиёт, интернет савдо, интернет савдо хизматлари, платформалилик, киберфикация, омниканаллик, интернет дўкон.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается развитие услуг интернет-торговли в Узбекистане, ее особенности и преимущества.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, зеленая экономика, интернет-торговля, услуги интернет-торговли, платформерность, киберфикация, омниканальность, интернет-магазин.*

Abstract: *This article examines the development of Internet trade services in*

Uzbekistan, its specific aspects and advantages.

Keywords: *digital economy, green economy, internet trade, internet trade services, platformability, cyberfication, omnichannel, internet store.*

Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни, хусусан интернет савдо хизматларини ривожлантириш бугунги куннинг энг муҳим масалаларидан бири сифатида қаралмоқда. Чунки рақамли иқтисодиёт, хусусан интернет савдо “яшил” иқтисодиёт ва барқарор ривожланишнинг пойдеворини ташкил этади. Бундай шароитда, савдо хизматларининг интернет технологиялари асосида амалга оширилиши, аҳоли ўртасида бандлик, турмуш даражаси ва фаровонлигининг ортиши, вақтни тежаш асосида ижтимоий қиймат яратиш интернет тармоғи орқали савдо хизматларини ривожлантириш заруратини янада кучайтиради.

Интернет савдо хизматларини тез суръатлари билан ривожлантириш савдо соҳасида бир қатор устунликларни таъминлаб беради. Савдо хизматларини кўрсатувчи хўжалик субъектлари соҳага жалб этилган барча ресурслардан, айниқса, меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиши учун реал шарт-шароит яратилади.

Интернет савдони жорий этишнинг дастлабки босқичларида янги технологияларни яратиш ва қўллаш катта сарф-харажатлар ҳисобига амалга оширилишига қарамасдан, кейинги босқичларда сарф-харажатларга нисбатан даромадлар анча тез суръатлар билан ошиб боради. Чунки интернет савдода анъанавий савдога нисбатан фарқли ўлароқ, кейинги қўшилган қиймат даромадлилигининг пасайиб бориш қонуни амал қилмайди. Электрон муҳит яратиш билан боғлиқ дастлабки амалга оширилган катта сарф-харажатлар кейинги босқичлар ҳисобидан қопланади. Натижада, савдо корхоналарининг фойдаси кўпайиш тенденциясига эга бўлади. Шу билан бирга, ортиқча заҳиралар тўпланишининг олди олинади, товар заҳиралари танқислигига барҳам берилади. Бундан ташқари, савдо корхоналарида маркетинг билан боғлиқ шарт-шароитлар сезиларли даражада яхшиланиб, у бўйича сарф-харажатлар қисқаради.

Интернет савдо аҳоли учун ҳам қатор афзалликлар беради, истеъмол харажатлари қисқариб, товар хариди билан боғлиқ вақт тежалади, товарларни излаб топиш жараёнлари анча тезлашади, куннинг исталган вақтида савдо дўконларига талаб билан мурожаат қилиш ва ўз эҳтиёжларини қондириш имконияти туғилади.

Интернет савдо хизматларини ривожлантириш асосида комплекс хизматлар кўрсатувчи экотизим яратиш имконияти пайдо бўлади. Экотизимлар “яшил” иқтисодиётнинг муҳим таркибий қисми, барқарор ривожланишнинг пойдевори ҳисобланади.

Назарий тадқиқотлар шуни кўрсатдики, иқтисодиётнинг турли тармоқ ва соҳаларидаги рақамлаштириш жараёнининг умумий томонлари билан бирга, тармоқ ёки соҳа хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда фарақли жиҳатлари ҳам мавжуд. Бизнинг фикримизча, савдо хизматлари соҳасидаги рақамлаштиришнинг ўзига хос хусусиятлари қуйидагиларда яққол намоён бўлади:

1. Платформалилик. Савдо соҳасидаги рақамлаштириш жараёни асосан рақамли платформалардан кенг фойдаланишга асосланади. Ўз моҳиятига кўра, ҳар қандай интернет-дўкон рақамли платформани ташкил этади. Шу билан бирга, рақамли платформанинг технологик, бошқарув ва инновацион томонлари мавжуд. Технологик нуқтаи назардан у рақамли муносабатларнинг ихтисослашган тизимини ташкил этса, бошқарув жиҳатидан у юқори технологияли бизнес модели бўлиб, қиймат яратади ва шу тариқа виртуал истеъмол бозорларида бизнес алоқалари иштирокчилари ўртасида ўзаро манфаатли алмашинувни осонлаштиради. Рақамли платформани инновацион мувоффақият сифатида ҳам қараш мумкин, чунки у бизнес жараёнларни оптималлаштириш ва савдо фаолияти иқтисодий самарадорлигини ошириш орқали транзакцион харажатларни сезиларли даражада камайтирувчи ва қўшимча қиймат занжирини шакллантирувчи интеграциялашган ахборот тизимини ифодалайди.

2. Рақамли автоматлаштириш ва ақлли савдо-технологик маконни шакллантириш. Савдо соҳасида рақамли автоматлаштириш деганда турли жисмоний қурилмаларнинг фаолиятини интеграциялаш ва бир мақсадга йўналтириш, яъни Интернет буюмлари (IoT) технологиясидан фойдаланиш назарда тутилади. Ақлли савдо-технологик макон – бу савдо соҳасидаги (жисмоний ёки рақамли) майдони бўлиб, у турли датчик, сенсор, рақамли индикаторлар билан жиҳозланган ва маълумотларни йиғиш, саралаш, сақлаш ва узатиш ҳамда предикатив бизнес-таҳлил асосида янги ахборотларни ишлаб чиқишга қобилятига эга.

3. Киберфикация савдога кибер-жисмоний тизимларни, яъни ахборот-таҳлилий ва жисмоний активларнинг ягона комплексини улар ўртасида чуқур алоқани ўрнатиш асосида жорий қилишни назарда тутади. Бу ташқи муҳитдан ахборотларни олиш ва уларни бошқарув жараёнини оптималлаштириш ҳамда савдо-технологик жараёнини автоматлаштириш учун қўллаш имконини беради. Кибер-жисмоний савдо муҳити савдо ва технологик маконда сенсорлар ва актуаторлар тармоқларини кибермакон ёки виртуал муҳит билан интеграциялашуви орқали яратилади.

4. Омниканаллик. Ушбу тенденция истеъмолчилар билан муносабатларнинг турли каналларини умумий CDP (Customer Data Platform) малумотлар базасига бирлаштиришда намоён бўлди. Интернет савдода омниканал стратегияси анча вақтдан буён ўта муҳим ҳисобланади, чунки харидорларнинг йўли интернет дўкон веб-сайтига кириш билан якунланмайди, балки улар ижтимоий тармоқлардаги интернет дўкон саҳифаларини кузатади (товар ҳақидаги бошқаларнинг қолдирган изоҳларини ўқийди), нархларни бошқа ўхшаш товарлар нархлари билан солиштиради ва ҳоказо.

5. Алоҳида шахсга йўналганлик. Илгари амалга оширилган харидлар асосида индивидуал (алоҳида шахсга йўналтирилган) таклифлар 2023 йилнинг интернет савдо хизматлари соҳасидаги кучли тенденциясига айланди. Рақамли технологиялар туфайли катта миқдорда харидорлар тўғрисидаги маълумотларни тўплаш мумкин. Бу маълумотлар асосида

харидор эҳтиёжларини олдиндан билиб, унга мос товарлар таклифи, рағбатлантирувчи тадбирлар, промокодлар бўйича зарурий ахборотлар берилади.

Бизнинг фикримизча, савдо соҳасида рақамли трансформацияларнинг ҳал қилувчи драйверларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- замонавий харидорнинг ҳатти-харакатидаги (онлайн харидларга мойилликнинг ошиши натижасида келиб чиқаётган) ўзгаришлар (eMarketer маълумотларига кўра, 2022 йилда онлайн харидорлар сони 2,56 миллиардни ташкил этди);

- рақамли ва жисмоний харидлар ўртасидаги чегараларнинг (виртуал ва кенгайтирилган реаллик технологияларининг қўлланиши натижасида) деярли йўқолиши;

- таъминот занжиридаги муаммолар (тезлик, вақт ва шаффофлик асосий омиллари ҳисобланган таъминот занжири ҳақиқатда ҳал қилувчи аҳамиятга эга, лекин кўпинча рақамлаштирилмаган);

- рақамли технологиялар бўйича етакчилар томонидан рақобатнинг кўчайтирилиши;

- COVID-19 пандемияси туфайли юзага келган ҳолат.

Мутахасисларнинг фикрича, тўртинчи саноат инқилобининг ўзига хос хусусияти виртуал ва реал дунё ўртасида чегараларнинг йўқолиб кетиши ҳисобланиб, ҳозирги кунда жаҳон иқтисодиёти унга ўтиб бормоқда. Тўртинчи саноат инқилобининг асосини “шаффоф” рақамли технологиялар, биотехнологиялар ҳамда кибер-жисмоний тизимларнинг кенг жорий этилиши ташкил этиб, бу тармоқли ривожланиш парадигмасини тубдан ўзгартириб юборади.

Бундай шароитда савдо соҳаси чуқур сифатий ва таркибий ўзгаришларни бошидан кечирмоқда. Янги парадигма фан-техника тараққиёти таъсири ва технологик тартиботнинг ўзгариши натижасида билимлар ва ахборот устуворлиги, тизимли ва кенг қамровли интеграция, боғлиқлик, тармоқлараро бизнес ҳамкорликнинг кучайиши, шунингдек, рақамли, медиа ва бошқа бир-бирига кириб борувчи сўнгги авлод технологиялари конвергенцияси каби тамойиллардан келиб чиқади.

Интернет дўкон фаолиятининг муваффақиятли амалга ошиши қуйидагиларга боғлиқ:

– харидорлар мазкур манба ёки сайт орқали сотилаётган товар сифатига ишонч ҳосил қилади. Товар сифатини нуфузли интернет-дўкон ёки чакана савдо корхонаси орқали бевосита кафолатлаш мумкин. Бундай ҳолатда истеъмолчиларнинг товарга нисбатан ҳиссиётлари ва харид борасидаги ҳатти-ҳаракати сифат даражасидан устун бўлади ва у харидни амалга оширишга қарор қилади;

– истеъмолчилар харид тажрибасига эга бўлган ҳолда товарларнинг номи, тури, савдо белгиси ва товар атамасидан яхшигина хабардор эканлиги. Бундай ҳолатда истеъмолчилар учун товар ҳақида маълумот бериш шарт эмас, фақатгина уларга харид учун қарор қабул қилишга кўмаклашиш талаб этилади. Бу ҳолат айниқса антиквар ва тор истеъмолчилар гуруҳига

мўлжалланган эксклюзив товарлар соҳасида жуда муҳимдир. Тадқиқот жараёнида ўтказилган сўровлар натижасида шу нарса аниқландики, бугунги кунда аксарият истеъмолчилар товарлар тўғрисидаги маълуомтларни интернет – дўконлар орқали билиб оладилар ҳамда анъанавий чакана савдо дўконлари орқали танлаб харид қиладилар. Мазкур жараёнда интернет-дўконнинг товар ҳақидаги маркетинг ахборотлари истеъмолчиларнинг харидни амалга оширишга қарор қилиши учун сабабчи бўлувчи асосий омил эканлиги аниқланди;

– товар ҳақида сотувчи сайтида етарли даражада маълумотлар мавжуд бўлиши. Интернет харидгача бўлган жараён учун ўта муҳим бўлган маркетинг ахборотлари манбаи ҳисобланади. Агарда чакана савдо дўконида товарларнинг нархи аниқ кўрсатиб қўйилган бўлса, интернет сайтларида бу етарли даражада кўрсатилмайди, товарнинг техник тавсифи ҳам истеъмолчилар учун махсус билим талаб этадиган маълумотларни ўз ичига олади. Бу ҳам ўз-ўзидан интернет маълумотлари асосида истеъмолчиларнинг чакана савдо дўконларига йўналтирилаётганлигининг яққол далилидир;

– истеъмолчилар интернет-дўкон орқали харид қилинган товарларни олишдан бош тортиши ёки алмаштириб беришни талаб этиши мумкин. Шу боисдан ҳам интернет-дўкон орқали харид амалга оширилганда уларни алмаштириб бериш ёки қайтариб олиш имкониятлари ҳам яратилиши зарур;

– истеъмолчилар товарларни жисмонан кўздан кечириш ёки уларни ушлаб кўрмасдан харид қилинганда бирор жиҳати эътибордан четда қолиб кетганлигини ҳис қилади. Ушбу ҳолатлар муҳим бўлмасада интернет-дўконлар ҳар доим истеъмолчиларга энг қиммат ёки энг таниқли товарларни таклиф қилиш ғоясидан аста-секинлик билан воз кечишлари, тобора оммавий товарлар савдосига ўтиб боришлари мақсадга мувофиқдир;

– товар бозорларининг тўйиниши натижасида истеъмолчилар ҳам бунга мослашиб боради ва рационал харидорга айланади.

Адабиётлар рўйхати

1. Тарасова Е.Е. Инновации в коммерческой деятельности/Е.Е. Тарасова, Е.В. Матузенко, Ю.А. Наплекова // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. - 2018. - № 2(69). - С. 198-209. - ISSN 2223-5639.

2. Снитко Л.Т. Цифровая экономика как среда формирования конкурентных преимуществсетевых торговых организаций / Л.Т. Снитко, Л.В. Теплова, В.С. Патулов // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. - 2020. - № 1(80). - С. 24-34. - ISSN 2223-5639.

3. Сервисная экономика: проблемы, драйверы, отраслевые доминанты: коллективная монография / под редакцией Л.Б. Нюренбергер, И.Ю. Севрюкова. - Курск: Изд-во «Университетская книга», 2020. - 313 с.

Д.Ж.Абдуразаков – “Ипак йўли” туризм ва маданий мерос халқаро университети докторанти

ТУРИЗМ ҚИШЛОҚЛАРИДА СТРАТЕГИК БОШҚАРУВНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Аннотация: *Юртимизнинг турли ҳудудларида туризм қишлоқлари ташкил этилмоқда. Маҳаллий туристик ресурслардан унумлироқ фойдаланган ҳолда қишлоқ тараққиётини таъминлашга қаратилган бундай ихтисослашган туризм маҳаллалари Ўзбекистон учун янги амалиёт бўлиб ҳисобланади. Айни пайтда, қишлоқ ўзига хос иқтисодий тизим бўлиб, у ерда туризмни ривожлантириш стратегик режалаштириш ва бошқаришни талаб этади.*

Калит сўзлар : *қишлоқ туризми, туризм маҳалласи, туризмда стратегик бошқарув, маҳаллада ҳоким ёрдамчиси, маҳалла ўсиш нуқтаси*

Аннотация: *В разных регионах нашей страны создаются туристические деревни. Подобные специализированные туристические центры, направленные на обеспечение развития сельских территорий с более эффективным использованием местных туристических ресурсов, являются новой практикой для Узбекистана. В то же время сельская местность представляет собой уникальную экономическую систему, в которой развитие туризма требует стратегического планирования и управления.*

Ключевые слова: *сельский туризм, туристическое село, стратегическое управление в туризме, помощник хокима в махалле, точка роста махаллы*

Abstract*: Tourist villages are being created in different regions of our country. Such specialized tourist centers, aimed at ensuring the development of rural areas with more efficient use of local tourism resources, are a new practice for Uzbekistan. At the same time, the countryside is a unique economic system in which tourism development requires strategic planning and management.*

Key words : *rural tourism, touristic village, strategic management in assistant khokim at mahalla, mahalla growth point*

Ўзбекистоннинг туристик салоҳияти нафақат қадимий шаҳарлар балки туристлар мароқли дам олиши мумкин бўлган сўлим қишлоқ ва гўзал табиат манзараларига ҳам жуда бой бўлишига қарамасдан асосий туризм оқимлари айни пайтда асосан мавжуд тарихий-маданий меросга таянади.

Туристик хизматларни диверсификация қилиш ва туристларни маълум ҳудудда кўпроқ муддатга қолишини таъминлаш бугунги долзарб масалалардан биридир. Айниқса, қишлоқ ҳудудларидаги туристик ресурлардан кенгроқ фойдаланиш ва туристларни кўпроқ жалб этиш алоҳида аҳамият касб этади.

Сўнгги статистик маълумотларга кўра[10] 2023 йилда бутун республика

[10] Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳузуридаги Туризм қўмитаси маълумотлари асосида

бўйлаб 135та қишлоқ ва маҳаллалар “туризм маҳалласи” мақомини олиш учун ариза беришган бўлиб, уларда тайёргарлик ишлари давом этмоқда.

Кўриниб турганидек, Ўзбекистон ҳукумати бу масалани туризмга ихтисослашган махсус тематик қишлоқлар ташкил қилиш орқали ҳал қилишни мақсад қилган.

Бу борада Вазирлар маҳкамасининг 10.07.2020 йилдаги 433-қарорига мувофиқ “Фуқаролар йиғинларига "Туризм маҳалласи", "Туризм қишлоғи" ва "Туризм овули" мақомини бериш тартиби тўғрисида” НИЗОМ[11] қабул қилинган. Шунингдек, маҳалланинг “ўсиш нуқтаси”ни аниқлаш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлашга масъул бўлган “ҳоким ёрдамчиси” институти воситасида қишлоқда туризмни ривожлантириш кўзда тутилган.

Шунга қарамасдан, баъзи таниқли туристик масканларни ҳисобга олмаганда аксарият туризм қишлоқларида туристлар оқими жуда ҳам пастлигича қолмоқда. Айниқса, чет эллик туристларни бу қишлоқларга жалб этиш нисбатан қийин кечмоқда. Бунинг албатта объектив ва субъектив сабаблари мавжуд бўлиб, уларни диққат билан таҳлил қилиш талаб этилади.

Raqamlashtirish axborot inqilobining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida nafaqat ta’lim tizimi xizmatlar sohasidagi mexanizmiga mustahkam o‘rnashib oldi, balki ushbu mexanizmni, ta’limning mohiyati va xarakterini tubdan o‘zgartirdi. Zamonaviy sharoitda universitetlar talabalarga o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan maksimal darajada foydalanishni o‘rgatish majburiyatini oladi. To‘g'ri ta'lim strategiyasini ishlab chiqadigan universitetlar talabalar va professor-o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlar uchun ko‘plab qiziqarli yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar yordamida aniq natijalarga erishishning yagona yo‘li yo‘q. Individual o‘qituvchilarga raqamli texnologiyalar bilan ishlashning yangi usullarini sinab ko‘rish imkoniyatini berish va ularga kerakli yordamni berish orqali o‘qituvchilar malakasini oshirish kolleji o‘zining raqamli identifikatoriga ega bo‘lgan dinamik muassasaga aylanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022- yil 25 yanvardagi 2023-yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Muroja'atnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo‘yicha quyidagilarni aytib o‘tdi: “Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, oliy ta`lim xizmatlari bozorida raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida

boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim o`rin tutadi”[1].

Zamonaviy sharoitda universitetlar talabalarga o‘quv jarayonida raqamli texnologiyalardan maksimal darajada foydalanishni o‘rgatish majburiyatini oladi. To‘g'ri ta'lim strategiyasini ishlab chiqadigan universitetlar talabalar va professor-o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlar uchun ko‘plab qiziqarli yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturida ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash masalasi asosiy omillardan biri sifatida kiritilgan. U oliy ta`lim tizimida inson resurslari va ta'limning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi:

texnologiya bo‘yicha shaxsan ta'lim berish;

mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur bilimga ega mutaxassislar tayyorlanishi mumkin bo‘lgan ta’lim tizimini yaratish;

oliy ta’lim muassasalarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash;

raqamli iqtisodiyotni har tomonlama o‘rganish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy ilmiy va amaliy adabiyotlarni yaratish;

mehnat bozori mexanizmlarini ishlab chiqish;

elektron platforma texnologiyalaridan foydalangan holda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida milliy ekotizimlarni yaratish [2].

Shu bois respublikamizda raqamli iqtisodiyot dasturi yaratildi va muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ta’limni raqamlashtirishning eng muhim chorasi malakali kadrlar tayyorlash va raqamli axborot infratuzilmasini yaratish bo‘ldi. Shuning uchun har bir universitet o‘qituvchisi o‘z yo‘l xaritasini ishlab chiqdi, bu esa ta'lim uchun katta qiziqish uyg'otdi.

Mahalliy ta’lim tizimida zamonaviy oliy ta`lim xizmatlar bozorini raqamlashtirishni tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

- birinchidan, oliy ta’lim muassasalarini yuqori sifatli dasturiy ta’minot, ta’lim resurslaridan foydalanish imkonini beruvchi axborot tizimlari bilan jihozlash;

- ikkinchidan, bu talaba va o‘qituvchining bilvosita o‘zaro hamkorligini nazarda tutuvchi axborot (masofaviy) texnologiyalarni joriy etish;

- uchinchidan, ta’lim faoliyatini tashkil etish va o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi onlayn muloqotni tashkil etish imkonini beruvchi onlayn ta’lim (e-leaming) [3].

Raqamli ta'lim formatlarini joriy etish, shuningdek, ta'lim arxitekturasida murakkab o‘zgarishlarni, o‘qitishning odatiy shakllari va usullarida muqarrar o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Mahalliy oliy ta'limni modernizatsiya qilish muqarrar, u zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak, ammo innovatsiyalar xavfini hisobga olish va o‘z samaradorligini isbotlagan an’anaviy ta'lim texnologiyalaridan voz kechmaslik kerak. O‘zbekistonda samarali ta'lim muhitini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning muhim roli aniq, chunki ulardan foydalanish bilimlarni o‘zlashtirish darajasini oshirishga, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, bilimlarni qo‘llashga tayyorlikni shakllantirishga yordam beradi.

2022-yil yakunida “O‘zbekistonda zamonaviy raqamli muhit” loyihasi tadqiqotchilari ish beruvchilar, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalarini taqdim etdi. So‘rovda qatnashgan o‘qituvchilarning yarmidan ko‘pi va talabalarning deyarli 75 foizi onlayn ta’lim platformalari taqdim etayotgan imkoniyatlarni yuqori baholaydilar, ammo an’anaviy oliy ta’lim talabalar uchun ustuvor masala bo‘lib qolmoqda.[4]

Xulosa o‘rnida,oliy ta`limda raqamli xizmatlar bozorini rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to‘liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni yuritishni soddalashtirish, yangi innovatsion g'oyalarni takomillashuviga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Shu bilan birga bu rivojlanishning dastlabki bosqichlaridan biri sifatida Yangi O`zbekistonning raqobatbardosh kadrlarini shakllantirishda hal qiluvchi o`rin tutadi.

Adabiyotlar

1.http://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan shavkata_mirziyeev-25-01 -2020

2. Baxtiyorov I. O‘. (2022). Mamlakatimiz rivojlanishida raqamli texnologiyalarni tutgan ahamiyati.

3. Yuldoshev R.R. (2022). Digitalization of higher education: prospects and risks. Law and Practice 94-102.

4. Vaxabov A.V. Oliy ta’lim sifatini oshirishning xorij tajribasidan O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini isloh etishda foydalanish imkoniyatlari. // Oliy ta’lim sifati iqtisodiy diagnostikasi: jahon amaliyoti va milliy xususiyatlari. Res. ilm.-amal. konf. mater. to‘p.. – Namangan, 2022.

D.Sh.Nasriddinova - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Marketing” mutaxassisligi, mmri-123 guruh magistranti

OLIY TA’LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQOTLARINING O‘RNI

Annotatsiya: *Maqolada OTMlarning marketing tadqiqotlariga bo‘lgan ehtiyoji ko‘pincha bozorni tahlil qilish, uning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash, doimiy o‘zgaruvchan bozor omillarini aniqlash va kuzatish zarurati haqida bayon etilgan.*

Аннотация: *В статье описывается необходимость проведения маркетинговых исследований ВОУ, зачастую необходимость анализа рынка, выявления тенденций его развития, выявления и мониторинга постоянно меняющихся рыночных факторов.*

Abstract: *The article describes the need for marketing research of HEIs, often the need to analyze the market, identify trends in its development, identify and*

monitor constantly changing market factors.

Kalit so‘zlar: *OTM, marketing, marketing tadqiqotlari, bozor, intellektual, ta’lim, ta’lim xizmatlari, iste’molchilar.*

Ключевые слова: *ВОУ, маркетинг, маркетинговые исследования, рынок, интеллектуал, образование, образовательные услуги, потребители.*

Keywords: *HEI, marketing, marketing research, market, intellectual, education, educational services, consumers*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta’lim tizimining faoliyati takror ishlab chiqarishni ta’minlovchi ijtimoiy institut sifatida jamiyatning intellektual va madaniy salohiyati, vazifasini bajaradi.

Marketing tadqiqotlari - bu marketing ehtiyojlarini qondiradigan har qanday tadqiqot faoliyati, bu muayyan marketing muammosini hal qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish va prognoz qilish tizimi. Marketing tadqiqotlari korxona marketing faoliyatining har qanday tsiklining boshlanishi va mantiqiy yakuni bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu turdagi tadqiqotlarni o‘tkazishdan maqsad marketing qarorlarini qabul qilish bilan birga keladigan noaniqlikni kamaytirishdir.

Marketing tadqiqotlari ta’lim muassasasi va bozorlar, iste’molchilar, raqobatchilar va marketing muhitining boshqa elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Ular ta’lim muassasasi marketing faoliyatining barcha jihatlari bo‘yicha qaror qabul qilishda xavfni kamaytirishga imkon beradi[16].

Filipp Kotler yondashuviga ko‘ra, oliy ta’lim marketingi, belgilangan maqsadga erishishda maqsadli ta’lim xizmatlari bozorlarida qadryatlarni erkin ayirboshlashni yo‘lga qo‘yish uchun ishlab chiqilgan, puxta ta’riflangan dasturlarni tahlil etish, rejalashtirish, bajarish va ularning ijrosini nazorat qilish hisoblanadi[17].

So‘nggi paytlarda Mamlakatimizda ta’lim xizmatlari sohasida marketing vositalari, jumladan, marketing tadqiqotlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni, birinchi navbatda, OTMlar umumiy sonining sezilarli darajada oshgani bilan izohlash mumkin. Davlat universitetlari bilan bir qatorda tijorat universitetlari va shunga o‘xshash ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar paydo bo‘lmoqda. Shu sababli, mintaqaviy ta’lim bozorida samarali faoliyat yuritish uchun marketing tadqiqotlarini o‘tkazish kerak.

Marketing tadqiqotlari ta’lim muassasasi va bozorlar, iste’molchilar, raqobatchilar va marketing muhitining boshqa elementlari o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Ular ta’lim muassasasi marketing faoliyatining barcha jihatlari bo‘yicha qaror qabul qilishda xavfni kamaytirishga imkon beradi.

Ta’lim bozorining marketing tadqiqotlarini o‘tkazish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- ❖ marketing tadqiqotlarini tashkil etish va o‘tkazish zaruriyatini aniqlash;
- ❖ tadqiqot maqsadlari, ob’yekti va predmetini aniqlash;
- ❖ marketing tadqiqotlarini o‘tkazish usullarini tanlash;

[16] Егоршин А.П. Менеджмент, маркетинг и экономика образования: Учеб. пособие. Н. Новгород: НИМБ, 2001.

[17] Kotler & Fox? 1995.-44b.

- ❖ axborotning asosiy manbalarini aniqlash;
- ❖ ma’lumotlarni to‘plash, natijalarni tahlil qilish va universitet rahbariyati hisobotini taqdim etish jarayoni.

Shunga ko‘ra, ta’lim xizmatlari bozorining marketing tadqiqotlarini tashkil etish doirasida, birinchi navbatda, OTMlarning ta’lim bozorining marketing tadqiqotlarini o‘tkazishga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash zarur. OTMlarning marketing tadqiqotlariga bo‘lgan ehtiyoji ko‘pincha bozorni tahlil qilish, uning rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash, doimiy o‘zgaruvchan bozor omillarini aniqlash va kuzatish zarurati bilan ifodalanadi.

Bu holda tadqiqot ob’yekti quyidagilar bo‘ladi: ta’lim bozorining rivojlanish omillarini tahlil qilish (demografik, iqtisodiy, siyosiy), potentsial iste’molchilarni o‘rganish, bozordagi raqobat.

Ta’lim bozorining rivojlanish omillarini tahlil qilish OTMlarga quyidagi ma’lumotlarni olish imkonini beradi:

- ❖ iqtisodiy o‘sish va inflyatsiya sur’atlari;
- ❖ aholi daromadlari va uning ta’limga sarflashga tayyor bo‘lgan qismi;
- ❖ aholi soni, aholining o‘sish sur’ati, tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari, yosh va jins tarkibi va boshqalar.

Olingan ma’lumotlardan foydalanib, institut rivojlanish prognozini tuzishi, bozor tendentsiyalarini baholashi va muvaffaqiyatning asosiy omillarini aniqlashi mumkin.

Iste’molchi tadqiqotlari bizga ta’lim bozorida iste’molchilarning xatti-harakatlarining motivatsiyasini aniqlash va ma’lum ta’lim xizmatlari yoki universitetlar bo‘yicha imtiyozlarni aniqlash imkonini beradi. Bu holda tadqiqot ob’yekti ham ta’lim olishdan manfaatdor shaxslar, ham tashkilotlar bo‘ladi. Bunday tadqiqotning maqsadi iste’molchilarni segmentlash va eng maqbul bozor segmentini aniqlash bo‘ladi.

Raqobatchilarni o‘rganish mintaqaviy bozorda OTMlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi.

Tahlil raqobatdosh institut faoliyatining barcha sohalarida amalga oshiriladi: ularning kuchli va zaif tomonlari o‘rganiladi, ular chaqiradigan xizmatlar, iste’molchilarni rag‘batlantirish usullari va ularning javoblari, narxlar va marketing strategiyalari. Bunday tadqiqotning natijasi raqobatchilarga nisbatan bozorda eng foydali mavqega erishish yo‘llari va vositalarini tanlash bo‘ladi.

Ta’lim bozorini marketing tadqiqotining predmeti - potentsial iste’molchilarning yuqori sifatli oliy ma’lumotga bo‘lgan ehtiyojlari va bunday xizmatlarga bo‘lgan afzallikdir.

Shunday qilib, OTMlarning tadqiqot maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- ❖ o‘z ta’lim xizmatlarining sifati va raqobatbardoshligini oshirish;
- ❖ xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, ta’lim xizmatlariga bo‘lgan talabni baholash;
- ❖ yangi ta’lim axborot texnologiyalarini joriy etish, yangi ta’lim dasturlarini ishlab chiqish;

❖ marketing faoliyatini takomillashtirish, raqobatchilarning kuchli va zaif tomonlarini o‘rganish;

❖ boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvart. Manba: www. press-servise.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. - Toshkent, 2017 yil 21 aprelb. Manba: http: press-servis.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining OTMlarida marketing xizmati faoliyatini takomillashtirish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash jarayoni nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 48-sonli buyrug‘i (1,2-ilovalar). -Toshkent. - 2007 yil 10 mart. Manba: www.lex.uz.

4. Алмакучуков К.М. Технологии управления маркетингом в вузе // Высшее образование Кыргызской Республики. - 2008. - 2/12. - с.44-50.

5. Егоршин А.П. Менеджмент, маркетинг и экономика образования: Учеб. пособие. Н. Новгород: НИМБ, 2001.

6. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Nazarova F.M., Karimova R.N., Sharipov I.B. Xalqaro marketing. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2019. 345 b.

7. Набиев Д. Совершенствование управления маркетингом образовательных услуг в условиях модернизации экономики. Автореф. ... докт. эконом. наук. -Ташкент, 2009. - 48 с.

9. Очилов А. О. Маркетинг в сфере высшего образования // Экономика и финансы. - Москва, 2009. - № 3 (156). - С. 64-65.

10. Суюнова К. Менеджмент на предприятии: новое веяние под названием" контроллинг" //Институты и механизмы инновационного развития: мировой опыт и российская практика. – 2014. – С. 385-389.

11. Махмудова А. Н. и др. Роль молодого поколения в формировании современного гражданского общества //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 3 (57). – С. 45-48.

12. Kotler & Fox? 1995.-44b.

B.X.Qilichov - SamISI “Menejment” kafedrasi assistent-stajyori

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN SUG‘URTA TASHKILOTLARINING YIG‘ILGAN SUG‘URTA MUKOFOTLARI TAHLILI.

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini olib borayotgan sug‘urta tashkilotlarining yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari tahlili, ixtiyoriy va majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish*

yo‘nalishlari, sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Sug‘urta**,** sug‘urta mukofotlari, sug‘urta badali, sug‘urta summasi, sug‘urta tavakkalchiligi, sug‘urta tarifi, sug‘urta qiymati.*

Аннотация: *В статье проведен анализ собираемых страховых премий страховых организаций, осуществляющих страховую деятельность в Узбекистане, направления дальнейшего развития страхового рынка по добровольным и обязательным видам страхования, способы повышения конкурентоспособности занимающихся страховой деятельностью организаций, а также а также рассмотрены пути совершенствования страховой деятельности в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Страхование, страховые премии, страховая премия, страховая сумма, страховой риск, страховой тариф, страховая стоимость.*

Abstract: *In the article, the analysis of the collected insurance premiums of insurance organizations conducting insurance activities in Uzbekistan, directions for further development of the insurance market for voluntary and compulsory insurance types, with insurance activities ways to increase the competitiveness of engaged organizations, as well as ways to improve insurance activities in Uzbekistan are considered.*

Key words: *Insurance, insurance premiums, insurance premium, insurance sum, insurance risk, insurance tariff, insurance value.*

Sug‘urta operatsiyalarining mutlaq o‘lchovlarini tavsiflovchi miqdoriy ko‘rsatkichlar o‘z ichiga sug‘urta kompaniyalari soni, sug‘urta operatsiyalari o‘lchovlari, sug‘urtalovchilar va sug‘urta agentlarining soni, talafot ko‘rgan obyektlar soni, tuzilgan shartnomalar miqdori, ustav kapitali, sug‘urta badallari hamda to‘lovlari summalari va boshqa ko‘rsatkichlarni oladi. Nisbiy va o‘rtacha ko‘rsatkichlar yordamida sug‘urta bozorining intensivligi va samaradorligi tavsiflanadi, shuningdek, daromadlar va xarajatlarning tarkibi, talafot ko‘rgan obyektlarning hissasi, sug‘urta qoplami to‘lovlarining sug‘urta turlari va shakllari bo‘yicha ulushi va boshqalar tavsiflab beriladi. Sug‘urtaning tipik jarayonlarini o‘rganishda, xususan, sug‘urta badallari, sug‘urta yuklamalari va to‘lovlari, tarif stavkalari, sug‘urta summalarining zarari ko‘rsatkichlari, moliyaviy turg‘unlik koeffitsiyentlari va boshqa umumiy ko‘rsatkichlarda o‘rtacha miqdorlarni hisob-kitob qilishga murojaat qilinadi. Alohida guruhni sug‘urtaning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlari tashkil qiladi, ular sug‘urta tashkilotlari ishining umumiy ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liqligini va ularga alohida omillarning ta’sirini tavsiflaydi. Sug‘urtaning ko‘rsatkichlar tizimi butun mamlakat bo‘yicha, shuningdek, iqtisodiy hududlar, viloyatlar, shaharlar va tumanlar bo‘yicha hisoblab

chiqiladi. Sug‘urta statistikasida umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda guruhlash usuli keng qo‘llaniladi. Sug‘urta tashkilotlari mulkchilik shakllari bo‘yicha, sug‘urta tarmoqlari va turlari bo‘yicha, ustav kapitalining hajmi bo‘yicha, ishlovchilarning soni va boshqa ko‘rsatkichlarga ko‘ra guruhlarga ajratiladi. Ustav kapitali, sug‘urta badallari va to‘lovlari, sug‘urta agentlarining soni, tuzilgan shartnomalarning soni va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha sug‘urta kompaniyalari yirik, o‘rta va kichik turlarga ajratiladi. Sug‘urta statistikasida, shuningdek, kombinatsiyalashgan guruhlash qo‘llaniladi (ikki va undan ortiq belgilarni qo‘shish orqali). Masalan, sug‘urta badallari, to‘lovlari va boshqa ko‘rsatkichlar sug‘urta turlari bo‘yicha mulkchilik shakllari, tarmoqlar, mintaqalar, iqtisodiy tumanlar va boshqalar bo‘yicha o‘rganiladi.

O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorida sug‘urta operatsiyalari hajmi va sug‘urta sohalari bo‘yicha ma’lumotlarini tahlil qilib sug‘urta faoliyati moliya bozori uchun muhim soha hioblanishiga yana bir bor amin bo‘lishimiz mumkin. Respublikamizda 2022 yilda 41 ta sug‘urta kompaniyasi shundan 8 ta hayotni sug‘urta qilish sohasi, 33 ta umumiy sug‘urta sohasi bo‘yicha faoliyat olib bormoqda. Tabiiyki bu kompaniyalar tomonidan yig‘ilayotgan sug‘uta mukofotlari sezilarli darajada yuqori va kompaniyalar foydasi, ular tamonida zarar ko‘rgan yuridek va jimoniy shaxlarga to‘lab berilayotgan sug‘urta tovoni, yuridek va jimoniy shaxlarga kutilmaganda sodir bo‘layotgan kutilmagan xolatlarni bartaraf qilmoqda va nafaqat yuridek va jimoniy shaxlarga balki mamlakatimiz iqtiodiyotiga ham hissa qo‘shmoqda. Biz sug‘urta kompaniyalarning sug‘urta sohalari bo‘yicha ma’lumotlarini tahlil qilishdan oldin sug‘urta sohalari bo‘yicha ma’lumotlar haqida ozroq ma’lumot taqdim qilsak ya’ne

Sug‘urta - muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yitkazilgan zararning o‘rnini qoplash, tovonlar va boshqa to‘lovlar to‘lash uchun maqsadli pul jamg‘armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar;

Sug‘urta badali - sug‘urta mukofotining sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda, miqdorlarda va shartlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to‘lanadigan bir qismi;

Sug‘urta mukofoti – sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urtalovchiga sug‘urta shartnomasida shart qilib ko‘rsatilgan tartibda va muddatlarda milliy valyutada yoki chet el valyutasida to‘lanadigan sug‘urta uchun to‘lov.

Sug‘urta summasi – muayyan summa bo‘lib, sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini (sug‘urta to‘lovini) sug‘urta shartnomasi bo‘yicha ushbu summa doirasida to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Sug‘urta tavakkalchiligi - taxmin qilinayotgan voqea bo‘lib, ushbu voqea yuz bergan taqdirda sug‘urta amalga oshiriladi;

Sug‘urta tarifi - sug‘urta ob’ektini va sug‘urta tavakkalchiligining xususiyatini hisobga olgan holda belgilanadigan, shuningdek sug‘urta shartlariga

muvofiq sug‘urta summasi birligidan olinadigan sug‘urta mukofoti stavkasi;

Sug‘urta tovoni (sug‘urta to‘lovi) - sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta qildiruvchiga/naf oluvchiga sug‘urta summasi doirasida to‘lanadigan pul mabalag‘lari summasi.

Sug‘urta qiymati – agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta shartnomasini tuzish chog‘ida taraflarning kelishuvi bilan aniqlanadigan, sug‘urtaga topshiriladigan mol-mulkning qiymati.

Ma’lumotlariga asosan (1-jadval) O‘zbekiton Republikasida faoliyat olib borayotgan sug‘urta kompaniyalarining ya’ne sug‘urtalovchilarining umumiy sug‘urta mukofotlari haqida ma’lumotlar keltirib o‘tamiz.

Umumiy sug‘urta mukofotlari:

(1-jadval)
mln.so‘m

Ko‘rsatkichlar	31.12.2021		31.12.2022		O‘zgarish, %
	mln. so‘mda	jamiga nisbatan % da	mln. so‘mda	jamiga nisbatan % da	
Jami	**3 732 024**	**100%**	**6 231 726**	**100%**	**+67,0%**
Umumiy sug‘urta tarmog‘idagi sug‘urta tashkilotlari, shu jumladan:	3 014 983	81%	4 707 047	76%	+56,1%
- majburiy sug‘urta	476 333	13%	491 276	8%	+3,1%
- ixtiyoriy sug‘urta	2 538 650	68%	4 215 771	68%	+66,1%
Hayotni sug‘urta qilish tarmog‘idagi sug‘urta tashkilotlari, shu jumladan:	717 041	19%	1 524 679	24%	+112,6%
- majburiy sug‘urta	25 696	1%	26 766	0%	+4,2%
- ixtiyoriy sug‘urta	691 344	19%	1 497 912	24%	+116,7%

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki Umumiy sug‘urta tarmog‘idagi sug‘urta tashkilotlari, majburiy sug‘urta bo‘yicha 2021 yilda 476 333 mln so‘m, 2022 yilda esa 491 276 mln so‘m farqi esa +3.1% ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin, ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha 2021 yilda 2 538 650 mln so‘m, 2022 yilda esa 4 215 771 mln so‘m farqi esa +66.1% ga o‘sgan. Bundan ko‘rinib turibdiki mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan yoki istiqomat qilayotgan yuridek va jimoniy shaxlarga sug‘urta korxonalariga ishonchi oshganligini, faoliyat turlarini kengaytirayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Hayotni sug‘urta qilish tarmog‘idagi sug‘urta tashkilotlari tamonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarida ham o‘sish kuzatilgan ya’ne majburiy sug‘urta bo‘yicha 2021 yilda 25 696 mln so‘m, 2022 yilda esa 26 766 mln so‘m farqi esa +4.2% ga o‘sganini ko‘rishimiz mumkin, ixtiyoriy sug‘urta bo‘yicha 2021 yilda 691 344 mln so‘m, 2022 yilda esa 1 497 912 mln so‘m farqi esa +116.7% ga o‘sgan. Ma’lumotlarga asoslanib ko‘rishimiz mumkinki sug‘urta tashkilotlari tamonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari 2021 yilga qaraganda 2022 yilda +67 foizga o‘sgan, bu esa sug‘urta tashkilotlari rivojlanayotganidan, xizmat ko‘rsatish sifati oshganidan va eng asosiysi fuqarolar sug‘urta tashkilotlariga ishonchi ortayotganidan dalolatdir.

Xulosa va takliflar.

Sug‘urta moliyaviy faoliyatning bir turi bo‘lib, uning maqsadi korxonalar, tashkilotlar va xususiy shaxslarga sug‘urta riski sodir bo‘lgan taqdirda zararlari o‘rnini ular tomonidan to‘langan pul mablag‘lari hisobidan tashkil qilingan sug‘urta fondidan qoplash hisoblanadi.

Sug‘urta riski – kishilarning ongli faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda (halokat, yo‘l fojiasi, avariya, suv toshqini, er qimirlashi, qurg‘oqchilik, o‘lim, krizis hamda boshqa tabiiy va ijtimoiy falokatlar) ro‘y berishi ehtimoliga va tasodifiga ega bo‘lgan voqealardir.

Sug‘urta obyektlariga quyidagilar kiradi:

1) shikastlangan mol-mulkdan kelgan zararni qoplash bo‘yicha moddiy manfaatlar;

2) shaxsiy hayot, sog‘liq, mehnat qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan risklar;

3) mas’uliyat risklari, ya’ni sug‘urtachining qoplanmagan qarzlari, mahsulotni muddatida etkazib bermaslik, uchinchi tomonga zarar etkazilishi va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lgan potensial yo‘qotishlari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi farmoni;

2. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 28 maydagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan);

3. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G`.Kenjayev “Sug‘urta ishi” Toshkent-2014;

4. Xo‘jaev Y. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug‘urta. O‘quv qo‘llanma.-T.:

Soliq akademiyasi, 2005.
5. https://www.mf.uz/uz/news-mf-jx/item/609-609.html.
6. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
7. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
8. https://imda.uz -Moliya vazirligi huzuridagi SUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI.

A.P.Isanov - Jizzax Politexnika instituti mustaqil ilmiy izlanuvchisi

TRANSPORTDA MENEJMENT SHAKLLARI VA TASHKILIY TUZILMALARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: *Maqolada milliy iqtisodiyotning transport korxonalarida menejmenti tuzilmasida menejment tizimi va xizmati ko‘rsatish iyerarxik tuzilmasida ularning bog‘lanish va bo‘ysunish shakllariga ko‘ra, xizmat ko‘rsatishning turli bosqichlari va bo‘g‘inlari o‘rtasidagi bog‘liqlik, shuningdek, ma’muriy apparat tuzilishining birlashgan, qisman birlashgan va birlashtirilmagan tashkiliy shakllari, ularning mazmun-mohiyati, tamoyillari va bir-biri bilan bog‘liqliklari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xizmat ko‘rsatish, menejment, bo‘g‘in, iyerarxik tuzilma, tashkiliy tuzilma, tarkibiy bo‘linmalar, xo‘jalik subyektlari, shaxsiy javobgarlik.*

Аннотация: *В статье рассмотрена система управления в структуре управления транспортными предприятиями народного хозяйства и соотношение между различными этапами и звеньями обслуживания по формам их связи и подчинения в иерархической структуре оказания услуг. Описаны комбинированные, частично комбинированные и некомбинированные организационные формы структуры управленческого аппарата, их сущность, принципы и взаимосвязи.*

Ключевые слова: *Служба, управление, звено, иерархическая структура, организационная структура, структурные подразделения, экономические субъекты, персональная ответственность.*

Abstract: *In the article, in the structure of the management system of transport enterprises of the national economy, the management system and the hierarchical structure of service provision, according to the forms of their connection and subordination, the relationship between different stages and links of service provision, Also, the combined, partially combined and non-combined organizational forms of the structure of the administrative apparatus, their essence, principles and interrelationships are described.*

Keywords: *Service provision, management, link, hierarchical structure, organizational structure, structural divisions, economic subjects, personal responsibility.*

Odatda, transport menejmenti tuzilmasida menejment tizimi aniqlashtirilib, har bir daraja va har bir bo‘g‘inning roli aniqlanadi, xizmat ko‘rsatish menejmenti jarayonidagi aloqalar ochib beriladi, transport xizmati ko‘rsatish menejmentining alohida funktsiyalarining kontsentratsiyasi va ixtisoslashuvi darajasi ko‘rsatiladi.

Transport xizmati ko‘rsatish iyerarxik tuzilmasida, bu ularning bog‘lanish va bo‘ysunish shakllariga ko‘ra xizmati ko‘rsatishning turli bosqichlari va bo‘g‘inlari o‘rtasidagi bog‘liqlik sifatida tushuniladi va o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi ikkita tashkiliy va ishlab chiqarish kabi tuzilmalar ajratiladi.

Xizmat ko‘rsatish tuzilmasi deganda xizmat ko‘rsatish birliklarining tarkibi va quvvati, ularning nisbati va transport xizmati ko‘rsatishini tashkil etishning har bir darajasiida o‘zaro bog‘liqlik shakllari tushuniladi. Xizmat ko‘rsatish tuzilmasida transport maydonchalari tarkibi, xizmatlari, ularning imkoniyatlari, xizmat ko‘rsatish shakllari (tuzilish turlari bo‘yicha - texnologik, predmetli, aralash; xizmat ko‘rsatish turlari bo‘yicha – umumiy transport, ixtisoslashgan montaj tashkilotlari) ko‘rsatilgan. Xizmat ko‘rsatish tuzilmasi transport tashkilotlari tarkibini uning quvvati, mohiyati va ixtisoslashuvi, kooperatsiyasi va xizmat ko‘rsatishini birlashtirish shakllari bo‘yicha tavsiflaydi.

Odatda, transportda xizmat ko‘rsatish menejmentining tashkiliy tuzilmasida menejment funktsiyalari tarkibiy bo‘linmalar o‘rtasida belgilanadi va ular o‘rtasida o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatiladi va shu bilan menejment tizimi faoliyati samaradorligi, uning ishlab chiqarish va iqtisodiy natijalari oldindan belgilanadi.

Xo‘jalik subyektlarini barpo etishda paydo bo‘ladigan asosiy muammolarni hal qilish butun jamoa manfaatlari va davlat manfaatlarini ob’yektiv hisobga olish uchun markaziy ravishda amalga oshirilishi kerak. Hozirgi vaqtda menejment funktsiyalarini korporativlashtirish darajasiga qarab transport tashkilotlari, uyshmalari, markaziy ma’muriyatlar boshqaruv apparati tuzilishi uchta, ya’ni, birlashgan, qisman birlashgan va birlashtirilmagan tashkiliy shakllarda namoyon bo‘ladi.

Birlashtirish va birlashtirmaslikning eng oqilona uyg‘unligini tanlash bilan transportda xizmat ko‘rsatish menejmenti uchun tashkiliy tuzilmalarni shakllantirishda quyidagi tamoyillar hisobga olinadi:

- ko‘rsatmalar va shaxsiy javobgarlik birligi tamoyili. Bu bo‘ysunishning ikkilikliligini va qarama-qarshi ko‘rsatmalar olish imkoniyatini yo‘q qiladi. Har bir zveno faqat bitta rahbarga ega bo‘lishi kerak, unga bo‘ysunadi va undan qaror qabul qiladi. Shu bilan birga, menejment aloqasi bir vaqtning o‘zida ikkita ob’yektni muvaffaqiyatli boshqarolmaydi, ulardan biri ikkinchisining bir qismi,

masalan, kichik transport uyushmalari yirik transport tashkiloti (MChJ) tarkibiga kirganda va transport boshqarmalari, garchi bu korxonalar transport tashkilotining bir qismi bo‘lsa ham (uyushmalar) ularni boshqarishda davom etadi;

- mansabdor shaxslarning belgilangan vakolatlariga, ularning huquq va majburiyatlariga rioya qilish tamoyili va qaror qabul qilishda transport bo‘limi boshqaruvidagi har bir bo‘g‘inning javobgarligi. Faqatgina bunday muvofiqlik maqbul echimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun haqiqiy sharoitlarni yaratadi;

- moslashuvchanlik va tejamkorlik tamoyili. Transportda xizmat ko‘rsatishning tashkiliy tuzilmasi ichki va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga eng kam xarajat bilan javob berishi kerak, ya’ni oqilona o‘zini-o‘zi moslashtirish, o‘zini-o‘zi boshqarish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak [1];

- to‘g‘ri chiziqli va funktsional rahbarlik o‘rtasida aniq chegaralarni o‘rnatish tamoyili. to‘g‘ri chiziqli rahbarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri transportda xizmat ko‘rsatishini boshqarishi kerak, funktsional rahbarlik chiziqli texnik yordam ko‘rsatishi, unga kerakli ma’lumotlar va amaliy tavsiyalar bilan ta’minlashi shart. Aniq funktsional farqlash tamoyili ham bir xildir, bunda har bir transport bo‘linmasi va funktsional bo‘g‘in har qanday menejment darajasida boshqa transport bo‘linmalarining funktsiyalariga ta’sir qilmaydigan aniq belgilangan funktsiyalarga ega bo‘lishi kerak;

- samarali menejment tamoyili. Bir nafar rahbar samarali ravishda boshqarishi mumkin bo‘lgan bo‘ysunuvchilar sonini to‘g‘ri aniqlash, ya’ni etakchilik qobiliyati me’yorlarini o‘rnatish kerak.

Ushbu tamoyillar bilan bir qatorda ichki va tashqi omillar transportda xizmat ko‘rsatish menejmentining tashkiliy tuzilmasining takomillashuviga ta’sir qiladi.

Ichki omillarga quyidagilar kiradi: texnik omillar - qurilish ishlab chiqarish ko‘lami, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi; tashkiliy omillar - ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyasi, ishlab chiqarish tarkibi, menejment funktsiyalarini markazlashtirish darajasi; iqtisodiy omillar - o‘zini-o‘zi ta’minlaydigan munosabatlar, rejalashtirish va natijalarni baholash tizimi, moddiy rag‘batlantirish tizimi; ijtimoiy-psixologik omillar - jamoadagi umumiy ijtimoiy munosabatlar, rahbarning obro‘si.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi: hududiy joylashuv (tashqi aloqalarning hajmi va tavsifi); tabiiy-iqlim sharoitlari.

Transportda xizmat ko‘rsatish menejmentini takomillashtirish quyidagi masalalarni o‘z ichiga oladi:

- tashkiliy tuzilmalarni soddalashtirish, transportda xizmat ko‘rsatishining yiriklashuv darajasini oshirish [2];

- transportda xizmat ko‘rsatishini yagona sanoat va transport jarayoniga

aylantirish;

- transportda xizmat ko‘rsatishini aniq rejalashtirish va belgilangan me’yoriy muddatlarga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirish;

- transport tashkilotlari faoliyati menejmentida bozor tamoyillari va mexanizmlarini to‘liq hisobga olish;

- paydo bo‘layotgan mulkchilikning yangi shakllarini hisobga olgan holda ko‘p darajali menejment uslublaridan voz kechish;

- mahalliy davlat bo‘g‘inlarning huquqlari kengayishi va mas’uliyati oshishi bilan mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklarning o‘zaro uyg‘unlashuvi.

Hozirgi vaqtda qurilish vazirliklari va idoralari ikki va uch darajali menejment tizimlariga o‘tishni hamda tashkilotlar, uyushmalar, kompaniyalar, mulkchilikning yangi shakllarini hisobga olgan holda har xil turdagi xo‘jalik yuritish shakllarni barpo etish jarayonini hisobga olgan holda transport menejmentining yangi umumiy tashkiliy tuzilmalarini yaratmoqdalar.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakat transport majmuasiga etakchilikni kuchaytirishga, shu bilan bir vaqtda transport jarayonlarining qisqa va uzoq muddatli strategik rejalarini amalga oshirishga, shuningdek, transport mahsulotlarini yaratishning texnik darajasining oshishi va rivojlanishiga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.М.А.Айнакулов, Э.М.Абдухамидов. Нормативно-правовая база интеграционных отношений хозяйствующих субъектов. // «Молодой ученый». Международный научный журнал. Спецвыпуск Джизакский политехнический институт. 2016. № 7.2 (111.2) С. 48-50.

2. Мухитдинов А.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантириш ва самарадорлигини оширишда мотивациянинг роли. “Хизмат кўрсатиш соҳасини инновацион ва рақамли иқтисодиёт шароитида ривожлантириш муаммолари” халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами (V-қисм) (2021 йил 19-20 феврал). Самарқанд-2021.

Г.А.Абдувоҳидова - СамИСИ ”Менеджмент " кафедраси ассистент стажери

ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИГА ТАЛАБ ВА ТАКЛИФНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Аннотация. *Ушбу мақолада таълим хизматлари бозорининг шаклланиши, ушбу бозорда талаб ва таклиф ўртасидаги мувофиқликни таъминлаш йўллари тадқиқ қилинган.*

***Калит сўзлар**: таълим хизматлари бозори, талаб, таклиф, касбий тайёргарлик, истеъмол бозори.*

***Аннотация**. В данной статье рассматривается формирование рынка образовательных услуг, пути обеспечения соответствия между спросом и предложением на этом рынке.*

***Ключевые слова**: рынок образовательных услуг, спрос, предложение, обучение, потребительский рынок.*

***Abstract.** This article examines the formation of the market of educational services, ways to ensure consistency between supply and demand in this market.*

***Keywords:** education services market, demand, supply, training, consumer market.*

Иқтисодиётнинг сифат жиҳатидан олдингисидан фарқ қилувчи ҳар бир ривожланиш босқичи учун ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг муайян модели мос келади, чунки унинг асосий хусусиятлари жамият фаолиятининг муҳим жараёнларини очиб беради.

Мутахассисларнинг касбий тайёргарлиги сифати уларнинг меҳнат бозоридаги мавқеи орқали белгиланади. Бундан келиб чиққан ҳолда юзага келаётган янги ижтимоий-иқтисодий шароитларга битирувчиларда кўникмаларни ҳосил қилиш зарурияти ўқув юртларида янги стратегияларини ишлаб чиқилишини, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, таълим, фан ва ишлаб чикариш ўртасидаги интеграцияни янада мустахкамлашни талаб қилмоқда. Бунда олий таълим муассасалари билан ишлаб чиқариш корхоналари ўртасида ўзаро манфаатли, инновацион корпоратив ҳамкорлик алоқаларини ўрнатиш асосий вазифа сифатида юзага чиқмоқда. Ишлаб чикариш ва олий 353 таълим тизими ўртасида ҳамкорликни йўлга қўйишда олий таълим муассасалари фаол ўринни эгаллаган ҳолда, яқин ҳамкорликнинг барча жихатлари бўйича бевосита ташаббус кўрсатмоқда. Олий таълим муассасаларининг асосий вазифаси жамиятнинг кўпчилик аъзоларига инновацион ижтимоий-иқтисодий вазифаларни ҳал қила оладиган олий касбий таълим беришга йўналтирилган.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, жамият олдида турган муаммолар ичида инсоннинг шахси ва талаб-эҳтиёжларини ҳисобга олмасдан ҳал қилишга уриниш омадсизликка маҳкум этади. Шунинг учун аввалларии олимлар иш билан бандлик, меҳнатни ташкил этиш, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш жараёнларидаги муаммоларини кўриб чиқилаётганда асосан, унинг иқтисодий жиҳатларига эътибор берган бўлсалар, кейинги пайтда мазкур муаммоларнинг ижтимоий жиҳатлари тўғрисида тобора кўпроқ гапиралаётганлиги бежиз эмас.

Республикамизда ҳар йили таълим тизимини ислоҳ этиш ва ривожлантиришга ажратилган маблағлар ЯИМнинг 10-12 %ини ташкил этган ҳолда, бу давлат бюджетининг 35 %дан ортиғини ташкил этмоқда. 2010-2018 йиллар давомида давлат бюджети харажатлари таркибидаги таълимга бўлган харажатлар 29 %дан 33,5 %гача ортди. Бунда энг кўпи умумий ўрта таълимга (56,1 %), кейингиси ўрта махсус касб таълимига (21,4%), мактабгача таълимга (10,2%) ва олий таълимга (5,4%) ажратилган77 .

Таълим жараёни билим, ахборот, кўникмаларни (таълим хизматларини кўрсатиш бўйича муносабатлар) узатиш бўйича ижтимоий муносабатлар тизимидан иборат, яъни таълим хизматларининг сотувчилари ва харидорлари узлуксиз учрашадиган муайян муҳитда олди-сотди жараёни ташкил этилади. Бошқача сўз билан айтганда бу жараён таълим хизматлари бозоридир.

Таълим, айнан шу хусусияти билан таълим хизматлари бозори сифатида майдонга чиқади ҳамда мазкур тадқиқотнинг бевосита объекти бўлиб ҳисобланади.

Таълим хизматлари бозори бугунги кунда ижтимоий-иқтисодий тизимнинг истеъмол бозоридаги мураккаб бўлган ўзаро боғланган барча элементларидан ташкил топган. Мазкур тизимни бош генератори бўлиб, шубҳасизки, меҳнат бозорида ўзига хос товар сифатида чиқувчи малакали профессионал кадрлар тайёрлашдаги жамиятнинг эҳтиёжи ҳисобланади

Истеъмол бозорини таълим хизматлари бозори билан ўзаро боғлиқ чизмасини таҳлил қилиб, шундай хулосага келиш мумкин, бир томондан таълим хизматлари истеъмол бозори секторларидан бири бўлиб ҳисобланса, бошқа томондан эса истеъмол бозорининг барча 77 Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. 354 элементлари таълим хизматларига эҳтиёж сезади. Узоқ вақт давомида давлат кадрлар тайёрлашнинг ташкилий таркибини тартибга солди ҳамда келажакда турли малакадаги мутахасислар нисбатини режалаштирди.

Ҳозирги вақтда мазкур механизм ўз моҳиятини йўқотди. Шу сабабли, иқтисодиётни баъзи секторларида малакали кадрлар етишмаслиги ва бошқасида кадрлар ортиқчалиги каби номутаносибликлар бутун секторда юқори малакали ишсизларни пайдо бўлишига олиб келди. Шунинг учун, янги бозор принципларига асосланиб, турли касбларда малакали мутахасислар тайёрлаш таркибини тартибга солишнинг давлат механизмини доимий тарзда такомиллаштириш зарур.

Шундай қилиб, меҳнат бозори билан таълим хизматлари бозори ўртасидаги алоқа яққол намоён бўлмоқда, бироқ у ҳозирги вақтда иқтисодиётдаги тадқиқот объекти ва ижтимоий иқтисодий тизимни бошқариш бўлиб ҳисобланмайди.

Амалиёт шуни кўрсатадики, олий ўқув юртлариларининг каттагина қисми меҳнат бозорини малакали кадрларга бўлган талаб конъюнктурасини кузатиб бормайди. Шунинг учун меҳнат ресурслари таркибининг деформацияси (шаклини ўзгариши) юз беради, бу эса ўз навбатида жамиятнинг ижтимоий психологик ва иқтисодий иныирозларига ҳамда олий таълим муассасалари битирувчилари билан ишсизлар сафини тўлдиришга олиб келади. Шу сабали, таълим муассасаларини мувофақиятли фаолият кўрсатишлари учун таълим бозорининг барча иштирокчилари унинг конъюнктураси ва меҳнат бозори эҳтиёжлари тўғрисида янада аниқ тасаввурга эга бўлишлари зарур.

Таълим хизматлари бозорининг конъюнктураси дейилганда муайян вақт мобайнида таълим хизматларини сотиш ва харид қилиш жараёни амалга ошадиган, меҳнат ва таълим хизматлари бозорида юзага келадиган шарт-

шароитлар тўплами тушунилади. Бозор иштирокчиларини таваккалчилигини камайтириш юқорида қайд қилинган бозор конъюнктураси тўғрисидаги аниқ билимларга боғлиқ бўлади. Таълим хизматлари бозорини меҳнат бозори билан ўзаро боғлиқлик механизми чизма тарзда ифодаланган. Бундай механизмни «Светафор» сингари ҳам акс эттириш мумкин. Чизмадаги «таклиф» светафорни сариқ рангига мос бўлиб, талабни кутиш – яшил ранг меҳнат бозори эҳтиёжларини ифодалайди. «Нарх» малакали кадрлар таркибининг талаб ва таклиф регулятори сифатида майдонга чиқади.

Мазкур тамойилни ҳисобга олиш меҳнат бозорида шаклланадиган малакали кадрларга бўлган узоқ муддатли талабни прогнозлашга ҳамда кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш бўйича 355 таълим муассасаларининг таклифларини шакллантиришга имкон беради. Таълим хизматлари ижтимоий-маданий соҳага тегишли, бироқ шу билан бирга таълим иқтисодиётининг ўзига хос махсус сектори бўлиб ҳисобланади.

Шунинг учун, таълим хизматларига талабни ва олий ўқув юртлари хизматлари таклифини ўзига хос хусусиятлари бўлиб, олий ўқув юртлари нарх сиёсатини белгилайдиган асословчи фактор ҳисобланади. Шу тарзда, таълим хизматларига нархни шакллантиришда олий ўқув юртлари нафақат ўз иқтисодий муаммоларини ҳал этади, балки, давлатнинг ижтимоий муаммоларини ҳам ечишини ҳисобга олиши лозим. Шу сабабли, таълим хизматларига нарх белгилашда нафақат сарф харажатлар усули, балки, таълим хизматларининг сезиладиган қиймати (талаб), рақобатбардошлиги (олий ўқув юртларининг ресурс омиллари тўплами) асосида нарх бегилаш усулларидан ҳам фойдаланиш керак. Ижтимоий вазифаларни ечиб, аҳолини турли қатламлари даромадларининг табақаланишига боғлиқ равишда нархни белгилаш зарур. Бу қуйидагилар билан изоҳланади:

– таълим хизматларига талаб ҳар доим индивидуал (якка, алоҳида, ажралган) ҳисобланиб, таълим жараёнини ортда қолдиради;

– нархни шаклланиш жараёни уларни юқори даражада давлат аҳамиятига моликлиги, яъни меҳнат бозорида талаб қилиб олиниши билан изоҳланади;

– таълим хизматлари соҳаси учун ахборотларни ассиметриклиги

A.B.Muxitdinov - Jizzax politexnika instituti katta o‘qituvchisi

TRANSPORT XIZMAT KO‘RSATISHINING DASTURIY-MAQSADLI MENEJMENTI

Annotatsiya: *Maqolada milliy iqtisodiyotning transport tarmog‘ida boshqaruv usuli sifatida raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar bilan bog‘liq usul dasturiy-maqsadli menejmentning mazmun mohiyati, vazifalari, shuningdek, qo‘llanilish jarayonlari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Milliy iqtisodiyot, dasturiy-maqsadli menejment, transport xizmati ko‘rsatish, ijrochilar, menejment tashkiliy tuzilmasi, tarmoq va hududiy shakllar.*

Аннотация: *В статье описаны сущность, задачи, а также процессы применения программно-целевого метода управления, связанного с цифровой экономикой и технологиями как метода управления в транспортной сети народного хозяйства.*

Ключевые слова: *Национальная экономика, программно-целевое управление, транспортное обслуживание, исполнители, организационная структура управления, сетевая и региональная формы.*

Annotation: *The article describes the essence, objectives, and processes of applying the program-targeted management method associated with the digital economy and technology as a management method in the transport network of the national economy.*

Key words*: National economy, program-targeted management, transport services, performers, organizational structure of management, network and regional forms.*

Milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi transport majmuasida ham samaradorlikni ta’minlash uchun ko‘plab menejment usullaridan foydalaniladi. Ushbu usullardan biri raqamli iqtisodiyot va texnologiyalar bilan bog‘liq usul bu dasturiy-maqsadli menejmentdir.

O‘z mohiyatiga ko‘ra dasturiy-maqsadli usul - bu mehnatni, moddiy, tabiiy, moliyaviy resurslarni va axborotni ishlatishda buzilmas birlik va munosabatlarga asoslanib, transport menejmentini tashkil etishning yaxlit tizimli yondashuviga asoslangan rejalashtirish va menejmentning sifat jihatidan yangi shaklidir. Shu bilan birga, mazkur usul ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar va iste’molchilar, rejalashtirish va ma’muriy va ijro etuvchi bo‘g‘inlar, tarmoq va hududiy boshqarmalar, yagona milliy iqtisodiy majmualarning bo‘g‘inlari va maqsadli dasturlarning elementlari o‘rtasida yaqin aloqalarni ta’minlaydi.

Dasturiy-maqsadli menejment tizimi - bu maqsadli dasturni amalga oshirishni texnik, tashkiliy, iqtisodiy va ixtisoslashgan menejmentni amalga oshiradigan, zarur vakolatlar bilan ta’minlangan, maxsus yaratilgan bo‘g‘inlar majmuasini o‘zida aks ettiradi.

Tadqiqotlar natijasida loyihalashtirilgan mazkur dasturiy-maqsadli transport menejmenti usuli quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish uchun ishlatiladi:

- transport xizmati ko‘rsatish va menejmentida samarali ilmiy-texnik ishlanmalarni o‘z vaqtida amalga oshiradi;
- yuqori darajadagi rahbarlarni tezkor etakchilik funktsiyalaridan ozod qiladi;

- menejment bo‘g‘inlarini ijrochilarga yaqinlashtiradi va yuqori darajadagi rahbarlarni chetlab o‘tib, ular o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri gorizontal aloqalarni yaratish orqali dasturlarni amalga oshirishning tezkor joriy rahbarlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

- transport xizmati ko‘rsatishining butun tizimining barqaror ishlashini ta’minlaydi va uni rivojlantiradi;

- dastur bo‘yicha ishlarning borishini nazorat qilishning yanada samarali tizimini ta’minlaydi va ishni yaxshiroq va o‘z vaqtida bajarish uchun tegishli moddiy rag‘batlantirishni muvofiqlashtiradi.

Dasturiy-maqsadli menejment - menejment tashkiliy tuzilmasining yanada moslashuvchanligi, o‘zgaruvchanligi va egiluvchanligini ta’minlashga imkon beradi.

Dasturiy-maqsadli menejment turlari loyihalar menejmenti, innovatsion xizmat, mahsulot menejmenti, chiziqli, funktsional va matritsali menejment tuzilmalarini va boshqa bir qator o‘zgartirishlarni o‘z ichiga oladi.

Dasturiy-maqsadli usul transport xizmati ko‘rsatishi samaradorligini oshirishning eng muhim vazifalarini hal qilishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik va tadqiqot tadbirlarini amalga oshirishda muhim masalalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu usul tarmoq yoki hududiy menejment tizimiga kira olmaydigan vazifalar echimini hal qilish uchun sharoitlarni ta’minlaydi.

Dasturiy-maqsadli menejment muayyan bo‘g‘inlarni tashkil etishni, uskunalar, texnologiyalar va menejment xodimlarining mavjudligini o‘z ichiga oladi. Bunday holda dasturiy-maqsadli menejmenti bilan menejmentni tashkil etishning tarmoq va hududiy shakllari o‘rtasida o‘zaro hamkorligining maxsus mexanizmi paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, majmuaviy milliy iqtisodiy maqsadli dastur - bu belgilangan yakuniy maqsadga erishishga qaratilgan resurslar, ijrochilar va amalga oshirish muddatlari bilan bog‘liq bo‘lgan chora-tadbirlar majmuidan iborat direktiv rejalashtirish hujjatidir. U ma’lum bir milliy iqtisodiy muammoni hal qilishga imkon beradigan va ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ilmiy-tadqiqot tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Оилавий тадбиркорликни ривожлантиришнинг энг муҳим жиҳатларидан бири, айнан оилаларда мавжуд ишсиз аҳолини иш билан таъминлаш имкони беради. Шу туфайли охирги йилларда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш, фаол тадбиркорликни, хусусан, оилавий тадбиркорликни ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш орқали аҳолига муносиб ҳаёт шароитларини яратиш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилмоқда. Ушбу масалаларни ҳал қилиш учун инновацион ғоялар ва бунёдкорлик салоҳиятинидан самарали фойдаланиш, ишбилармонлик муҳитини яхшилаш, бандликни таъминлаш бўйича кенг кўламли ишлар амалга ошириб келинмоқда. Давлатимиз раҳбари тадбиркорлик фаолиятини кенгайтириш ва янги лойиҳаларни амалга ошириш учун янада қулай шароитлар яратиш, тадбиркорликни ривожлантиришга тўсиқ бўлаётган муаммоларни бартараф этиш бўйича муҳим ташаббусларни илгари суриши кутилмоқда[20].

«Очиқ айтишим керак, “иқтисодиёт пандемия туфайли ҳали тўлиқ тикланмади, жаҳон иқтисодиётидаги вазият яхши эмас, шу сабабли буни кейинга қолдирайлик”, деб таклиф берганлар ҳам бўлди.Лекин сизларни ишонтириб айтаман: биз ислоҳотлар йўлидан ҳеч қачон ортга қайтмаймиз ва 2023 йил 1 январдан бошлаб қўшилган қиймат солиғи ставкасини 12 фоизга туширамиз!»[21], - деди Шавкат Мирзиёев**.** Жумладан, 2018 йил 7 июнь куни Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев томонидан “Ҳар бир оила — тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги қарори[22] эълон қилинди.

Мазкур қарорда “олиб борилган таҳлил натижалари жойларда аҳолини тадбиркорликка жалб қилиш ва бу орқали янги иш ўринларини яратиш, бандликни таъминлаш, ўз меҳнати билан даромад топиш истагида бўлган фуқароларга амалий ёрдам кўрсатиш, меҳнат ресурсларидан оқилона фойдаланиш ишлари талаб даражасида эмаслигини кўрсатмоқда”[23], деб таъкидланган.

Қайд этиш жоизки, бизда меҳнаткаш халқимиз бор. Уларнинг қадимий касб-ҳунар анъаналари, ишбилармонлик салоҳияти оилавий тадбиркорлик фаолияти қанча замонлар ўтишига қарамасдан сақланиб қолинди. Халқимиз азалдан, ҳунармандчилик, касаначилик ва бошқа тадбиркорлик фаолияти турлари билан доимий равишда шуғулланиб келмоқдалар. Энди уларни кенг

[20] https://sputniknews.uz/20230818/shavkat-mirziyoev-tadbirkorlar-uchrashuv-37978843.html

[21] https://review.uz/oz/post/prezident-shavkat-mirziyoyevning-tadbirkorlar-bilan-muloqatidan-asosiylari

[22] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2018 йил 7 июнь куни “Ҳар бир оила — тадбиркор” дастурини амалга ошириш тўғрисида”ги қарори.// “Халқ сўзи” газетаси. 2018 йил 8 июнь. 1-2 бетлар.

[23] Ўша жойда.

оммалаштириш пайти келди. Халқимиз азалдан мавжуд экин майдонларидан унумли фойдаланган ҳолда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришни ҳам ўзига хос тарзда сақлаб келмоқда. Бугунги кунда ушбу фаолият турларини кенгайтириш учун катта тажриба ва захира мавжудлигидан фойдаланиб, оилавий тадбиркорликни ривожлантириш учун катта имкониятлар эшиги очилди.

Ҳозирги кунда қишлоқ билан шаҳар ўртасидаги, ҳудудлар кесимидаги тофовутларнинг мавжудлиги ва уларни қасқатириш борасида сезилари ишлар амалга оширилмоқда. Қишлоқ жойларда саноатнинг барпо қилиниши, қишлоқ аҳолисининг меҳнатини аграр меҳнатдан индистуриал меҳнатга айланаётганлиги ҳам маълум тофовутларнинг бартараф қилинишига хизмат қилади. Юқоридаги номи зикр этилган қарорда ҳам "...мамлакатимизнинг ҳар бир туман ва шаҳрида, энг аввало олис ва табиий-иқлим шароити оғир ҳудудларда аҳолининг моддий шароитларини тубдан яхшилаш, турмуш тарзи сифати ва даражасида сезиларли ижобий ўзгаришлар амалга оширилишини таъминлашга қаратилган"[24] тадбирларни амалга ошириш кўзда тутилган.

"Ҳар бир оила – тадбиркор" дастури доирасида амалга ошириладиган тадбирлар ҳам айнан аҳолининг, оилаларнинг қаерда (шаҳар ёки қишлоқда) яшашидан қатъи назар фаровон яшашлигини таъминлашга қаратилгандир. Ушбу вазифаларни бажариш учун хизмат кўрсатиш соҳасида ҳам оилавий тадбиркорликни ривожлантириш орқали аҳоли бандликни таъминлаш ва даромадларини ошириш лозим бўлмоқда. Бунга эришиш учун ушбу тадбирларнинг асосий йўналишларини белгилаб олишни тақозо қилади. Ушбу йўналишлар қуйидаги жадвалда келтирилган (1-жадвал):

1-жадвал

Хизмат кўрсатиш соҳасида оилавий тадбиркорлик ривожлантириш орқали аҳоли бандликни таъминлаш ва даромадларини оширишнинг асосий йўналишлари[25]

Т/р	**Оилавий тадбиркорликни ривожлантиришнинг асосий йўналишлари**	**Асосий йўналишларни амалга ошириш йўллари**
1.	Оилаларда тадбиркорлик ташаббусларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш	Ҳар бир оилада тадбиркорлик билан шуғулланиш истагида бўлганлар бўлса, уларнинг тадбиркорлик ташаббусларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаб, тегишли шароитлар яратиб бериш, уларга имтиёзли кредитлар ажратиш ҳамда тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш ва амалга

[24] Ўша жойда.

[25] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2018 йил 7 июнь куни "Ҳар бир оила — тадбиркор" дастурини амалга ошириш тўғрисида"ги қарори ("Халқ сўзи" газетаси. 2018 йил 8 июнь. – 1-2 бетлар.) да кўрсатилган асосий йўналишлардан келиб чиқиб, муаллиф томонидан шакллантирилди.

		ошириш жараёнида мутасадди идоралар томонидан тизимли амалий ёрдам кўрсатилишини таъминлаш лозим бўлади.
2.	Оилавий тадбиркорлик билан шуғулланиш истаги бор кишиларни тадбиркорлик кўникмасини эгаллашга кўмаклашиш – ўқув курсларини ташкил қилиш	Оилавий тадбиркорлик билан шуғулланиб, оилага даромад келтирадиган меҳнат фаолияти билан банд бўлиш истаги бўлсаю, уларда тадбиркорлик билан шуғулланиш бўйича билими ва кўникмаси бўлмаса, бундай оила аъзоларини ўқитиш ва тадбиркорлик кўникмаларини ўргатиш ҳамда тегишли фаолият турларини ташкил қилишга амалий ёрдам кўрсатиш мақсадга мувофиқ.
3.	Оилавий тадбиркорликни кенгайтиришга кўмаклашиб, янги иш ўринларини яратиш	Оилавий тадбиркорлик билан шуғулланаётган субъектларда имкониятлар пайдо бўлиб, тадбиркорлик фаолиятини кенгайтиришга зарурат пайдо бўлган тақдирда, уларга амалий ёрдам бериш орқали қўшимча иш ўринлари яратиб бандлик муаммосининг ҳал бўлишига кўмаклашиш лозим бўлади.
4.	Оилавий тадбиркорликни касаначилик ва кичик ҳажмда ишлаб чиқарувчи микрофирмаларни ташкил этиш эвазига даромад маанбаини кенгайтириш	Оилавий тадбиркорликнинг, айниқса ёш болали оилаларни касаначилик орқали бандлигини таъминлаш ва кичик ҳажмда ишлаб чиқарувчи субъектларни (микрофирмаларни) ташкил этиш учун маҳаллаларда касаначилик марказларини ташкил қилиш, зарур ҳолларда уларга молиявий ёрдам бериш орқали аҳолини банд қилиш ва қўшимча даромад ишлаб топиш имкониятини яратиш лозим.
5.	Ҳар бир оиланинг ихтисослашувини ҳисобга олган ҳолда мини кластерларни ташкил қилиш	Мамлакатимиздаги қишлоқ ва шаҳар маҳаллаларнинг ихтисослашувини (ҳунармандчилик, тикувчилик, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг айрим турларини етиштириш, ихчам иссиқхоналар ташкил қилиш ва бошқалар) ҳисобга олган ҳолда мазкур соҳани кенгайтириш орқали бандлик муаммосини ҳал қилиш бўйича ижобий натижаларга эришган ишбилармонлик тажрибасига эга тадбиркорларни маҳаллаларда янги бизнес фаолияти билан шуғулланишни бошлаган оилаларга бириктириш – мини-кластерлар ташкил этишга кўмаклашиб, тадбиркор-

		ликни ривожлантиришга эришиш.
6.	Оилавий тадбиркорликка кўмаклашадиган инфра-тузилма объектларини яратиш	Қишлоқ жойларда оилавий тадбиркорлик-ка кўрсатиладиган хизматлар кўламини тубдан кенгайтириш, тадбиркор оилалар-нинг ишлаб чиқарган маҳсулотлари сақлаш ва сотишини ташкил қилувчи бозор инфратузилмаси объектлари, хизмат кўрсатиш ва сервис шохобчаларини барпо этиш орқали янги иш ўринларини яратиш ва шу йўллар билан оилавий тадбиркор-ликни ривожлантиришга кўмаклашиш.
7.	Бўш турган ер майдонла-ри ва биноларни оилавий тадбиркорлик билан шуғулланиш истагидаги аҳолига бериш	Мамлакатимизнинг қишлоқ ва шаҳар маҳаллаларида бўш турган ер майдонлари-ни янги ташкил этилаётган маҳаллий оилавий тадбиркорлик субъектларига кимошди савдосини ўтказмасдан бериш орқали аҳоли учун қўшимча иш ўринлари ва оилалар учун даромад манбаларини яратиш;
8.	Маҳаллаларда давлат рўй-хатидан ўтмасдан фаолият юритаётган тадбиркорлар-ни қонунийлаштириш	Маҳаллаларда кўплаб давлат рўйхатидан ўтмасдан фаолият юритаётган якка тадбиркорлар мавжуд. Буларни аниқлаб, улар фаолиятини қонунийлаштириб, рўйхатга олиш ва иш билан бандлик рўйхатига киритиб, уларнинг молиявий хўжалик фаолиятини йўлга қўйиш юзаси-дан аниқ чора-тадбирларни амалга оширишга эришиш ҳам мақсадга мувофиқ.

Жадвалдан кўриниб турибдики, биринчи галда тадбиркорлик ташаббусларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш лозим экан. Буни амалга ошириш учун оилавий тадбиркорлик билан шуғулланиш истагида бўлган аҳолининг тадбиркорлик ташаббусларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш лозим бўлади. Ушбу тадбирлар бир қанча ишларни амалга оширишни тақозо қилади. Хусусан, тадбиркорлик фаолиятини ташкил этиш уларга имтиёзли кредитлар ажратиш мақсадга мувофиқ бўлади. Тадбиркорликни амалга оширишнинг ҳар бир босқичида мутасадди идоралар томонидан тизимли амалий ёрдам кўрсатилишини таъминлаш масаласи ҳам ўта долзарб масалалр сирасига киради. Бу борада тадбиркорлар билан банк ходимлари ўртасида келиб чиқадиган турли келишмовчиликлар ва низоларнинг ҳам олди олинади.

Юқоридаги ишларни амалга ошириш билан боғлиқ яна бир масала, оилавий тадбиркорлик билан шуғулланиш истаги бор кишиларни оилавий

тадбиркорлик бўйича тегишли малака ва кўникмасини эгаллашга кўмаклашиш масаласидир. Бунинг учун жойлардаги савдо-саноат палаталари айнан маҳаллаларда шу йўналишлар бўйича ўқув курсларини ташкил қилиш ҳам мақсадга мувофиқдир.

Оилавий тадбиркорлик албатта даромад келтирадиган меҳнат фаолиятидан иборатдир. Ушбу ишлар билан шуғулланмаган аҳолига тадбиркорлик кўникмаларини ўргатиш ва тегишли фаолият турини ташкил қилиш учун мавжуд имкониятлардан келиб чиқиб, амалий ёрдам кўрсатиш ҳам маҳаллий ҳокимият раҳбарлигида маҳаллаларда амалга ошириш лозим бўлади.

Ҳар бир ташкил қилинган оилавий тадбиркорлик субъектида янги иш ўринлари яратилади ва у ерда истиқомат қилувчилар ҳар куни “бир бурда нони”ни ишлаб топади. Шу туфайли оилавий тадбиркорликни кенгайтиришга кўмаклашиб, янги иш ўринларини яратиш масалаларига алоҳида эътиборни қаратиш лозим бўлади. Оилавий тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришга амалий ёрдам бериш орқали қўшимча иш ўринлари яратилади. Бунинг энг характерли жиҳати шундаки, ходим ҳеч кимга тобе бўлмйди. У ўзини-ўзи иш билан таъминлаш билан бирга ҳамма масъулият ўз бўйнига олади. Бунда оилавий тадбиркорлар “ўзига-ўзи масъул ва ўзига-ўзи жавобгар” томойилида иш кўради.

Алоҳида таъкидлаш жоизки, оилавий тадбиркорликни касаначилик ва кичик ишлаб чиқарувчи микрофирмаларни ташкил этиш эвазига ҳам ривожлантириш йўли мавжуд. Шу йўл билан оилаларнинг даромад манбаини кенгайтиришга эриши лозимдир. Ҳозирги кунда касаначилик ва кичик ҳажмда ишлаб чиқарувчи субъектларни (микрофирмаларни) ташкил этиш учун тегишли имкониятларни ишга солиш мумкин. Жумладан, йирик корхоналар йўқ бўлган қишлоқ жойларда касаначиликни ташкил қилиб, уларга молиявий ёрдам бериш орқали аҳолини банд қилиш ва уларнинг қўшимча даромад ишлаб топиш имкониятини яратади.

Оилавий тадбиркорлик субъектларининг асосий қисми мкрофирмалар доирасида кичик ҳажмдаги корхоналарга тўғри келади. Аммо маҳсулотни ишлаб чиқаришни ташкил қилиш, уни сақлаш, қайта ишлаш, сотиш каби жараёнлар битта оилага оғирлиқ қилади. Шу туфайли қишлоқларда ҳар бир оиланинг ихтисослашувини ҳисобга олган ҳолда мини кластерларни ташкил қилиш ҳам мақсадга мувофиқдир.

Тадқиқотларимиз кўрсатдики, қишлоқ ва шаҳар маҳаллаларининг ихтисослашуви турли йўналишда бўлиши мумкин экан. Бир жойда аҳоли асосан ҳунармандчилик билан шуғулланса, иккинчи қишлоқда ёки шаҳар маҳалласида тикувчилик яхши йўлга қўйилган. Бугунги кунда, қишлоқ туманларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг айрим турларини етиштириш, ихчам иссиқхоналар ташкил қилиш масалаларига ҳам алоҳида аҳамият берилмоқда. Буларни ҳисобга олган ҳолда мазкур соҳада ижобий натижаларга эришган ишбилармонлик тажрибасига эга тадбиркорларни маҳаллаларда янги бизнес фаолияти билан шуғулланишни бошлаган оилаларга бириктириш орқали мини-кластерлар ташкил этиш мақсадга

мувофиқ. Кластерларнинг ижобий жиҳатлари жуда кўп, улардан бири қишлоқ хўжалик маҳсулотларини “даладан дастурхонгача” тамойили асосида етказиш жараёнларини битта жамода тўпланишидир. Бунинг афзаллиги, маҳсулотнинг нобуд бўлиши кескин камаяди, сотиш жараёнида хизматлар сифати ошади, муҳими озиқ-овқат хавфсизлигининг таъминланишига хизмат қилади.

Бугунги кунда оилавий тадбиркорликка кўмаклашадиган инфратузилма объектларини яратиш масаласи ҳам ўта долзарб масалалардан биридир. Ҳозирги пайтда қишлоқ жойларда оилавий тадбиркорликка кўрсатиладиган хизматлар кўламини тубдан кенгайтиришни тақозо қилмоқда. Оилавий тадбиркорларнинг ишлаб чиқарган маҳсулотлари сақлаш, қайта ишлаш ва савдосини ташкил қилиш бевосита у ердаги бозор инфратузилмаси объектларининг мавжудлиги ва хизмат кўрсатиш ҳамда сервис шохобчаларини барпо этилиши билан ҳам боғлиқ жиҳатлари кўп. Шу туфайли оилавий тадбиркорликнинг асосий йўналишларидан бири, аҳолига, ишлаб чиқарувчи субъектларга хизмат кўрсатиш инфратузилмасини барпо этишга қаратишни тақозо қилади. Зеро, хизмат кўрсатиш асосан қўл меҳнати билан амалга оширилганлиги учун, унинг субъектлари қанча кўп бўлса, аҳолининг бандлиги ҳам шунча кўп бўлади.

Малумки, қишлоқ жойларда жуда кўп бинолар ва ер майдонлари фойдаланилмасдан келинмоқда. Шу туфайли бўш турган ер майдонлари ва биноларни оилавий тадбиркорлик билан шуғулланиш истагидаги аҳолига кимошди савдосини ўтказмасдан бериш амалиётини жорий қилиш лозим бўлади. Бунинг учун қишлоқ ва шаҳар маҳаллаларида бўш турган ер майдонларини асосан янги ташкил этилаётган оилавий тадбиркорлик субъектларига бериш мақсадга мувофиқ. Чунки тадбиркорликнинг дастлабки қадамлари енгил бўлса, келажакда улар кучайиб кетишига яхшигина имконият бўлади. Ушбу тадбирлар ҳам аҳоли учун қўшимча иш ўринлари ва даромад манбаларини яратишда асосий омиллардан бири бўлиб қолади.

Ҳозирги кунда маҳаллаларда давлат рўйхатидан ўтмасдан фаолият юритаётган “тадбиркорлар” ҳам етарли. Эндиликда буларнинг фаолиятига барҳам берадиган вақт келди. Чунки, рўйхатидан ўтмасдан фаолият кўрсатиш яширин иқтисодиётнинг жойлардаги илдиз отган элементлардан бири бўлиб ҳисобланади. Ушбу фаолиятни қонунийлаштириб, тегишли тартибда рўйхатдан ўтказиб, тўлақонли тадбиркорлик субъектига айлантириш лозим.

Яширин иқтисодиёт билан шуғулланган тадбиркорлар пул маблағларини ишлаб топиб, уни айланма маблағлрни қўлга киритсаларда, давлат томонида молия-хўжалик фаолиятини амалга оширувчи ҳисобланмайди. Чунки унинг маҳсулот ялпи ҳудудий маҳсулотда ҳам, солиқ базасида ҳам ифода этилмайди. Шу туфайли бугунги кунда давлат рўйхатидан ўтмасдан фаолият юритаётган тадбиркорларни аниқлаб, улар фаолиятини тиклаш ва қонунийлаштириш юзасидан аниқ чора-тадбирларни амалга ошириш лозим бўлмоқда. Ушбу тадбирлар мамлакатимизда яширин иқтисодиётни бартараф қилиш билан бирга аҳолининг қонуний даромадларини кўпайтиришнинг, бюджетга тўланадиган солиқларнинг янги манбаларининг пайдо бўлиш

имкониятларини ҳам яратади.

Хулоса қилиб айтганда, хизмат кўрсатиш соҳасида оилавий тадбиркорлик ривожлантириш орқали аҳоли бандлигини таъминлаш ва даромадларини оширишнинг асосий йўналишлари амалиётга жорий қилинса, аҳолининг бандлиги таъминланиб, ишсизлик муаммоси ҳал қилинади, даромадлари кўпайиб, уларнинг фаровонлиги, яшаш даражаси ва сифатининг оширилишига эришилади. Бу мос равишда 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган **Янги** Ўзбекистоннинг **Тараққиёт стратегияси** ижросини, аҳоли бандлигини таъминлаш бўйича давлат органлари ишлари самарадорлигини ошириш, аҳолини меҳнат фаолиятига жалб қилиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, шунингдек, янги иш ўринларини ташкил этувчи тадбиркорлик субъектлари фаолиятини рағбатлантириш имкониятларини ҳам яратади.

Адабиётлар рўйхати

1.Shodieva G. M., Pardaeva O. M. Problems of family entrepreneurship developing and increasing employment and income of the population and reducing poverty //Gwalior Management Academy. – Т. 23. – С. 210.

2.Bhadouria P. S. GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY //WAY. – Т. 87.

3.Shadieva G. M., Kuvandikov S. O. " Mahallabay" approach to assessing the role of family entrepreneurship in regional development //Экономика: анализы и прогнозы. – 2021. – №. 3. – С. 122-126.

MLA

4.Shadiyeva G. Opportunities to Develop Small Business and Family Entrepreneurship in Rural Areas //Academic Journal of Digital Economics and Stability. – 2021. – Т. 7. – С. 101-106.

5.Shodieva G. M. Problems of organizational and economic factors and service development in the improvement of family welfare (Doctoral dissertation, Dissertation for the degree of Doctor of Economics. Samarkand). – 2008

6.Mardievna S. G., Boltaevna S. F. The role of public-private partnerships in attracting investment projects in the transport sector //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – Т. 27. – №. 6

B.M.Abduraimov - SamDU mustaqil izlanuvchi

XIZMATLAR SOHASIDA SIFATNI OSHIRISHDA STANDARTLASHTIRISHNING ROLI

Annotasiya. *Maqolada SQuaRE (Software product Quality Requirements and Evaluation) standartlari seriyasining mazmuni, umumiy mos modellari va ta'riflari hamda hujjatlar o‘rtasidagi munosabatlari haqida umumiy ma'lumotlar berilgan, bu SQuaRE standartlari foydalanuvchilariga ushbu standartlar*

seriyasining qoidalarini to‘liqroq tushunishga va ulardan ko‘zlangan maqsadi yo‘lida samarali foydalanishga imkon beradi.

***Аннотация**. В статье дается обзор содержания, общих моделей соответствия и определений, а также взаимосвязи между документами серии стандартов Square (требования к качеству программного продукта и оценка), что позволяет пользователям стандартов Square более полно понимать правила этой серии стандартов и эффективно использовать их для достижения своей предполагаемой цели.*

***Annotation.** The article provides an overview of the content, general compliance models and definitions, as well as the relationship between the documents of the Square standards series (software product quality requirements and evaluation), which allows users of the Square standards to more fully understand the rules of this series of standards and effectively use them to achieve their intended goal.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli xizmat, ISO 25000 xalqaro standarti, SQuaRE xalqaro standarti, axborot kommunikasiya texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot.*

***Ключевые слова:** цифровой сервис, международный стандарт ISO 25000, международный стандарт Square, информационно-коммуникационные технологии, цифровая экономика.*

***Keywords:** digital service, international standard ISO 25000, Square standard, information and communication technologies, digital economy.*

Bilamizki, ISO (xalqaro standartlashtirish tashkiloti) sifat standartlaridan foydalanish turli sohalarda xo‘jalik faoliyatini yurituvchi tashkilotlar uchun katta foyda keltirishi bugunki kunda olib borilgan empirik tadqiqotlar natijasida o‘z isbotini topdi. Ushbu standartlar o‘z navbatida ishlab chiqariladigan mahsulotlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar va bo‘ladigan jarayonlarning yuqori sifatini ta'minlash uchun xalqaro qoidalar va tavsiyalarni belgilaydi. Buning uchun ISO sifat standartlaridan foydalanishning bir nechta asosiy afzalliklarini keltirib o‘tamiz:

- **Ishlab chiqariladigan mahsulot va ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatining yaxshilashnishi.** ISO standartlari tashkilotlarga o‘z mahsulotlari va xizmatlarining yuqori sifatini ta'minlash bo‘yicha uslubiy metodologik tavsiyalar beradi. Bu mijozlar ehtiyojini qondirish va raqobatbardoshlikni oshirishga olib keladi;

- **Xatarlarning kamayishi**. ISO standartlariga rioya qilish tashkilotlarga mahsulot va xizmatlar sifati bilan bog'liq xavflarni aniqlash va ularni yaxshiroq boshqarishga hamda minimallashtirishga yordam beradi. Misol tariqasida ishlab chiqarishdagi brak mahsulot chiqarishda hamda reklama bilan bog'liq muammolarning oldini olishga yordam beradi va ehtimoliy kutilayotgan moliyaviy yo‘qotishlarni kamaytiradi.

- **Jarayonlarni soddalashishi**: ISO standartlari, shuningdek, biznes jarayonlarini takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va operatsiyalarni optimallashtirish usullarini o‘z ichiga oladi. Bu esa samaradorlik hamda ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining iqtisodiy o‘sishiga olib keliadi.

- **Yangi bozorlarga kirish**: Ko‘p hollarda ISO standartlariga rioya qilish yangi biznes uchun imkoniyatlar eshiklarini ochadi. Bu esa muayyan davlat

xaridlarida ishtirok etish yoki yangi bozorlarda o‘z ulushingizga ega bo‘lishingizga bildiradi.

- **Mijozlar ishonchini mustahkamlash**: Agar tashkilot o‘z mahsulotlari va xizmatlari xalqaro sifat standartlariga javob berishini namoyish eta olsa, bu mijozlar va sheriklarning ishonchini oshiradi.

- **Qonunchilikka rioya qilish**: ISO standartlariga rioya etilishi tashkilotlarga, ayniqsa mahsulot xavfsizligi va sifati bo‘yicha amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilishga yordam beradi.

Bugunki kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha sohasiga jadal kirib bormoqda. O‘z navbatida, bunday rivojlanish yo‘liga o‘z vaqtida kirishgan davlatlar muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Eskicha mehnat qilayotgan davlatlar esa taraqqiyotdan ortda qolmoqda. Mamlakatimizning istiqboli, jahon xamjamiyatida qanday mavqega ega bo‘lishi, tinch-osoyishta hayot va iqtisodiy faravonlik ta’minlanishi, bularning barchasi, birinchi navbatda, bir olam orzular bilan katta hayotga qadam tashlayotgan yangi avlodning ta’lim tarbiyasiga hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida barcha sohada zamonaviy axborot texnologiyalarini tadbiq etish yotadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, axborot texnologiyalari sohasi rivojlanmasa, qolgan hech bir soha rivojlanmaydi, chunki bu — zamon talabi, bu barcha sohada, sanoatda, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishda, ijtimoiy hayotda, davlat boshqaruvida ham muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shunday ekan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida xizmatlar sohasida sifatni oshirish uchun ISO 25000 xalqaro standartidan foydalanamiz. ISO 25000 xalqaro standartining boshqa standartlardan farqi - u xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan dasturiy ta'minot sifatini baholash va uni boshqarish uchun ishlab chiqilgan standartlar va qo‘llanmalar to‘plamidir. ISO 25000 standartlari to‘plami SQuaRE (Software product Quality Requirements and Evaluation) standartlari seriyasi sifatida tanilgan. U quyidagi standartlarni o‘z ichiga oladi:

- ISO 25000:2014 - sifatni baholash va modellashtirish tizimlari va dasturlari (SQuaRE) - umumiy tushunchalar (konsepsiya) to‘plami.

-ISO 25010:2011 - sifatni baholash va modellashtirish tizimlari va dasturlari (SQuaRE) - Mahsulot sifati modeli.

-ISO 25012:2008 - sifatni baholash va modellashtirish tizimlari va dasturlari (SQuaRE) - Sifat talablari va mahsulot sifati to‘g‘risida ma'lumotlar.

-ISO 25020:2007 - sifatni baholash va modellashtirish tizimlari va dasturlari (SQuaRE) - Mahsulot sifatining quyi tizimlari.

-ISO 25030:2007 - sifatni baholash va modellashtirish tizimlari va dasturlari (SQuaRE) - Mahsulot samaradorligini baholash modellariga qo‘yiladigan talablar.

Ushbu standartlar dasturiy ta'minot sifatini, shu jumladan uning xususiyatlari, talablari va ishlashini baholash uchun tavsiya xarakterga ega. ISO 25000 va unga tegishli standartlar ishlab chiquvchilar, mijozlar va dasturiy ta'minot baholovchilariga mahsulot sifatini aniqroq aniqlash va baholashga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli xizmat ko‘rsatish sohasida ISO 25000 xalqaro standartlaridan (shuningdek, SQuaRE-Software Quality Requirements and Evaluation standartlari seriyasi deb ham ataladi) foydalanish bir qator ijobiy natijalar va afzalliklarga olib kelishi mumkin. Ushbu standartlar axborot kommunikasiya sohasida dasturiy ta'minot, tizimlar va xizmatlar sifatini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan. Ko‘rsatilayotgan raqamli xizmatlar sifati mahsulot sifatiga va ma’lumotlar sifatiga asoslanadi, bu keng ma’noda samaradorlik, natijadorlik va qoniqish tushunchalariga muvofiq “foydalanish sifati” tushunchasining shakllanishiga olib keladi.



1-rasm. ISO/IEC TS 25011 xalqaro standartiga muvofiq foydalanilayotgan sifat modeli[26]

Bundan kutilayotgan ijobiy natijalar:

Xatarlarning kamayishi: ISO 25000 standarti xizmat bilan bog'liq xavflarni baholash usullarini taqdim etadi va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va zaifliklarni aniqlashga yordam beradi. Bu xavfni kamaytirish choralarini ko‘rishga imkon beradi.

Standartlar va qoidalarga rioya qilish: Ko‘pgina sanoat va hukumat qoidalari sifat standartlariga rioya qilishni talab qiladi. ISO 25000 standartidan foydalanish tashkilotlarga ushbu talablarga javob berishga yordam beradi.

[26] Westerman, G. The Nine Elements of Digital Transformation / G. Westerman, D. Bonnet, A. McAfee [Электронный ресурс] – Режим доступа : https://sloanreview.mit.edu/article/the-nine-elements-of-digital-transformation.

Mijozlar ishonchini oshirish: Agar tashkilot o‘z xizmatining xalqaro sifat standartlariga javob berishini namoyish qila olsa, bu amaldagi mavjud hamda yangi istiqbolli mijozlarlarning ishonchini oshirishi mumkin.

Jarayonlarni takomillashtirish: ISO 25000 standarti yordamida xizmat ko‘rsatish sifatini baholaydi, xizmat ko‘rsatish jarayonlaridagi qiyinchiliklar va muammolarni aniqlaydi, bu esa o‘z navbatida kelgusi istiqbolda ularni optimallashtirish va yaxshilashga olib kelishi mumkin.

Xarajatlarni kamaytirish: xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va xavflarni kamaytirish muammolarni bartaraf etish va qayta ishlash xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, samaradorlik va ijobiy natijalar tashkilotning ISO 25000 standartlariga muvofiqligini qanday amalga oshirishi va nazorat qilishiga bog'liq. Bu menejmentning ishtiroki va qo‘llab-quvvatlashini, shuningdek, jarayonlar va xizmatlar sifatini yaxshilash bo‘yicha tizimli ishlarni talab qiladi.

Xulosa tariqasida, raqamli iqtisodiyotda ISO 25000 standartlaridan foydalanish axborot tizimlari va dasturiy ta'minotining sifati, xavfsizligi va samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu standartlar bugungi raqamli dunyoda muhim bo‘lgan korxonalarning raqobatbardoshligini izchil oshirishga, kutilayotgan xavflarni kamaytirishga va ishonchli mahsulot va xizmatlarni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Орлов С.А. Программная инженерия. Учебник для вузов. 5-е издание обновленное и дополненное. Стандарт 3-го поколения-СПБ.: Питер, 2016-640с:ил-(серия «Учебник для вузов»). ISBN 978-5-496-01917-0

2. М.П. Шашков, И.Ф. Чадин, Н.В. Иванова “Методические рекомендации по стандартизации данных для публикации через глобальный портал gbif.org

и подготовке статьи о данных”. 2017. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-rekomendatsii-po-standartizatsii-dannyh-dlya.html

3. В.В. Холмогоров, В.В. Баранюк “Выбор стандартов в соответствии с этапами жизненного цикла информационных систем.” / International Journal of Open Information Technologies ISSN: 2307-8162 vol. 10, no. 3, 2022

4. ISO/IEC 25051:2014 «Software engineering – Systems and software Quality Requirements and Evaluation (SQuaRE) - Requirements for quality of Ready to Use Software Product (RUSP) and instructions for testing», IDT

5. ГОСТ Р ИСО/МЭК 25051-2017 “Системная и программная инженерия. Требования и оценка качества систем и программного обеспечения (SQuaRE). Требования к качеству готового к использованию программного продукта (RUSP) и инструкции по тестированию”

U.R.Ismatov – SamISI Oliy matematika kafedrasi o‘qituvchisi

ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISH VA JOYLASHTIRISH MODELLARI

Annotatsiya: *Hozirgi sharoitda har bir tarmoqning, korxonaning rivojlanishi va joylashishi uning mahsulotiga bo‘lgan talablarning shakllanishi bilan aniqlanadi.Ushbu maqolada korxonalar va tarmoqlarning ishlab chiqarishini rivojlantirish va joylashtirish modellari haqida so‘z boradi.*

Аннотация: *В современных условиях развитие и размещение каждой отрасли и предприятия определяется формированием требований к ее продукции.В статье говорится о моделях развития и размещения производства предприятий и отраслей.*

Abstract: *In the current conditions, the development and location of each industry and enterprise is determined by the formation of requirements for its products. This article talks about the models of development and deployment of production of enterprises and industries.*

Kalit so‘zlar: *Korxona, ishlab chiqarish, rivojlantirish, joylashtirish, talab, model.*

Ключевые слова: *Предприятие, производство, развитие, размещение, спрос, модель.*

Key words: *Enterprise, production, development, placement, demand, model.*

O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyoti turli-tuman va turli xil mulkchilikka asoslangan korxonalardan iborat bo‘lib, ular respublika hududining turli joylarida faoliyat olib boradilar. Ularning samarali faoliyati respublika iqtisodiyotini asosini tashkil qiladi, shuning uchun ham ularni samarali joylashtirish va rivojlantirish doimo dolzarb muammodir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tarmoqning, korxonaning rivojlanishi va joylashishi uning mahsulotiga bo‘lgan talablarning shakllanishi bilan aniqlanadi. Tarmoq sistemasini optimallashtirishda, uning mahsulotiga bo‘lgan talab bilan birga quyidagi **asosiy elementlar va jarayonlarni** ko‘rsatish mumkin:

- ishlab chiqarish korxonasi moddiy ishlab chiqarishning asosi bo‘lib, tarmoq masalasida asosiy elementdir. Masalaning qo‘yilishiga qarab, bu korxonalar guruhi, korxona yoki sex, uchastka bo‘lishi mumkin;
- korxonaning faoliyat olib borish turlari - bu uning ishlab chiqarish xarakteristikasi bo‘lib, ishlab chiqarish xarajatlari va natijalarining miqdorini, samaradorligini bildiradi;
- transport aloqalarini amalga oshirish turlari - obyektdan, korxonadan iste’molchilarga mahsulotni tashib ketish shartlarini xarakterlaydi. Bunda yuk tashish yo‘nalishi, transport turi va samaradorligi aniqlanadi.

Ishlab chiqarishni optimal rivojlantirish va joylashtirish modellari tanlangan maqsad mezoniga qarab quyidagi muammolarni aniqlashga imkon beradi:

a) ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish, joylashtirish va

ixtisoslashtirish;

b) mavjud texnologiyalar ichidan eng samaralilarini tanlash;

v) yangi qurilish va qayta jihozlash o‘rtasidagi optimal nisbatni tanlash;

g) transport aloqalarini aniqlash;

d) rivojlanish uchun zarur bo‘lgan kapital mablag‘lar va boshqa resurslarga bo‘lgan talabni aniqlash va ularni samarali taqsimlash;

ye) ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni samaradorligini baholash.

Bir turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish va rivojlantirish masalasini modelini tuzish uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

i - ishlab chiqarish korxonalari punkti indeksi, $\left(i=\overline{1,m}\right)$;

j - iste’mol qilish punktlari indeksi, $\left(j=\overline{1,n}\right)$;

B_j - j-punktning mahsulotga bo‘lgan talabi;

A_i - i-punktning maksimal ishlab chiqarish quvvati;

C_{ij} - bir birlik mahsulotni i-punktdan j-punktga tashish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;

S_i - i-punktda bir birlik mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlari (kengaytirish yoki qayta jihozlash);

X_{ij} - i-ishlab chiqarish punktidan j-iste’mol punktiga tashilishi zarur bo‘lgan mahsulot mikdori;

X_i - i-punktdagi korxonaning ishlab chiqarish quvvati.

Yuqoridagi belgilashlar orqali masalaning maqsad funksiyasining mezoni va asosiy shartlarini ifodalaymiz: ishlab chiqarish va etkazib berish xarajatlari belgilangan shartlar doirasida minimallashtirilsin:

$$F=\sum_i S_i\cdot X_i+\sum_i\sum_j C_{ij}\cdot X_{ij}\to\min$$

Quyidagi chegaraviy shartlar bajarilsin:

Har bir iste’mol punktiga tashib keltirilgan mahsulotlarning umumiy yig‘indisi, uning talabiga teng bo‘lsin:

$$\sum_i X_{ij}=B_j,\qquad (j=\overline{1,n})$$

Har bir ishlab chiqaruvchi korxonadan tashib ketilgan mahsulotlar miqdori, korxonaning maksimal quvvatidan ortib ketmasin, korxonaning quvvati esa uning maksimal imkoniyatlari bilan aniqlanadi:

$$\sum_j X_{ij}=X_i\le A_i,\qquad (i=\overline{1,m})$$

Bunda tashilayotgan mahsulotlarning hajmi va korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlari manfiy bo‘lmasliklari kerak:

$$X_{ij}\ge 0,\qquad i=\overline{1,m},\qquad j=\overline{1,n}$$

$$X_i\ge 0,\qquad i=\overline{1,m}.$$

Ko‘p turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish va rivojlantirish modellarida tarmoqda yangi qurilishi kerak bo‘lgan va qayta jihozlanadigan korxonalaridan tashqari ularning ishlab chiqarish hajmi ham aniqlanadi. Bunda turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘zda tutiladi. Bu

mahsulotlar korxonaning asosiy mahsulotlari bilan birga ishlab chiqarilishi mumkin.

Ko‘p turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish va rivojlantirish masalasining sodda iqtisodiy-matematik modelini tuzish uchun quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

i - ishlab chiqarish punktlari indeksi;

j - iste’mol qilish punktlarining indeksi;

k - ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari;

B_j^k - j-iste’molchi punktning k-mahsulotga bo‘lgan talabi miqdori;

A_i - i-punktdagi korxonaning maksimal ishlab chiqarish quvvati;

C_{ij}^k - bir birlik k-turdagi mahsulotni i-ishlab chiqarish punktidan j-punktidagi iste’molchiga tashish xarajatlari;

S_i^k - i-punktdan k-mahsulotni ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;

S_i - i-punktda asosiy mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari;

X_{ij}^k - k-mahsulotni i-ishlab chiqarish punktidan j-iste’molchiga tashish hajmi;

X_i^k - i-korxonada k-turdagi mahsulotni ishlab chiqarish hajmi;

X_i - i-punktdagi korxonaning umumiy quvvati.

Kiritilgan belgilashlar yordamida turli xildagi mahsulotlarni ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish va rivojlantirishning iqtisodiy-matematik modelini, maqsad funksiyasi mezonini quyidagi ko‘rinishda ifodalaymiz:

Umumiy ishlab chiqarish va mahsulotlarni tashish transport xarajatlari minimallashtirilsin:

$$F = \sum_i S_i \cdot X_i + \sum_i \sum_k C_i^k \cdot X_i^k + \sum_i \sum_j \sum_k C_{ij}^k \cdot X_{ij}^k \to \min$$

Bunda quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

Har bir iste’molchining turli mahsulotlarga bo‘lgan talabi to‘la qondirilishi zarur:

$$\sum_i X_{ij}^k = B_i^k, \qquad j = \overline{1,n}, \qquad k = \overline{1,k}$$

Har bir ishlab chiqaruvchidan tashib ketilgan turli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmiga teng bo‘lsin:

$$\sum_j X_{ij}^k = X_i^k, \qquad k = \overline{1,k}, \qquad i = \overline{1,m}$$

Korxonaning ishlab chiqarilgan turli mahsulotlari uning maksimal ishlab chiqarish quvvatidan oshib ketmasligi kerak:

$$\sum_k X_i^k = X_i, \qquad i = \overline{1,m}$$

Modelda foydalangan noma’lumlar manfiy bo‘lmasligi shart:

$$X_{ij}^k \geq 0, \quad i = \overline{1,m}, \quad j = \overline{1,n}, \quad k = \overline{1,k};$$

$$X_i^k \geq 0, \quad i = \overline{1,m}, \quad k = \overline{1,k};$$

$$X_i \geq 0, \quad i = \overline{1,m}.$$

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishning iqtisodiy tadbirlaridan eng asosiysi milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida bozor talabiga muvofiq

kichik biznes korxonalarini barpo etish lozim. Bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish miqyosini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bunga esa, mavjud ishlab chiqarishda mehnat unumdorligini oshirish, ish joylarida moddiy-texnikaviy, texnologiya va sarmoyalar ta’minotlarini yaxshilash, yangi noqishloq xo‘jaligi mehnati hududlarini tashkil etish, ish vaqtidan unumli foydalanish, ishlovchilarning moddiy manfaatdorligini oshirish va oqilona soliqlar orqali erishish mumkin.

Muhim iqtisodiy tadbirlar majmuasiga qishloq xo‘jaligi va sanoatning asosiy mahsulotlariga talab va taklifga asosan istiqbol ko‘rsatkichlarini belgilash.

Ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirish muammosini hal etish orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- aholining ish bilan bandlik darajasi ortadi, buning natijasida esa yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarishni sur’atlari oshadi;
- aholi daromadlarining asosiy manbai bo‘lib qoladi va odamlarning munosib hayot kechirishlarini ta’minlashning asosiy yo‘llaridan biri bo‘ladi;
- hududlarning ifratuzilma komplekslari rivojlanishiga sabab bo‘ladi;
- yangi texnologiyalarga ega bo‘lgan zamonaviy obyektlar barpo etiladi;
- mahsalliy bozor kerakli bo‘lgan mahsulotlar bilan ta’minlanadi, ya’ni tovar taqchilligining oldi olinadi;
- eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish ko‘payadi;
- respublika va mahsalliy byudjetlarga valyuta tushumlarining oqimi ko‘payadi;
- ko‘plab tarmoqlar va korxonalarning birgalikdagi kooperasiyasi kuchayadi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev O.M., Ismoilov A.A., Ishnazarov A.I. Iqtisodiy-matematik usullar. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2007. - 195 b.

2. Shodiyev T.Sh. va boshkalar. Iqtisodiy-matematik usullar va modellar. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2010. - 297 b.

Дубина И.Н. Математико-статистическое методи в эмпирических социально-экономических исследованиях. Учебное пособие. —М.: ИНФРА-М, 2010.- 381 с.

T.G‘.Durumov - Urganch davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASASALARI

Annotatsiya: *Mehnat bozorlari mehnatga bo‘lgan talabni iqtisodiy nuqtai nazardan moslashtirishning qo‘shimcha vositasidir. Ushbu maqolada Germaniya mehnat bozorida innovatsion texnologiyalar sifatida qisman bandlik agentliklarining iqtisodiy ahamiyati va rivojlanishi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsion bandlik agentligi, Vaqtincha bandlik agentligi, ishsizlik, ishsizlik muammolari, mehnat, mehnat munosabatlari, mehnat resurlari, bandlik, bandlik muammolari, mehnat unumdorligi, qisman bandlik.*

Аннотация: *Рынки труда являются дополнительным средством регулирования спроса на рабочую силу с экономической точки зрения. В данной статье анализируется экономическое значение и развитие агентств частичной занятости как инновационных технологий на немецком рынке труда.*

Ключевые слова: *Инновационное агентство занятости, Агентство временного трудоустройства, безработица, проблемы безработицы, труд, трудовые отношения, трудовые ресурсы, занятость, проблемы занятости, производительность труда, неполная занятость*

Abstract: *Labor markets are an additional means of adjusting the demand for labor from an economic point of view. This article analyzes the economic importance and development of partial employment agencies as innovative technologies in the German labor market.*

Key words: *Innovative employment agency, Temporary employment agency, unemployment, unemployment problems, labor, labor relations, labor resources, employment, employment problems, labor productivity, part-time employment*

Kirish. Mamlakatimizda bo‘sh va kvotalanadigan ish o‘rinlariga band bo‘lmagan aholini joylashtirish, o‘zini o‘zi band qilishning samarali yo‘llarini rivojlantirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda. Bu borada har yili maxsus dasturlar qabul qilinyapti. Lekin, shunga qaramay, fuqarolarni ish bilan ta’minlashda ijobiy natijalarga erisha olmayapmiz.

Prezidentimizning “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi, ayniqsa, yoshlar bandligini ta’minlash masalasidagi muammolarni bartaraf etishning yangi va samarali mexanizmlari aks ettirilgan. Qaror bilan aholi bandligini ta’minlash yo‘nalishidagi faoliyatni takomillashtirish hamda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirishga doir “Yo‘l xaritasi” ham tasdiqlangan.

Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari ham oshirilmoqda.

Jamg‘armaga shu yilning o‘zida respublika byudjetidan qo‘shimcha 150 milliard so‘m, 2019 yildan boshlab esa 300 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratib boriladi. Hujjatga ko‘ra, kichik tadbirkorlik subyektlariga, fermer va dehqon xo‘jaliklariga, oilaviy tadbirkorlik subyektlariga eng kam ish haqining 500 baravarigacha bo‘lgan miqdorda uch yilga olti oylik imtiyozli davr bilan mikrokreditlar berilmoqda.

Vaqtincha band ishchilar uchun nisbiy ish haqining pasayishiga qaramay, vaqtinchalik ish topshiriqlari yuqori qo‘shimcha to‘lovlar ushbu ish shakli uchun sezilarli soya narxini ko‘rsatadi. Ish almashinuvining yuqori darajasi nemis vaqtincha bandlik agentligi sektorining kichik hajmiga zid keladi, bu esa kirish stavkalarining pastligi sababli agentlik xodimlariga bo‘lgan talabdan ko‘ra taklif bilan bog'liq bo‘lishi mumkin. Vaqtincha bandlikning ahamiyati ortib borayotganiga qaramay, ushbu sektorda ma'lumotlarning etarli emasligi ilmiy tadqiqotlarga jiddiy to‘sqinlik qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Vaqtinchalik ish bilan ta'minlash agentligining har bir xodimi uchun mumkin bo‘lgan mehnat munosabatlari bilan bog'liq ko‘nikmalar va talablar haqida ma'lumot beruvchi portfel yaratiladi. Ariza beruvchilar ushbu hovuzdan tanlab olinadi va ma'lum muddatga kompaniyalarga joylashtiriladi. Talablar va arizachi profilining mos kelishiga e'tibor qaratiladi.

Xodimlarni ijaraga olish uchun bandlik agentligidan litsenziya talab qilinadi. Faqat bu bilan vaqtinchalik ishchilarni ishga olish huquqiga ega bo‘lgan xodimlar xizmati provayderi shakllanadi. Nufuzli vaqtincha bandlik agentliklari ham yirik sanoat assotsiatsiyasining a'zolari bo´lishi mumkin.

Vaqtincha bandlik agentliklari abituriyentlarga soddalashtirilgan ish qidirishni taklif qiladi, chunki ular faqat bir marta murojaat qilishlari kerak va keyin bir nechta kompaniyalarda ishlashi mumkin. Ko‘pgina kompaniyalar o‘z nomzodlariga keng ko‘lamli maslahat beradilar, ularni professional martabalarida qo‘llab-quvvatlaydilar, ularni muntazam ravishda o‘qitadilar va ish topshiriqlariga mutaxassis darajasida tayyorlaydilar. Shu tarzda, vaqtinchalik ishchilar ularni ish bilan ta'minlaydigan kompaniyalardan muntazam ravishda takliflar oladi.

“Rivojlangan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Germaniyada 50 000 ga yaqin Vaqtincha bandlik agentliklari mavjud. Ularning 11 ming 600 nafari vaqtinchalik ish bilan ta’minlangan. Quyida mashhur Lünendonk ro‘yxati bo‘yicha Germaniyadagi etakchi vaqtinchalik ish bilan ta'minlash agentliklarini topasiz. Bu 2019 moliyaviy yil uchun joriy reyting:

https://karrierebibel.de/zeitarbeitsfirmen/

Vaqtincha bandlik atamasi Germaniyada sanoatning boshlanishidan kelib chiqqan. 1960 yil oktyabr oyida Gyunter Bindan o‘z nomi bilan Bremenda birinchi nemis Vaqtincha bandlik agentligiga asos soldi.

2003 yil 1 yanvarda Shröder hukumatining o‘sha paytdagi Iqtisodiyot va mehnat federal vaziri Volfgang Klement 2010 yil kun tartibining bir qismi sifatida vaqtinchalik ish bilan ta'minlash to‘g'risidagi qonundan (AÜG) Vaqtincha bandlik uchun bir nechta huquqiy asos shartlarini bekor qildi. Mehnat bozorini yanada moslashuvchan qilish, maksimal lizing muddati bo‘yicha cheklovning bekor

qilinishi, muddatli shartnomalar bo‘yicha taqiq, qayta ishga joylashish va dublyajni taqiqlashning o‘rnini qoplash uchun teng munosabatda bo‘lishning yangi tamoyili joriy etildi. Shu bilan birga, vaqtinchalik ishchilarga ish haqi, ta'til va ish vaqti bo‘yicha doimiy ishchilar bilan bir xil munosabatda bo‘lish (teng ish haqi va teng muomala deb ataladi) berilishi kerak.

Tahlil va natijalar. Vaqtincha bandlik agentligi ishchilarni boshqa kompaniyaga taklif qilishini anglatadi, ammo ular ushbu kompaniyada emas, balki vaqtinchalik ish bilan ta'minlash agentligida ishlaydi. Ba'zi hollarda, bu vaqtinchalik band deb ham ataladi. Germaniyada 2020 yilda asosan vaqtinchalik ish bilan shug'ullangan 11,500 ga yaqin kompaniya bor edi. Germaniyada aylanma, ichki xodimlar va vaqtinchalik ishchilar soni bo‘yicha eng yirik vaqtinchalik ish bilan ta'minlash agentliklari Randstad va Adecco hisoblanadi.

2004 yildan 2021 yilgacha Germaniyadagi barcha xodimlar orasida vaqtinchalik ishda bo‘lgan xodimlarning ulushi quyidagi jadvalda berilgan:



Xulosa va takliflar. Germaniyada vaqtincha bandlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu korporativ sektorga xodimlarni moslashtirish uchun jozibador variantni taklif qiladi va ishsizlarga birinchi mehnat bozoriga (qayta) kirish imkoniyatini beradi. 2004 yildan boshlab vaqtinchalik mehnatni keng qamrovli isloh qilish kelgusida bandlik salohiyatidan yaxshiroq foydalanish istagida bandlik siyosatiga qiziqishdan dalolat beradi.

Xodimlar uchun vaqtinchalik ishning odatiy ishga nisbatan jozibadorligi cheklangan. Agar kuzatilishi mumkin bo‘lgan individual xususiyatlar hisobga olinsa ham, ish haqi ijtimoiy sug'urta badallari to‘lanadigan xodimlar darajasidan ancha past bo‘ladi. Qonunga kiritilgan o‘zgartirish natijasida ushbu ish haqining moslashuvchanligi 2004 yildan boshlab sektorni keng miqyosda tartibga solishga almashtiriladi. Cheklov, sinxronizatsiya va qayta ishga joylashish bo‘yicha taqiqlar almashtirilmasdan bekor qilinadi va vaqtinchalik ishda ish haqi bundan buyon jamoaviy kelishuv asosida belgilanadi. Iqtisodiy siyosatchilar uchun vaqtinchalik

mehnatni tartibga solish bo‘yicha asosli qarorlarni vaqtinchalik mehnatni har tomonlama o‘rganish imkonini beradigan ma'lumotlarga kirish imkoniyati bo‘lmasa qabul qilish oson emas.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi https://mehnat.uz/oz/news/ilhom-abrorov-ozbekiston-respublikasi-bandlik-va-mehnat-munosabatlari-vazirligi-boshqarma-boshligi-maqsadimiz-ishsizlikni-bartaraf-qilish
2. M. Kristian Seigis: Ijtimoiy chegaradagi vaqtinchalik ishchilar - Germaniyadagi vaqtinchalik ishchilar. Tectum Verlag, Marburg 2011, ISBN 978-3-8288-2679-3.
3. Rikarda C. Bouncke: Germaniyada vaqtinchalik ishning yangi roli. R Hamp, Mehring 2012 yil.
4. Ulrich Bretschneider: Vaqtinchalik ishda hisoblash. Aumann, Koburg, 2011 yil
5. Marijan Misetic: "Avlod 50 plus va vaqtinchalik ish". Faktlar va amaliy tajriba. Aumann nashri, 2011 yil, ISBN 978-3-942230-70-4.
6. Sonja Elghahwagi: Vaqtinchalik ish bilan ta'minlash. Asoslar, rivojlanish, maqsadlar. vdm nashriyot uyi dr. Myuller, 2006, ISBN 3-86550-155-9.
7. Mark A. Fischer: Vaqtinchalik ishni tanqidiy baholash. GRIN Verlag, 2013 yil, ISBN 978-3-656-40300-5.
8. Anke Freckmann: Vaqtinchalik ish. 2-nashr. Verlag qonuni va iqtisodiyoti, 2005, ISBN 3-8005-4221-8.
9. https://de.statista.com/themen/723/zeitarbeit/#dossierKeyfigures
10. https://de.wikipedia.org/wiki/Datei:Entwicklung_atypischer_Besch%C3%A4ftigung_anhand_bei_der_Bundesagentur_f%C3%BCr_Arbeit_als_offen_gemeldeten_Stellen.png
11. https://de.wikipedia.org/wiki/Arbeitnehmer%C3%BCberlassung

J.K.Boymurodov – SamDU Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi tayanch doktoranti

SANOAT KORXONALARI INNOVATSION SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MADANIYATNING ROLI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sanoat korxonalarning innovatsion salohiyatini rivojlanishtirishda innovatsion madaniyatning roli nazariy jihatdan tahlil qilib, ularni innovatsion rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion texnologiya,*

innovatsion salohiyat, strategiya, iqtisodiy samara, sanoat, texnik-texnologik omillar.

Аннотация. *В данной статье теоретически анализируется роль инновационной культуры в развитии инновационного потенциала промышленных предприятий и предлагаются основные направления их инновационного развития..*

Ключевые слова: *инновации, инновационная деятельность, инновационные технологии, инновационный потенциал, стратегия, экономическая эффективность, промышленность, технико-технологические факторы.*

Abstract. *This article theoretically analyzes the role of innovative culture in developing the innovative potential of industrial enterprises and proposes the main directions of their innovative development.*

Keywords: *innovation, innovative activity, innovative technology, innovative potential, strategy, economic efficiency, industry, technical and technological factors.*

Innovatsion salohiyat innovatsion strategiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirish mexanizmida asosiy vosita bo‘lib, innovatsion faoliyatni qay darajada rivojlantirish imkoniyatlarini baholash imkonini beradi. Innovatsion salohiyatni shakllantirish va rivojlantirishga turli omillarning ta'siri bilan bir birga, tadbirkorlik foaliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.Innovatsion salohiyatni shakllantirishning muhim shartlariga quyidagilar ta’kidlab o‘tishimiz mumkin:

- davlat siyosatining innovatsion yo‘nalishi;
- iqtisodiyotning innovatsion turini rivojlantirish talablariga javob beradigan normativ-huquqiy baza;
- rivojlangan innovatsion infratuzilma;
- biznes, fan va ta’limning o‘zaro hamkorligidan innovatsion rivojlanish sinergiyasi ta’sirini ta’minlash;
- innovatsiyalar uchun zarur bo‘lgan etarli resurslarning mavjudligi; korxonalarning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mavqeini oshirish uchun innovatsion rivojlanish zarurligini anglash;
-innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash;
- innovatsion madaniyatni shakillantirish.

Bu kabi sanoat korxonalarining innovatsion salohiyatini shakllantirish hamda rivojlantirish omillari va shartlarini aniqlash korxonalar jadal rivojlanayotgan tashqi muhitga tez moslashish, raqobatbardoshlikni oshirish, korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash imkonini beradi. Bu shartlarning eng muhim vositalaridan biri ya’ni sanoat korxonalari innovatsion salohiyatini rivojlantirish sifatida innovatsion madaniyatni misol qilib olish mumkin.

Innovatsion madaniyat, bir tomondan, boshq aspektlar bilan bir xil xarakterli xususiyatlarga ega bo‘lgan turlardan biri (siyosiy, ishlab chiqarish, huquqiy, ilmiy, lingvistik, maishiy, sarmoyaviy, tashkiliy madaniyat, umumiy madaniyat va boshqalar) , ikkinchi tomondan, ijtimoiy-madaniy jarayon sub'ekti hisoblanib innovatsiyaning o‘ziga xosligi nuqtai nazaridan madaniyatning alohida turi

hisoblanadi.

Innovatsion madaniyatning semantik munosabatlari korxona missiyasini amalga oshirishni ta'minlashda innovatsion faoliyatning mohiyatini belgilaydi. Innovatsion xulq-atvor qadriyatlari va me'yorlari asosida tashkilotning missiyasini amalga oshirishni ta'minlaydigan innovatsion faoliyat (uning ishtirokchilari faoliyat sohalari) bo‘yicha ko‘rsatmalar shakllantiriladi. Innovatsion madaniyatning moddiy tarkibiy qismi korxonaning innovatsion maqsadlariga erishishdagi innovatsion salohiyatining imkoniyatlarini belgilaydi (masalan, agar ishlab chiqarish va texnologik baza zaif bo‘lsa, raqobatbardosh innovatsion ishlab chiqarishlarni yaratish muammosini hal qilish qiyin.). Ya'ni, ushbu maqsadlarni amalga oshirishning mumkin bo‘lgan eng yuqori darajasi, bunga erishish uchun innovatsion madaniyatning moddiy tarkibiy qismlarining ideal bilim va tasvirlar quyi tizimlari bilan birlikda oqilona ishlashini ta'minlash kerak.

Innovatsion madaniyat faoliyatning yakuniy natijalariga, ishlash samaradorligiga, ishlab chiqarish tizimlarining texnologiyasini takomillashtirish darajasiga, mahsulot imidji va sifatini yaxshilashga, yaratilgan mahsulot parametrlarini yaxshilashga bevosita ta'sir qiladi. Har qanday xo‘jalik yurituvchi sub'ektning barcha turdagi resurslaridan oqilona foydalanish uning innovatsion rivojlanishiga ta'sir qiladi. Innovatsion madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, korxona faoliyatining yakuniy natijalari shunchalik yuqori bo‘ladi.

I.V.Shlyaxtoning so‘zlariga ko‘ra, Innovatsion madaniyat - bu korxona, rahbariyat va xodimlarning olingan yangi g'oyalar hamda innovatsiyalarni idrok etishga, hayotning barcha sohalarida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashga,ularni innovatsiyalarga aylantirishga va o‘zgaruvchan muhitga moslashishga tayyorligi hamda qobiliyatidir deb ta’kidlaydi

Innovatsion madaniyatni shakillantirshda uning quydagi kontseptsiyasining asosiy tamoyillarini sanab o‘tish mumkin.

1. Modernizatsiya qilish qobilyati iqtisodiyotning barcha jabhalarida bir vaqtning o‘zida innovatsiyalarni amalga oshirish qobiliyatining ustuvorligi.

2. Ijodiy inson resurslarining markaziy rolini baholash. Ommaviy iste'mol va ishlab chiqarishning miqdoriy tizimida inson resurslari faqat ularning soni va ishlab chiqarish sharoitlariga moslashish qobiliyati

3. Innovatsiya qilish qobiliyati, yangi bilim talab qiladigan va yuqori texnologiyali xizmatlarni ishlab chiqish, yuqori sifatga intilish tobora ko‘proq nomoddiy sohani rivojlantirish .

4. Fikrlashning yangi sifati. Yangi industrial (axborot) jamiyati - bu ishtirok etish va egalik qilish orqali ifodalangan dinamik rivojlanish, innovatsiyalar, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlar madaniyati jamiyati. Bu iqtisodiyotning barcha darajalarida bilimga, uni samarali boshqarishga va tafakkurning yangi sifatiga asoslangan innovatsion menejmentni joriy etish zarurligini bildiradi.

5. Ularning tannarxini saqlab qolish yoki pasaytirishda (hosildorlikni oshirishda) sifat ustuvorligi. Sanoat jamiyati ommaviy ishlab chiqarish va iste'mol g'oyasi ustunlik qilganda, miqdor ustuvorligiga asoslar edi. Hozirgi vaqtda iqtisodiy globallashuvning tobora kuchayib borayotgan sur'atlari sharoitida zamonaviy raqobatda omon qolish uchun korxonalar jahon bozoriga o‘z

mahsulotlari bilan kirgan mamlakatlardagi barcha ishlab chiqaruvchilar mahsulotning eng yuqori sifatini saqlab qolishlari, ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etishlari shart.

6. Menejmentning globallashuvi. Faqatgina ongli rahbargina o‘zining keyingi rivojlanishiga, agar bunga motivatsiya bo‘lsa, qadam tashlashi mumkin. Tashkiliy tizim ierarxiyaning barcha darajalarida motivatsiyaning eng yuqori darajasini yaratishi kerak.

Yuqorida keltirilgan innovatsion madaniyat konsepsiyalarni hisobga olib, innovatsion madaniyatni biz yangi bilimga asoslangan iqtisodiy tizim sifatida qarab o‘tishimiz mumkin.Xulosa o‘rnida innovatsion ma’daniyatni shakillantirshda quydagi omillar muhim sanalishini ko‘rishimiz mumkin.

- yangilik va bilim o‘rtasidagi yaqin aloqa. Innovatsiya bilimga asoslanadi, bilim faqat innovatsiya orqali jarayon sifatida amalga oshirilishi mumkin.

- innovatsion madaniyat va bilimlar jamiyatini shakllantirishning muhim omili sifatida. Innovatsion jarayonning muvaffaqiyati, uning bilimlar jamiyatini shakllantirish jarayoni bilan o‘zaro aloqasi ko‘p jihatdan ushbu jarayonni belgilovchi va bilimlarning har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun qulay innovatsion-madaniy makonni tashkil etuvchi asosiy omillar qanchalik e’tiborga olinishiga bog‘liq;

- inson omili innovatsion madaniyat va bilimlar jamiyatining ob'ekti,sub'ekti sifatida harakat qiladi.Bu ularning barcha bloklarini ishlab chiquvchisi, distribyutori va iste'molchisidir

- uzoq muddatli istiqbol - innovatsion madaniyat va bilimlar jamiyati imkoniyatlarini eng to‘liq ro‘yobga chiqarish sharti. Bilimning tabiati, innovatsiyalar, shuningdek, innovatsion-madaniy makonni qurish va faoliyat ko‘rsatish shartlari aniq istiqbolli yo‘nalishlarni talab qiladi, chunki qisqa vaqt ichida ko‘plab maqsadlarga erishib bo‘lmaydi,shu bilan birga investitsiyalar esa foydali bo‘lmaydi. Demak, innovatsion madaniyatni shakllantirish va uning ishtirokida bilimlar jamiyatini barpo etish vazifasi ham umumiy, ham asosiy yo‘nalishlarning har biri bo‘yicha strategik vazifalar qatoriga kiradi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Алмршед, С.К. Методические основы оценки развития инновационного потенциала промышленного предприятия / С.К. Алмршед, А.С. Бишин // Путеводитель предпринимателя. - 2019. - №41. – С.6-2.

2. Кувшинов, М.С. Инновационный менеджмент: учебное пособие / М.С. Кувшинов. – Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2016. – 115 с.

3.Фатхутдинов, Р.А. Инновационный менеджмент: учебник для вузов. 6-е изд. / Р.А. Фатхутдинов. – СПб.: Питер. 2011. – 448 с. – (Серия «Учебник для вузов»).

4. J.K. Boymurodov “Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanish strategiyasi” nomli ilmiy maqolasi. Xorazm ma’mun akademiyasi axborotnomasi 2022 yil. 2-soni.

N.A.Usmanova - SamISI, “Menejment” kafedrasi v.b. dotsenti, PhD

IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA RAHBARNING SHAXSIY MEHNATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini ta’minlashda va uning “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirishda bilimdon va ishbilarmon xodimlarni, rahbarlarni shakllantirishga erishish muhim ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatga ega. Rahbarlar qanday mulk shakliga egalik qilishidan qat’iy nazar u tashkilotda ishbilarmon, uzoqni ko‘zlab ish qiladigan bo‘lmasa, u rahbarlik qilayotgan korxona inqirozga uchrashi aniq. Rahbar deb har bitta jamoada, hoh u kichik yoki katta bo‘lsin o‘z o‘rniga, obro‘-e’tiboriga ega bo‘lgan, ishning ko‘zini bilishi bilan jamoa a’zolaridan ajralib turadigan va o‘z o‘rni jamoada har tomonlama o‘rnak bo‘ladigan kishiga aytiladi. Har bir korxona va tashkilotning qanday ekanligi birinchi navbatda uning rahbariga bog‘liq bo‘ladi, chunki xodimlarning kayfiyati, ularning mehnatga bildirgan munosabati rahbarning ta’sir natijasi ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun jamoaning ishlab chiqarish muvaffaqiyatlari ko‘p hollarda rahbarlik faoliyatining shaxsiy sifatlariga bog‘liq. Rahbar mehnatida har tomonlama rivojlangan, katta xajmdagi asoslarni qabul qilib umumlashtiradi va uning mohiyatiga qarab baho berish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham zamonaviy rahbar o‘z qobiliyatini rivojlantirishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi rahbarga faoliyatni bekor sarf qilmaslikni, jamoada o‘zining yangi mavqeiga moslashish jarayonida muhim muammolarni belgilab olish kerakligini maslahat beradi, chunki bu masalalarni xal qilish ish samaradorligini ta’minlaydi. Ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarida ish natijasi nafaqat raxbarning uziga, balki jamoaga ham bog‘liqdir. Rahbarlik faoliyati mazmunidan qat’iy nazar vujudga keladigan muammolarni hal qilish, samarali qarorlarni ishlab chiqish, tashkilotni o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga va vazifalarini bajarishga erishish, shu bilan birgalikda ularni bajarilishini nazorat qilishiga yo‘naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Tashkilot rahbarining shaxsiy qobiliyati:

- Muloqot olib borish
- Bilim saviyasi
- Tinglash qobiliyati
- Ishbilarmonlik
- Xodimlarni ishontira olish
- Kiyinish madaniyati
- Axloqiy sifatlarga ega bo‘lish

Shunday ekan rahbar xodim tashkilotda, jamoada obro‘ga erishishi uchun avvalo o‘zining shaxsiy sifatlarini takomillashtirishga intilishi lozim. Ya’ni har bir rahbar ishbilarmon, mehnatga bo‘lgan qobiliyatini oshirishga qodir, bilim saviyasi

kuchli, xodimlar bilan muomala qilish qobiliyatiga ega, axlokiy sifatlari ijobiy, notiqlik san’atiga ega bo‘lgan hislatlarni o‘zida mujassam etishi kerak.

Rahbar o‘z faoliyati davomida xodimlarga ta’sir qila olish va ularni ishontirish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak. D. Karnegi o‘zini qoidalarini izohlayotganda ishontirishning omillaridan biri bo‘lgan tortishuvga alohida o‘z diqqat e’tiborini qaratadi:

1 qoida. Tortishuvda baland kelishning birdan-bir yo‘li bu-o‘zini chetga olishdir. Ben Frank bir gapni aytishni yaxshi ko‘rardi: “Tortishib, e’tiroz bildirib va qarshi chiqib siz ayrim hollarda ustun kelishingiz mumkin, lekin bu raqibingizning g‘alabasi hisoblanadi, chunki tortishib hech qachon o‘zingiz uchun obro‘ va hurmat qozona olmaysiz”.

2 qoida. Suhbatdoshingizni fikrini hurmat qiling. Hech qachon odamga uning noxaqligini aytmang. Agar siz suhbatdoshingiz fikrini noto‘g‘ri deb qabul qilib, buni oshkora aytsangiz, hech qachon bir murosaga kela olmaysiz. Shuningdek, o‘z fikringiz to‘g‘riligini isbotlamoqchi bo‘lsangiz ham behuda o‘rinasiz. Buni ochiqchasiga emas, balki boshqacha, yumshoqroq yo‘l bilan amalga oshirish kerak.

3 qoida. Agar siz noxaq bo‘lsangiz, tezlik va qat’iyatlik bilan tan oling. Xamma ham noxaqligini tan olavermaydi. Agar siz noxaq bo‘lsangiz darhol tan oling, shunda muammongiz osonroq xal bo‘ladi va siz o‘zingizni engil his etasiz.

4 qoida. Suhbatni boshidan do‘stona muomalani asos qilib oling. Yuz yilcha oldin Linkoln shunday degan edi: «Bir tomchi asal bir gallon zaxardan ko‘prok arini o‘ziga tortadi. Xuddi shunday xaqqoniylik ham insonlarni jalb etadi. Agar siz kishilarni o‘zingizga og‘dirmoqchi bo‘lsangiz ularga samimiy va do‘stona munosabatda bo‘ling.

5 qoida. Suhbatdoshingizni boshida “ha” deb javob berishga majbur qiling. Kishilar bilan gaplashayotganda muhokamani har doimgi munozaradan boshlamang. Aniq nuqtai nazarni keltirib o‘ting va shunga urg‘u berib o‘ting. Bu ijobiy natijaga erishishning oddiy usuli.

6 qoida. Suhbatdoshga ko‘p vaqtni o‘zi gapirishiga imkon bering. Kishilarning ko‘pchiligi boshqalarni o‘zlari o‘ylagandek o‘ylatishga harakat qiladilar, o‘zlari ko‘proq gapiradilar. Ularning shaxsiy ishlari va muammolari sizdan ko‘proq o‘zlariga ma’lum. Shuning uchun ularga savol bering. Ular mumkin qadar qo‘proq gapirsinlar. Norozilik yuzasiga kelganda gaplarini bo‘lishga to‘g‘ri kelishi mumkin. Lekin siz gapini bo‘lmang. Ular o‘zlarini fikrlarini to‘la aytib bo‘lmagunlaricha sizning gaplaringizga e’tibor qaratmaydilar. Shunday ekan, ularni tinglang, diqqat bilan tinglang. Hamma fikrlarini to‘kib solishga imkon yarating. Hatto do‘stlarimiz ham biz to‘g‘rimizda eshitishdan ko‘ra o‘zlari haqida gapirishni afzal ko‘radilar. Shuning uchun yaxshi tinglovchi bo‘ling. Fransuz faylasufi Larosh Fuko aytganidek: “Agar dushman orttirmoqchi bo‘lsangiz, do‘stlaringizdan ustun bo‘ling, do‘st orttirmoqchi bo‘lsangiz, sizdan o‘tib ketishlariga imkon bering”.

7 qoida. Suhbatdoshingizga ushbu fikr unga tegishli ekanligini bildiring. Hamma oldida sizni fikringizni o‘ziniki qilib aytishga bunga darov e’tiroz bildirmang. Bunda suhbatdoshingizni noqulay ahvolga qo‘yishingiz mumkin. Bundan tashqari suhbatdoshingiz fikrini o‘z fikringiz bilan yo‘naltirib, kiritgan

qo‘shimchalaringiz uning fikrlaridan kelib chiqayotganligini bildirib tursangiz, suhbatda ko‘proq narsaga erishasiz. Yigirma besh asr oldin xitoy donishmandi Lao Szi hozirgacha o‘z mohiyati va xaqqoniyligini yo‘qotmagan so‘zlarni aytgan. Mana o‘sha so‘zlar: “Nega dengiz va daryolar tog‘lardan suv oladi. Chunki ular tog‘lardan pastda joylashgan. Pastda turib ular tog‘ oqimlaridan o‘lpon oladilar. Shunday ekan kimki o‘zini kishilardan baland qo‘ymoqchi bo‘lsa pastda tursa, kimki kishilardan o‘zini oldinga qo‘ymoqchi bo‘lsa, orqada tursin. Ana shunda u ustun bo‘lganda ham, uning og‘irligini his qilmaydilar, o‘sib ketganda esa o‘zlarini orqada qolgan deb his qilmaydilar”.

8 qoida. Narsalarga suhbatdoshingiz nuqtai nazardan iliq yondoshishga harakat qiling. Sizningcha suhbatdoshingiz nohaq bo‘lishi mumkin. Lekin u odatda bunday o‘ylamaydi. Buning uchun uni ayblamang. O‘zingizni ham uning o‘rniga qo‘yib ko‘ring. Unga nisbatan sabrli va donno bo‘ling. U yoki bu kishi aynan shunday o‘ylashiga ma’lum sabab bor. Shu sababni izlang. Ana shunda sizda uning fikrlari va harakatlari jumbog‘ini ochish uchun kalit bo‘ladi.

9 qoida. Boshqalarning fikri va xoxishlariga xayrixoxlik bilan qarang. Birgina gap bilan kishilar orasida yuzaga kelgan baxs, tortishuv va tushunmovchilikka barham berib, unda hurmat va hayrixoxlik xissini uyg‘otish va nihoyat sizni diqqat bilan tinglashiga majbur etishingiz mumkin. Bu gap tahminan quyidagicha: “Shunday o‘ylayotganingiz uchun sizni zarracha ham ayblamayman. Sizning o‘rningizda bo‘lganimda men ham xuddi shunday o‘ylagan bo‘lar edim”. Bunday javob eng qiziqqon suhbatdoshni ham tinchlantirishga qodir. Anna shunda siz o‘z fikringizni yotig‘i bilan tushuntirishingiz mumkin bo‘ladi. Agar siz kishini fikringizga ishontirmoqchi bo‘lsangiz, unga xayrixoxlik bildiring va quyidagi tamoyilni amaliyotda qo‘llang: “O‘zgalarning fikr va xoxishlariga samimiy yondashing”.

10 qoida. Olijanoblik motivlarga undang. Kishilarga nisbatan olijanob munosabatda bo‘ling. Suhbat davomida har bir so‘zingiz uning fikrlari va munosabatlariga ta’sir qiladi. Shunday ekan, sizning samimiy va chin yurakdan aytilgan gaplaringiz sizga nisbatan olijanoblik xissini uyg‘otadi.

11 qoida. O‘z g‘oyalaringizni kuchaytirib, ularni samarasini ko‘rsating. Siz g‘oyani o‘rtaga tashlashingiz mumkin. Lekin u asoslanmagan va sust ifodalangan bo‘lsa bu g‘oya faqat siz uchun g‘oya bo‘lib qolaveradi. Shuning uchun g‘oya kuchaytirilgan, asosangan, izohlar va isbotlar bilan boyitilgan bo‘lishi, suhbatdoshingizning ongiga o‘zingiz o‘ylaganchalik kirib boradigan darajada ta’sirchan ifodalanishi kerak.

12 qoida. Qarshi harakat qilib nozik eridan ushlamoq. Bu xuddi musobaqadek amalga oshadi. Hamma ham o‘z imkoniyatini va nimaga qodirligini namoyon qilishni istaydi. Raqobatli muhitni yaratish, samara va unumdorlikni oshishiga olib keladi.

D. Karnegi insonlarga ta’sir o‘tkazish bilan birga ularga yaxshi taasurot qoldirishga ham chaqiradi. Uning quyidagi qoidalari “Amal qilish bilan insonlarga yoqib qolish mumkin bo‘lgan oltita qoida” deb ataladi.

1. Boshqa insonlarga yurakdan qiziqing, xavas qiling. Agar biz insonlarda o‘zimizga nisbatan tasavvur uyg‘otish va ularni o‘zimizga qiziqtirishga harakat

qilmasak, unda hech qachon haqiqiy do‘stga ega bo‘lmaymiz. Xaqiqiy do‘st sotib olinmaydi. Siz boshqalarni o‘zingizning alohidalik tomonlaringizga qiziqtirish yo‘li bilan ko‘plab do‘stlar orttirishingiz mumkin.

2. Yaxshi taasurot qoldirishning yo‘li kulib turish. Agar odamlar siz bilan muloqatda bo‘lganda ularning xursand bo‘lishini xohlasangiz, siz ham o‘zingiz xursand bo‘lishingiz kerak. Muhokamadan ko‘ra maqtov va qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida ayting.

3. Inson ismi barcha tillarda eng jarangdor sanaladi. Odamlarni o‘z ismi ko‘p qiziqtiradi. Ismni eslab qololmaslik va to‘g‘ri ayta bilmaslik juda qo‘pol xatodir. Ismni unutish yoki noto‘g‘ri yozish oqibatida o‘zingizni noqulay holatga solib qo‘yasiz. Atrofdagilar e’tiborini jalb qilishning eng ta’sirchan oddiy usuli – bu ularning ismlarini eslab qolish va to‘g‘ri aytishdir.

4.Odamlar siz haqingizda gapirsa, rag‘batlantiring. Siz bilan suhbatlashgan odamga katta e’tibor bering. Suhbatdoshingizni boshidan oxirigacha eshiting, masalaga uning nazaridan darajaga harakat qiling.

Buyuk insonlar aytadiki, eng yaxshi notiq, bu yaxshi tinglovchidir. Tinglay biling hislati boshqa fazilatlarga nisbatan kam uchraydi. Har qanday janjalkash va tezkor tanqidchi ham chidamkor, muloyim, hamdard tinglovchi oldida bo‘ysinadi.

5.Odamlarni qanday qiziqtirish kerak? Har doim, Ruzvelt tashrif buyuruvchilarni kutish arafasida uzoq tungacha o‘tirar, mehmonlarni qiziqtirish to‘g‘risidagi materiallarni o‘qir edi. U tushunardiki, inson yuragiga eng to‘g‘ri yo‘l bu mexmonning hamma narsadan yuqori baholovchi holati haqida suhbatlashish.

6. Odamlarning holatini qanday tez jalb qilib olish mumkin? Bu erda holatining bitta asosiy qonuni mavjud. Agar siz unga amal qilsangiz, hech qachon noxush holatga tushib qolmaysiz.

Haqiqatda ushbu qonunga amal qilish bizga sanoqsiz do‘stlar orttirishga va baxtga erishishga olib keladi.

Bozor sharoitida ishlovchi rahbar va mutaxassislar oldiga qat’iy talablar qo‘yiladi. Ular yuqori ishbilarmonlik va axloqiy sifatlarga, tadbirkor bo‘lishi, axil jamoa tashkil etish va mehnat jamoasi bilan davlat manfaatlari kelishini ta’minlay olishlari kerak. Zamonaviy raxbarlar yukori malakaga ega bo‘lishi, istiqbolni ko‘ra olishi va samarali xo‘jalik yuritishga imkon yaratuvchi iqtisodiy fikr yuritish, shaxsiy intizomga ega bo‘lishi, topshirilgan vazifaga javobgarlik hissi bilan yondoshish, g‘oyalarni to‘plash, chiqishimli va ishbilarmon bo‘lishi kerak. Rahbar doimo xotirjam va o‘ziga ishongan bo‘lishi, tashabbuskorlik ko‘rsatish, tavakkalchi bo‘lishi kerak. Raxbar uz qo‘l ostidagilarini yaxshi bilishi, ular bilan suxbatlashishi, ular qobiliyati, bilimi, malakasi egallagan lavozimiga mosligini va aksincha, ular bilim, kabiliyat, malaka va axlokiy sifatlaridan foydalanish etarli ekanligini aniqlashi lozim. Obro‘ga ega bulmay muvaffaqiyatli rahbarlik qilish mumkin emas, lekin obro‘ga kuch bilan emas, ish bilan, qanday ishlashni o‘z misolida ko‘rsatish bilan, uni qanday bajarish xaqida so‘zlash bilan, faqat talabchanlik va qat’iylik bilan emas, bilim va ko‘nikma orqali erishish mumkin.

Menejerning axloqiy sifatlari quyidagilarga asoslanishi kerak:

1.Sizning birinchi 10 ta so‘zingiz juda muhim bo‘lishi kerak. Tez tushunishning asosiy vositasi minnatdorchilik bildirish hisoblanadi.

2.Boshqalarga e’tibor bering. Ko‘zlarga karang, jilmaying, ishonch bilan harakat qiling. Bu odamlarga yoqadi.

3.Yurishga, o‘zingizni tutishga e’tibor bering. Qadamlarni shaxdam bosing, jonli yuring.

4.O‘z tashqi ko‘rinishingizga e’tibor bering. Toza va ozoda kiyinish, sochlar taralgan bo‘lishi juda muhim. Kuylak olayotganda ko‘rsatgich barmogingiz yoka va bo‘yingiz orasida erkin turishi kerak.

Yuqoridagi qoidalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak odamlar bilan munosabatga kirishar ekansiz, faqat aql bilan ko‘radigan emas, balki his tuyg‘uga beriluvchi, ma’lum holatlarda taajaburlanuvchi va o‘z yutuqlari bilan mag‘rurlanuvchi, shuhratparast mavjudot bilan munosabatda ekanligingizni unutmang. Inson tabiati shunday ajoyibki, u hammani ayblashi mumkin. Faqat o‘zini emas. Yuzta holatning to‘qson to‘qqiztasida qanchalar aybdor bo‘lmasinlar, odamlar o‘zlarini aybsiz deb biladilar, bu masalada tanqiddan foyda yo‘q. Sababi tanqid ostiga olingan kishi o‘zini himoya qilishga, ya’ni o‘zini oqlashga harakat qiladi. Tanqid kishining g‘ururiga qattiq botishi bilan havflidir. Chunki kishi g‘ururiga tegish uning xafa bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Insonlarni muhokama qilish o‘rniga ularni tushunishga harakat qiling. Odamlar nega boshqacha emas, aynan shunday yo‘l tutishlarini tushunishga harakat qilaylik. Bu tanqid qilishdan ko‘ra foydaliroq va qiziqarliroq. Shunday qilsak atrofdagilarni tushunishimiz, sabr toqatli bo‘lishimiz va o‘zimizda hayrixohlik ruhini tarbiyalashimiz mumkin.

Н.А.Усманова - СамИЭС, кафедра «Менеджмент» и.о. доцент., PhD

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ КОРПОРАЦИЙ

В современных условиях развития рынка предприятиям необходимы новшества и изменения в методах развития и управления для эффективного функционирования, так как традиционные методы теряют свою актуальность и в меньшей степени отвечают современным требованиям. По этой причине сегодня на предприятиях ведется повсеместное применение инноваций и инновационных стратегий.

В успехе организации основную роль играет, принятая высшим звеном управления, стратегия. Стратегия должна стать «нитью времени», связывающей прошлое и будущее, одновременно обозначившей путь к развитию». В свою очередь, инновационная стратегия является частью общей стратегии предприятия. Данная стратегия представляет собой одно из средств достижения целей организации, которое отличается от других средств своей новизной, прежде всего для данной организации, для отрасли рынка, потребителей, страны в целом. Она задает цели инновационной деятельности, выбор средств их достижения и источники привлечения этих средств.

Необходимость применения инновационных стратегий возникает в основном при внезапных изменениях во внешней среде предприятия. Примером таких изменений могут служить нижеизложенные факторы:

• насыщение рынка однотипной продукцией среднего качества и снижение спроса;

• радикальные изменения в технике и технологии производства;

• диверсификация производства и как следствие – расширение рыночного ассортимента нововведений;

• появление на рынке принципиальных новшеств;

• появление новых конкурентов.

В зависимости от стратегических целей корпорации выделяют следующие группы инновационных стратегий корпораций:

1. Стратегия опережающего роста

-наступательная стратегия

2. Стратегия постепенного роста

-имитационная стратегия

-лицензионная стратегия

3. Стратегия удержания позиции на рынке

-защитная стратегия

Стратегия опережающего роста предполагает высокую радикальность внедряемых инноваций и значительный или средний инновационный потенциал. Недостаток отдельных элементов инновационного потенциала требуют предварительного наращивания и развития. Стратегия опережающего роста сопряжена с высоким риском, однако может обеспечить корпорации значительное конкурентное преимущество и высокие доходы. Важным условием реализации стратегии опережающего роста является внедрение инновации раньше конкурентов.

Наступательная стратегия заключается в самостоятельной разработке инноваций; это требует больших капиталовложений и сопровождается значительным риском. Этот вариант подходит для крупных корпораций, являющихся лидерами на соответствующих рынках. Наступательная стратегия требует от сотрудников организации определенной квалификации, способствующей реализации нововведений, способности видеть перспективы и уметь быстро реализовывать их, а также наличия значительных ресурсов. Данная стратегия направлена на создание совершенно нового рынка, осуществляется для реализации принципиально нового продукта или технологии, выражает действия корпорации и ее стремление выйти первой на рынок с радикальной инновацией.

Стратегия постепенного роста. Данная стратегия применяется в следующих случаях: при незначительном инновационном потенциале при высокой радикальности инноваций; среднем инновационном потенциале при средней радикальности инноваций; значительном инновационном потенциале при низкой радикальности инноваций. Данная инновационная стратегия имеет меньше риска, чем стратегия опережающего роста, но уровень доходов ниже.

Имитационная стратегия характерна для корпорации, которая не является лидером в инновационной деятельности, использует инновационные разработки других корпораций с некоторыми усовершенствованиями и модернизацией. Такие корпорации обладают организационно-технологическим потенциалом, хорошо знают требования рынка, часто имеют достаточно сильные рыночные позиции. При этом за основу могут быть приняты инновации, разработанные и освоенные как крупными корпорациями, так и малыми инновационными предприятиями.

Лицензионная инновационная стратегия используется, когда корпорация основывает свою инновационную деятельность на приобретении лицензий на результаты исследований и научно-технических разработок.

Стратегия удержания позиции на рынке может быть выбрана в случае низкой и средней радикальности внедряемых инноваций при незначительном инновационном потенциале.

Защитная стратегия характеризуется невысоким риском и используется предприятиями, способными получать прибыль в условиях конкуренции. Это им удается за счет особого внимания к сфере производства и маркетингу. Основным их преимуществом являются низкие издержки производства и удержание позиций на значительном сегменте рынка. Такие предприятия в большей степени ориентируются на инновации и располагают достаточным потенциалом для их модификации.

Формирование инновационной стратегии корпорации представляет собой определение направлений инновационного развития, учитывающих потенциальные возможности корпорации, ее текущее положение на рынке, влияние факторов внешней и внутренней среды в условиях риска. Схематично модель формирования инновационной стратегии можно представить в виде следующего рисунка (рис.1).



Рис.1 Модель формирования и реализации инновационной стратегии корпорации

Стратегический анализ деятельности корпорации предопределяет выбор возможных вариантов инновационной стратегии в зависимости от среды функционирования, т.е. учитывает важнейшие факторы, влияющие на нее. Формулирование инновационных стратегических альтернатив производится в зависимости от миссии и целей корпорации. Из разнообразия стратегий корпорация должна выбрать одну или несколько, которые позволят ей в дальнейшем добиться успеха. Разработка инновационной стратегии начинается с установления миссии и инновационных целей. Результатом этапа является получение представления о желаемом состоянии инновационной деятельности в корпорации в будущем.

Контроль реализации и корректировка инновационной стратегии представляет собой наблюдение за процессом стратегического управления инновациями, оценку достижения разработанных на предыдущем этапе инновационных целей, а также на основе изученных изменений

предполагается своевременное обнаружение возможных отклонений от заданных инновационных целей и принятие мер по их ликвидации.

Вывод. На основе рассмотренной информации можно сделать вывод, что в веке развития науки и техники корпорациям необходимо применение инновационных стратегий, для их успешного развития и наращивания конкурентного преимущества. При этом подразумевается внедрение только тех инновационных стратегий, которые в полной мере соответствуют целям корпорации и ее потенциалу.

Ulugmurodov F.F. – SamISI “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistent stajyori
Xolboyev B.E. – SamISI Iqtisodiyot fakulteti ik-422 guruh talabasi

XIZMATLAR SOHASIDA INNOVASION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Annotatsiya*: Mazkur maqolada iqisodiyotni jadal rivojlantirish uchun muhimasosi sifatida innovatsiyani rivojlantirish masalasida ustuvorlik berilgan hamda uni taraqqiy ettirishning asosiy yo‘nalishlari ilmiy asoslanilgan*

Kalit so‘zlar*: Innovatsiya, texnologik jarayon, yangi sotish bozori innovatsiyani tarqalishi va yangilik yaratish to‘lqini, innovatsiya diffuziyasi, raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsiya.*

Abstract: *In this article, priority is given to the development of innovation as an important factor for the rapid development of the economy, and the main directions of its development are scientifically based.*

Key words: *Innovation, technological process, new sales market, diffusion of innovation and innovation wave, diffusion of innovation, innovation based on digital technologies.*

Аннотация: *В данной статье приоритет отдается развитию инноваций как важному фактору быстрого развития экономики, а основные направления ее развития научно обоснованы.*

Ключевые слова: *Инновация, технологический процесс, новый рынок сбыта, диффузия инноваций и инновационная волна, диффузия инноваций, инновации на основе цифровых технологий.*

Mamlakatimiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirish, servis sohasida innovasiyalarga bo‘lgan yuqori ehtiyojni samarali qoniqtirish bilan belgilanadi. Shunday ekan, zamonaviy innovasiyalarni o‘zlashtirish masalalari dolzarb xisoblanadi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi prizidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek: “Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyukkelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan

innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”[27].

Innovasiya tushunchasini fanga birinchi marotaba iqtisodiy kategoriya sifatida Avstriyalik iqtisodchi Y. Shumpeter[28] kiritdi. U ilk marta o‘zgarish va rivojlanishning besh shaklidagi ishlab chiqarish omillarining yangi kombinasiyalari masalalarini ko‘rib chiqadi. Bunday tushunchalar jumlasiga quyidagilarni kiradi:

- yangi texnika, texnalogik jarayon yoki yangi bozor ta’minlanishida foydalanish;
- mahsulotlarning yangi xususiyatlilarini joriy etish;
- yangi xom ashyodan foydalanish;
- xizmat ko‘rsatishni tashkil etish va uning moddiy texnika bazasidagi yangi o‘zgarishlar;
- yangi sotish bozorlarining paydo bo‘lishi.

Shunday ekan, bizning fikrimizcha innovasiya moxiyati quyidagilarda o‘z aksini topadi.

Birinchidan, innovasiya deyilganda, eng avvalo ilg‘or g‘oyalar, ishlanmalar inobatga olinishi lozim. Chunki, har qanday jarayonni takomillashtirish uchun oldin g‘oya paydo bo‘ladi va shu asosda ishlanmalar shakllantiriladi. Ana shu ikki jarayon boshqa barcha jarayonlarning poydevori bo‘lib va innovasiyaning asosi hisoblanadi.

Ikkinchidan, fan va texnika yutuqlari, texnologiya va yangi ixtirolar ham innovasiyaning mohiyatida ifodalanadi va unga ko‘ra-yangiliklar g‘oya asosida yaratilsa, ishlanmalar natijasida uning nazariy va amaliy ahamiyati isbotlanadi. Bu esa fanning rivojlanishiga va shu asosda yangi texnikaning yaratilishi va uning albatta oldingilarga nisbatan ilg‘or texnologiyalarga asos solish zarurligini ifodalaydi.

Uchinchidan innovasion texnologiyalar yangiliklarning turli sohalarida (iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy hayotimizda, boshqaruv tizimi kabilarda) qo‘llanilishi bilan bog‘liq hodisalarda o‘z ifodasini topib yangiliklarni joriy qilish bilan bog‘liq jarayon bo‘lganligi tufayli, hamma sohalarni qamrab olish imkoniyati yaratiladi.

Ma’lumki, Yangi xizmatlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish sohada oddiy xizmatlar tovar bozori sharoitlariga qaraganda katta imkoniyatlarga ega. Yangi xizmatlarni ishlab chiqarish ko‘pincha yirik investisiyalar, katta moddiy texnika bazasi, qiyin resurs ta’minotini talab qilmaydi va qisqa muddatda amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Shu sababli sohadagi innovasion mobillik juda yuqori va o‘z navbatida tadbirkorlik va marketing faoliyatining samaradorligini shubhasiz oshiradi.

Xizmatlar sohasida innovasiyalar tarqalishining xarakatini (xar xil shaklda) namoyon bo‘lish funksiyalari kuyidagilardan iborat.

---

[27] Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Призиденти Ш.Мирзиёевнинг олий мажлисга мурожаатномаси. –Т.: “Озбекистон” НМИУ, 2018. 23-бет

[28] Шумпетер Й. Теория экономическова развития-М.: 1982

❖ Xizmatlar sohasida innovatsiyalar tashuvchisining (odamning) innovatsiyalarni osonroq va tezroq joriy etish imkoniyati yuqori bo‘lgan hududlarga migratsiya qilishi natijasiga asoslanganligi;

❖ Innovatsion (informatsion) yangilik yaratish to‘lqinining eng yaxshi moliyaviy va informatsion resurslarga boy joylarga xizmatlar talabiga mos ko‘chishi oqibatliligi;

❖ Xizmatlar innovatsiyasiga talab juda katta bo‘lgan joyga (amaliyotga) joriy etilgan innovatsiyaning diffuziya natijasidagi ko‘chib yurishi ko‘rinishida bo‘lishligi va boshqa shu kabilardan iborat.

Shunday qilib xizmat ko‘rsatish sohasida innovasion faoliyat o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

- Xizmat ko‘rsatish korxonalari muammolarini aniqlash;
- Xizmat ko‘rsatishda innovasion jarayonni amalda tashkil etish;
- Xizmat ko‘rsatishda innovasion faoliyatni amaliyotga joriy etish va natijadorlikka erishish.

Xizmat ko‘rsatish korxonalarida yangi xizmatlar (innovatsiyalar) bir qator bosqichlarni ko‘zda tutadi:

✓ birinchidan, korxonada yangi xizmatlar g‘oyasini qidirib topish;

✓ ikkinchidan, g‘oyani ishlab chiqish, yangi xizmatlarni yaratish va loyihalashtirish;

✓ uchinchidan, korxonalar uchun ishlab chiqilgan yangi g‘oyani va yangi xizmatlarni taqdim etish;

✓ to‘rtinchidan korxonalarda yaratilgan yangi xizmatning bozordagi o‘zini tutishini kuzatish, zaruriyat tug‘ilganda tegishli o‘zgartirishlar kiritish va shu kabilardan iborat.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xizmatlar sohasida innovasion faoliyatni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar xisoblanadi;

birinchidan, xizmatlar sohasida yangiliklarga asoslangan modernizasiyalash va diversifikasiyalashni faoliyat turlarini shakllantirish.

ikkinchidan, xizmatlar sohasida yangi texnologiyalar, ayniqsa raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida xizmat ko‘rsatishni yuqori sifat darajasiga olib chiqish.

uchinchidan, xizmatlar sohasi korxonalari o‘rtasida raqamli iqtisodiyot muhitini shakllantirib tomonlar manfaatdorligini oshirish va yuqori daromad olishga yo‘naltirish.

to‘rtinchidan, yangi maxsulot va yangi tovarlar asosida xizmatlar sohasida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni rivojlantirish.

beshinchidan, soha taraqqiyoti uchun yangiliklariga asoslangan investision bozor muhitini shakllantirish.

oltinchidan, xizmatlar sohasining ta’lim-fan bilan bevosita holda integratsiya asosida rivojlanish uchun yanggi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish.

yettinchidan, xizmatlar sohasi bo‘yicha kelajak innovasiyasi uchun “bilimli, iqtidorli, salohiyatli kadrlar” tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish.

Umuman yuqoridagilardan kelib chiqib xizmatlar sohasini innovatsion faoliyat asosida taraqqiy ettirish va uning muhim yo‘nalishlarini belgilab olish

Respublika iqtisodiyotini jadal rivojlantirish muhim asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prizidenti Sh.Mirziyoyevning oliy majlisga murojaatnomasi. –T.: “Ozbekiston” NMIU, 2018. 23-bet

2. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskova razvitiya-M.: 1982

3. Ulugmurodov, F. F., & Bahodirovich, H. U. (2023). Prospects of Developing Active Tourism in Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 4(6), 69-71.

M.A.Najmiddinova - Farg'ona Politexnika instituti 64-22M guruhi talabasi.

IJTIMOIY-IQTISODIY TIZIMLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA YECHIMLARI.

Annotatsiya: ushbu annotatsiya ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarni *rivojlantirishda innovatsiyalarning muhimligini yoritib beradi. Innovatsion rivojlanish muammolari doimo o‘zgarib turadi va moslashuvchanlik, istiqbolli strategiyalar va madaniy rivojlanishni talab qiladi. Jamiyatlar, hukumatlar va korxonalar innovatsiyalarni o‘zgarishlarga moslasha oladigan barqaror tizimlarni yaratish uchun asosiy vosita sifatida qabul qilishlari zarur. Ushbu muammolarni hal qilish orqali zamonaviy dunyoda yanada samarali, inklyuziv va barqaror ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarga erishish mumkin.*

Аннотация*: В данной аннотации подчеркивается важность инноваций в развитии социальных и экономических систем. Проблемы инновационного развития постоянно меняются и требуют гибкости, перспективных стратегий и культурного развития. Обществам, правительствам и предприятиям необходимо принимать инновации как ключевой инструмент для создания устойчивых систем, способных адаптироваться к изменениям. Решая эти вызовы, можно достичь более эффективных, инклюзивных и устойчивых социальных и экономических систем в современном мире.*

Abstract: *This article emphasizes the importance of innovation in the development of social and economic systems. The challenges of innovative development are constantly evolving and require flexibility, forward-thinking strategies, and cultural development. Societies, governments, and businesses need to embrace innovation as a key tool for creating sustainable systems capable of adapting to change. By addressing these challenges, it is possible to achieve more effective, inclusive, and resilient social and economic systems in the modern world.*

Kalit so‘zlar: *Global muammolar, iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar, iqtisodiy inqirozlar moliyaviy resurslar, startaplar, institutlar, ar-ge madaniyati, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi, dasturiy ta'minot, tashkilotlar, ta'lim, sanoat talablari malakali mutaxassislarni, akademik, bilimlar, umrbod ta'lim.*

Ключевые слова: *Глобальные проблемы, изменение климата, пандемии, экономические кризисы, финансовые ресурсы, стартапы, институты, культура исследований и разработок, исследовательская инфраструктура, программное обеспечение, организации, образование, требования промышленности, квалифицированные специалисты, академический, науки, пожизненное обучение.*

Keywords: *Global issues, climate change, pandemics, economic crises, financial resources, startups, institutions, research and development culture, research infrastructure, software solutions, organizations, education, industry requirements, qualified professionals, academic, sciences, lifelong learning.*

Kirish. Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi jamiyat oldida turgan murakkab muammolarni hal qilish uchun innovatsion echimlarni talab qilmoqda. Texnologiyalar integratsiyasi, o‘zgaruvchan demografiya va global muammolar bizdan an’anaviy yondashuvlardan tashqarida o‘ylashni talab qiladi.

Asosiy qism. Ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar texnologik taraqqiyot va ijtimoiy me'yorlarning o‘zgarishi ta'sirida vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada rivojlandi. Aloqa, avtomatlashtirish va ma’lumotlarni tahlil qilish sohasidagi innovatsiyalar bizning yashash va biznes yuritish tarzimizni o‘zgartirdi. Biroq, bu yutuqlar bilan innovatsion javoblarni talab qiladigan yangi muammolar paydo bo‘ladi. Texnologik o‘zgarishlarning tez sur'ati mavjud tizimlar uchun jiddiy muammo tug'diradi. Innovatsiyalar mahsuldorlik va samaradorlikni oshirishga olib kelishi mumkin bo‘lsa-da, u an’anaviy tarmoqlarni buzishi va ish joylarini almashtirishga olib kelishi mumkin. Ushbu buzilishlarni bartaraf etish uchun innovatsion echimlarni ishlab chiqish va ularning jamiyatning barcha a'zolariga foyda keltirishini ta'minlash murakkab vazifadir.

Bundan tashqari, bugungi o‘zaro bog‘langan dunyoda iqtisodlar va ijtimoiy tizimlar er sharining olis burchaklarida sodir bo‘layotgan voqealar va o‘zgarishlar ta’sirida. Iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar va iqtisodiy inqirozlar kabi global muammolarning kuchayishi samarali echimlarni topish uchun global istiqbol va innovatsion xalqaro hamkorlikni talab qiladi.

Shu jumladan, o‘zgaruvchan demografiya, qarigan aholi va ishchi kuchi dinamikasi sog'liqni saqlash, pensiya va mehnat bozori muammolarini hal qilish uchun innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Ushbu demografik o‘zgarishlarga moslashish ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarning barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Innovatsion rivojlanish yo‘lidagi asosiy to‘siqlardan biri moliyaviy resurslarning etarli darajada mavjud emasligidir. Innovatsiyalar ko‘pincha tadqiqot va ishlanmalarga, texnologiyani o‘zlashtirishga va infratuzilmaga katta sarmoyalarni talab qiladi. Moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi korxonalar, startaplar va institutlarning innovatsion loyihalarga sarmoya kiritish qobiliyatiga to‘sqinlik qiladi va shu bilan taraqqiyotni sekinlashtiradi va o‘sishni bo‘g‘adi.

Ar-ge infratuzilmasining etarli emasligi yana bir muhim muammodir. Samarali innovatsiyalar ko‘pincha ilg'or laboratoriyalar, tadqiqot ob'ektlari va hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanishga tayanadi. Infratuzilmaning etarli

emasligi nafaqat yangi texnologiyalar va g'oyalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi, balki yuqori iste'dodlarni jalb qilish va saqlab qolish imkoniyatini ham cheklaydi. Ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini mustahkamlash innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Texnologiyalarni rivojlantirish zonalari to‘g'risidagi qonunga muvofiq, Ar-ge madaniyat, odamlar va jamiyat haqidagi bilimlarni oshirish va undan yangi jarayonlar, tizimlar va ilovalarni, shu jumladan dasturiy ta'minotni loyihalashda foydalanish uchun tizimli asosda olib boriladigan ijodiy tadqiqotlardir. Shuningdek, bu kompaniya va mamlakat uchun innovatsiyalar orqali o‘sish va rivojlanishning asosiy elementidir. Ar-ge bilan shug'ullanadigan tashkilotlar o‘zlarining mahsuldorligi va ishlab chiqarish sifatini oshirishga yoki yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishga erishishi mumkin.

Shu bilan birga, malakali ishchi kuchining etishmasligi va ta'lim va sanoat talablari o‘rtasidagi tafovut innovatsion rivojlanish uchun qiyinchiliklar tug'diradi. Ilg'or texnologiyalarni talab qiladigan tarmoqlar ko‘pincha malakali mutaxassislarni topishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa iste'dodlar etishmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, ko‘pincha akademik, sanoat va davlat muassasalari o‘rtasida bilimlarni uzatishning samarali mexanizmlari yo‘q. Ushbu muammolarni hal qilish ta'lim va ta'lim dasturlarini takomillashtirish, hamkorlikni rivojlantirish va umrbod ta'limni rivojlantirishni taqozo etadi.

Xulosa. Ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarni innovatsion tarzda rivojlantirish muammolari ko‘p qirrali va doimo rivojlanib boradi. Bu muammolarni hal qilish uchun jamiyatlar, hukumatlar va korxonalar innovatsiyalarni asosiy tamoyil sifatida qabul qilishlari kerak. Moslashuvchanlik, istiqbolli strategiyalar va innovatsiyalar madaniyatini rivojlantirishga sodiqlik o‘zgarishlarga qarshi muvaffaqiyatli rivojlana oladigan barqaror tizimlarni yaratish uchun zarurdir. Ushbu muammolarni hal qilish orqali biz ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarimiz dinamik va o‘zaro bog'liq dunyoda samarali, inklyuziv va barqaror bo‘lib qolishini ta'minlashimiz mumkin.

B.X.Qilichov - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Menejment” kafedrasi assistent-stajyori

SUG'URTA BOZORINING INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITDA RIVOJLANISHI

Annotatsiya: *Maqolada sug‘urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish masalalari, sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish yo‘nalishlari, shuningdek, O‘zbekistonda sug‘urta faoliyatini takomillashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *sug‘urta, sug‘urta bozori, innovatsion iqtisodiyot, sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish, sug‘urta bozorining kapitallashuvi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы государственного регулирования страховой деятельности, направления дальнейшего развития страхового рынка, а также пути совершенствования страховой деятельности в Узбекистане.*

Ключевые слова: *страхование, страховой рынок, инновационная*

экономика, государственное регулирование страхового рынка, капитализация страхового рынка.

Abstract: *The article examines issues of state regulation of insurance activities, directions for further development of the insurance market, as well as ways to improve insurance activities in Uzbekistan.*

Key words: *insurance, insurance market, innovative economy, insurance market regulation by the state, insurance market capitalization.*

O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorida sug‘urta operatsiyalari hajmi va sug‘urta korxonalari soni yil sayin ortib bormoqda. Respublikamizda 2021 yilda 42 ta sug‘urta kompaniyasi shundan 8 ta hayotni sug‘urta qilish sohasi, 34 ta umumiy sug‘urta sohasi bo‘yicha faoliyatini olib brogan bo‘lsa 2021 yil yakunlariga ko‘ra umumiy sug‘urta sohasi bo‘yicha 1 dona sug‘urta kompaniyasining faoliyati yakunlangan va xozirgi kunda 41 ta sug‘urta kompaniyasi faoliyat olib bormoqda.

Ma’lumotlariga asosan (1-jadval) umumiy sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanuvchi 1 dona sug‘urta kompaniyasining letsinziyasi tugatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu jumladan hayot sug‘urtasi bo‘yicha o‘zgarish kuzatilmagan. Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali 18,5 % ga o‘sganini kurishimiz mumkin ya’ne hisobot yilida 1 589 808 so‘m bazis yilida esa 1 884 111 so‘mni tashkil qilmoqda bu ko‘rsatkich natijasida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan sug‘urta kompaniyalari ustav kapitali to‘ldirilgan bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki sug‘urta kompaniyalari o‘z ish faoliyatini yaxshilash va sug‘urta javobgarliklarini ko‘proq olish maqsadida uz qudratini oshirishmoqda. Sug‘urta brokerlari sonida ham o‘sish kuzatilgan ya’ne 5 tadan 7 taga ko‘paygan. Aktuariylar soni o‘garmagan. Sug‘urta agentlari soni kamaygan jismoniy agentlar -4,4 %, yuridek agentlar 6,9 % ga kamaygan. To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi a’zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlarining soni 2 taga yoki +8,7% ga oshgan.

O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining tuzilishi[29]

(1-jadval)

Sug‘urta bozori tuzilishi	**31.12.2021**	**31.12.2022**	**O‘zgarish (+/-)**
Sug‘urta tashkilotlari soni shu jumladan hayot sug‘urtasi bo‘yicha	42 8	41 8	2,4% 0%
Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so‘mda)	1 589 808	1 884 111	+18,5%
Sug‘urta brokerlari soni	5	7	+40,0%
Aktuariylar soni	5	5	0%
Sug‘urta agentlari soni shu jumladan yuridik shaxslar	9581 2820	9155 2625	-4,4% -6,9%
To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi a'zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlari-ning soni	23	25	+8,7%

[29] https://imda.uz/oz/2022-yillik-korsatkichlar/

2022 yilda sug‘urtachilar tomonidan to‘plangan sug‘urta mukofotlarining umumiy miqdori 3 732 024,0 so‘mni tashkil etdi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 67,0 foizga o‘sdi bu ko‘rsatkichdan bilishimiz mumkinki davlatimizda sug‘urta kompaniyalariga ishonch ortayotgani, aholining o‘z mol-mulkini himoya qilish haqida tushuncha paydo bo‘layotganidan dalolatdir.

Olib borilgan izlanishlar natijasida hozirgi kunda davlatimiz e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalarni taklif etamiz.

- aholi va tashkilotlarni ishonchli va sifatli sug‘urta xizmatlari bilan ta’minlash uchun shart- sharoitlar yaratish, sug‘urta xo‘jaligi sub’ektlarining raqobatbardoshligini oshirish;
- sug‘urta huquqiy munosabatlari ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi ustidan samarali nazoratni amalga oshirish maqsadida sug‘urta nazorati vositalarini takomillashtirish;
- sug‘urta nazorati tamoyillari, shakllari va usullarini sug‘urtaning umumiy tamoyillari va xalqaro sug‘urta nazoratchilari assotsiatsiyasi standartlari bilan yaqinlashtirish.

Sug‘urta faoliyatini rivojlantirish strategiyasida uy-joy qurilishi va ipoteka sohasida, tabiiy ofatlar va tabiiy ofatlar sodir bo‘lganda, agrosanoat kompleksi sohasida, iqtisodiyot sohasida, va xar bir xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning tasarrufida bo‘lgan va kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflarni sug‘urtalash muhimligi ta’kidlangan.

Sug‘urta sohasini kelajakda rivojlantirishning asosiy vazifalari etib quyidagi takliflarni ishlab chiqilgan:

- sug'urta biznesi sub’ektlari faoliyatining barqarorligi, ishonchliligi va shaffofligini mustahkamlash;
- sug‘urtalanganlar, sug‘urtalangan shaxslarning huquqlarini himoya qilish;
- sug‘urta bozori ishtirokchilari faoliyatining huquqiy asoslarini ishlab chiqish;
- raqobat muhitini rivojlantirish;
- majburiy va ixtiyoriy shaklda sug‘urta turlarini amalga oshirishga yondashuvlarni ishlab chiqish.

Xulosa va takliflar.

O‘zbekiston iqtisodiyotida sug‘urta munosabatlarining jadal rivojlanishi moliya bozorini mustahkamlashga yordam beradi va sug‘urta sohasini kengaytirish va sug‘urta faoliyati ustidan nazorat va nazoratni kuchaytirish sug‘urta biznesining umumiy, ijtimoiy-iqtisodiy tizimga integratsiyalashuviga ko‘p jihatdan ta’sir qiladi. Xavfsizlik sharoitida sug‘urta rolini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar innovatsion iqtisodiyotni quyidagicha shakllantirish mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta qonunchiligini takomillashtirish;
- Majburiy va ixtiyoriy sug‘urta sohadagi munosabatlarni tartibga solishga yondashuvlarni takomillashtirish;
- Sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishini kafolatlash mexanizmlarini shakllantirish;

- Nizolarni hal etish tizimini takomillashtirish;

- Xalqaro amaliyot va Sug‘urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasining asosiy tamoyillariga muvofiq sug‘urta faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish;

- Sug‘urta kompaniyalarining to‘lov qobiliyatiga oid Yevropa Ittifoqining Solvency-2 xalqaro talablari bilan bog‘liq holda sug‘urtalovchilarning moliyaviy hisobotlarini tuzishga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirish;

- Xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beruvchi muhim moliyaviy vosita sifatida sug‘urta bozorini rivojlantirish samaradorligini oshirish;

- Mahalliy sug‘urta kompaniyalarining xorijiy kompaniyalar bilan sug'urtalovchilar raqobatbardoshligini oshirish imkonini beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash;

Professional kadrlar tayyorlashda ta’lim va ilmiy salohiyatni oshirish, umuman olganda, milliy sug‘urta tizimini rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladi va birinchi navbatda, zamonaviy integratsiya jarayonlarini hisobga olgan holda davlat rolini kuchaytirishni nazarda tutadi; ikkinchidan, zamonaviy innovatsion sug‘urta texnologiyalarini joriy etish; uchinchidan, sug‘urta qildiruvchilar va davlat manfaatlarini sug‘urta himoyasini oshirish maqsadida sug‘urta qonunchiligini takomillashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida sug‘urta tashkilotlarida online sug‘urta sotib olish imkoniyatlarini kengaytirish; eng asosiysi aholimizning sug‘urta sohasiga bo‘lgan tasavvur va tushunchalarni shakllantirish va bu tushunchalarni shakllantirish uchun sug‘urta tashkilotlari marketing hizmatidan foydalanish maqsadga muofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1.O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 28 maydagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan);

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g'risida"gi farmoni;

3.X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G`.Kenjayev “Sug'urta ishi” Toshkent-2014;

4.https://www.mf.uz/uz/news-mf-jx/item/609-609.html.

5. www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

6. www.lex.uz– O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

7. https://imda.uz -Moliya vazirligi huzuridagi SUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI.

D.A.Ro‘ziyeva - Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH BOSQICHLARI

Annotatsiya *Maqolada korxonalarning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish jarayoni o‘rganilib, uning murakkabligi va ko‘p bosqichli xususiyati ko‘rsatilgan. Ish doirasida dunyoning turli mamlakatlari va mintaqalarida qo‘llanilayotgan turli uslub va yondashuvlar tahlil qilinadi. Moslashuvchanlik, strategik rejalashtirish va har bir bozorning o‘ziga xos sharoitlariga moslashish muhimligi qayd etilgan. Maqolada turli xorijiy amaliyotlarni taqqoslab, mahalliy xususiyatlar, ehtiyojlar va maqsadlarni hisobga olgan holda individual yondashuv zarurligiga urg‘u berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Innovatsiyalarni moliyalashtirish, venchur kapital, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, innovatsion strategiya, xorijiy tajriba, barqaror innovatsiya*

Аннотация *В статье рассмотрен процесс финансирования инновационной деятельности предприятий и показана его сложность и многоэтапность. В работе будут проанализированы различные методы и подходы, используемые в разных странах и регионах мира. Отмечается важность гибкости, стратегического планирования и адаптации к конкретным условиям каждого рынка. В статье сравниваются различные зарубежные практики и подчеркивается необходимость индивидуального подхода с учетом местных особенностей, потребностей и целей.*

Ключевые слова: *финансирование инноваций, венчурный капитал, государственная поддержка, инновационная стратегия, зарубежный опыт, устойчивые инновации.*

Annotation *The article examines the process of financing the innovative activities of enterprises and shows its complexity and multi-stage nature. The work will analyze various methods and approaches used in different countries and regions of the world. The importance of flexibility, strategic planning and adaptation to the specific conditions of each market is noted. The article compares various foreign practices and emphasizes the need for an individual approach, taking into account local characteristics, needs and goals.*

Key words: *innovation financing, venture capital, government support, innovation strategy, foreign experience, sustainable innovation.*

Kirish

Korxonalarning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli. U turli bosqichlarni o‘z ichiga oladi va korxona, sanoat va bozorning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab farq qilishi mumkin. Bu jarayonning ba'zi asosiy jihatlari:

1. Ehtiyoj va maqsadlarni aniqlash: innovatsiyalarga bo‘lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojlarni tushunish, strategik maqsadlar va rivojlanish rejalarini belgilash.

2. Risk va imkoniyatlarni baholash: Innovatsion loyihalar bilan bog'liq risklarni tahlil qilish va potentsial imkoniyatlar va imtiyozlarni baholash.

3. Moliyalashtirish usulini tanlash: Moliyalashtirishning mumkin bo‘lgan usullariga venchur kapitali, bank kreditlari, davlat grantlari, o‘z mablag'lari va boshqalar kiradi.

4. Loyihani tayyorlash va taqdimoti: Batafsil biznes-rejani ishlab chiqish va uni potentsial investorlar yoki kreditorlarga taqdim etish.

5. Muzokaralar va kelishuvlar: moliyalashtirish shartlari va shartlarini muhokama qilish, tegishli shartnomalar tuzish.

6. Amalga oshirish va monitoring: moliyalashtirishni boshqarish, loyihaning borishini monitoring qilish, budjet va jadvallarni nazorat qilish.

7. Baholash va hisobot berish: Innovatsion loyiha samaradorligini muntazam ravishda baholash va manfaatdor tomonlar uchun hisobotlarni tayyorlash.

8. Chiqish yoki keyingi bosqichga o‘tish: Agar muvaffaqiyatli bo‘lsa, rivojlanishning keyingi bosqichiga o‘ting yoki venchur moliyalashtirishda investorning loyihadan chiqishi mumkin.

Innovatsiyalarni moliyalashtirish biznes, bozor, texnologiya va moliyaviy vositalarni chuqur tushunishni talab qiladi. U tashkilotning umumiy rivojlanish strategiyasiga integratsiyalangan bo‘lishi kerak va korxonaning turli bo‘limlari, jumladan moliya, rivojlanish, marketing va risklarni boshqarish o‘rtasida yaqin hamkorlikni talab qiladi.

Tahlillar

Korxonalarning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish sohasidagi xorijiy tajriba xilma-xil bo‘lib, geografik joylashuvi, iqtisodiy tuzilmasi, tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari va davlat siyosati kabi ko‘plab omillarga bog‘liq. Quyida ko‘rsatma bo‘lishi mumkin bo‘lgan xorijiy tajriba misollari keltirilgan:

1. AQSh: Venchur moliyalashtirish va innovatsiyalar klasterlari

• AQShning venchur kapital tizimi dunyodagi eng ilg'or tizimlardan biridir.

• Silikon vodiysi kabi hududlar texnologik innovatsiyalar markazlari hisoblanadi.

• Universitetlar, tadqiqot markazlari va biznes faol hamkorlik qilmoqda.

2. Yevropa Ittifoqi: Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tartibga solish

• Yevropa Ittifoqining turli mamlakatlarida innovatsiyalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari mavjud.

• Yevropa Ittifoqi ham turli fondlar va tashabbuslar orqali innovatsiyalarga xususiy sarmoya kiritishni rag'batlantirishga harakat qilmoqda.

3. Xitoy: Davlat investitsiyasi va strategik rejalashtirish

• Xitoy fan va texnologiyaga davlat mablag‘lari hisobidan faol sarmoya kiritmoqda.

• Mamlakatda ustuvor tarmoqlarda innovatsiyalarni rag‘batlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategik rejalar amalga oshirilmoqda.

4. Isroil: Startap ekotizimlari

• Isroil o‘zining jonli startap ekotizimlari va aholi jon boshiga yuqori texnologiyali kompaniyalari bilan mashhur.

• Hukumat soliq imtiyozlari va investitsiyalarni rag'batlantirish orqali xususiy

sektor bilan faol hamkorlik qilmoqda.

5. Skandinaviya mamlakatlari: Barqaror innovatsiyalarga e’tibor qaratish

• Skandinaviya mamlakatlari barqaror va yashil texnologiyalarga faol sarmoya kiritmoqda.

• Ular innovatsiyalar orqali iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga intilishadi.

Bu misollar innovatsiyalarni moliyalashtirishda yagona yondashuv mavjud emasligini ko‘rsatadi. Har bir davlatning o‘ziga xos sharoiti, maqsadi va imkoniyatlariga mos ravishda turli mamlakatlarda turli strategiya va usullar qo‘llaniladi. Bu va boshqa mamlakatlar tajribasi boshqa kontekstlarda innovatsiyalarni moliyalashtirish strategiyalarini shakllantirish va moslashtirish uchun qimmatli saboq va ilhom berishi mumkin.

Xulosa

Korxonalarning innovatsion faoliyatini moliyalashtirish bugungi jahon iqtisodiyotining muhim elementidir. Bu jarayon puxta tahlil qilish, rejalashtirish va boshqarishni, shuningdek, turli omillarni, jumladan, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatlarni hisobga olishni talab qiladi.

Xorijiy tajriba innovatsiyalarni moliyalashtirishning ko‘plab muvaffaqiyatli misollarini ko‘rsatadi. Isroildagi jonli startap ekotizimidan Xitoyda strategik hukumat rejalashtirishgacha turli strategiyalar va amaliyotlar turli kontekstlarda moslashtirilishi va qo‘llanilishi mumkin.

Biroq, universal echim yo‘qligini tushunish muhimdir. Har bir mamlakat yoki mintaqa individual yondashuvni talab qiladigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun innovatsiyalarni moliyalashtirish usulini tanlashda mahalliy sharoit, ehtiyoj va maqsadlarni chuqur tahlil qilish, shuningdek, jahon tendensiyalari va amaliyotini chuqur anglashga asoslanishi kerak.

Shunday qilib, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli moliyalashtirishning kaliti moslashuvchanlik, strategik fikrlash va moslashuvchanlikdadir. Ushbu elementlarni innovatsiya sohasidagi jahon etakchilaridan ilhom bilan birlashtirish iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishga turtki beradigan kuchli, barqaror va farovon innovatsion tizimlarni yaratishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бланк И.А. Финансовый менеджмент: Учебный курс. – Киев: Ника-Центр, 2004.

2. Мельников О.Н., Алабужев Д.С. Методические подходы к оценке инновационной активности сотрудников организаций при разработке конкурентоспособной продукции // Российское предпринимательство. – 2012. – № 14.

3. Никитин А.Ф. Экономический словарь. – М.: ОЛМА-ПРЕСС. – 2005

N.A.Yuldasheva - Itisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent Farg‘ona politexnika instituti Menejment kafedrasi dotsenti

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Annotatsiya. *Maqolada sanoati korxonalarida innovatsion faoliyat samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari yoritib berilgan. Sanoat korxonalarini innovatsiyalar samaradorligi tahlili iqtisodiy, ijtimoiy jihatlariga ko‘ra amalga oshirilgan.*

Абстракт. *В статье описаны показатели определения эффективности инновационной деятельности промышленных предприятий. Анализ инновационной эффективности промышленных предприятий проводился по экономическому и социальному аспектам.*

Abstract. *The article describes indicators for determining the effectiveness of innovative activities of industrial enterprises. The analysis of the innovative efficiency of industrial enterprises was carried out according to economic and social aspects.*

Kalit so‘zlar. *Innovatsion фаолият, innovatsion strategiya, самарадорлик, кўрсаткичлар, таъсир*

Ключевые слова. *Инновационная деятельность, инновационная стратегия, эффективность, показатели, влияние*

Keywords. *Innovation activity, innovation strategy, efficiency, indicators, impact*

Iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘nalishlari, shu jumladan, sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatini ushbu taraqqiyotning asosiy omili sifatida, ilm-fan, ishlab chiqarish, ta’lim va jamiyat o‘rtasidagi aloqani tashkil etish masalalari innovatsion faoliyat ishtirokchilari bo‘lgan ishlab chiqaruvchilar, davlat muassasalari, jamoatchilik va manfaatdor tomonlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsiyalar samaradorligini rivojlantirishning fundamental va amaliy jihatlarini o‘rganish katta e’tibor qaratilayotgan asosiy masala sanaladi.

Innovatsion strategiyalarning samaradorligi yaratilayotgan mahsulotlar, texnik tizimlar, tuzilmalarning barcha zarur va kutilayotgan foydali ta’sirlari birligiga tegishli mehnat, vaqt, resurslar va pul mablag‘larini tejash qobiliyati bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, innovatsion ishlanmalarning samaradorligi ko‘p o‘lchovli bo‘lib, u quyidagi samaralarni o‘z ichiga oladi:

1. Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samarasi resurslardan oqilona foydalanishni, korxonaning iqtisodiy qiymatini oshirishni, o‘sish va foyda dinamikasini oshirishni o‘z ichiga oladi.

Qabul qilish sohasiga ko‘ra iqtisodiy samara quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Ilg‘or texnologik jarayonlarni yaratishga, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni joriy etilishiga ko‘ra (ishlab chiqarish tarmog‘idagi

samara).

Bunday holda, innovator korxona quyidagi sabablarga ko‘ra samara oladi:

• mehnat unumdorligini oshirish natijasida bir xil xarajat evaziga ishlab chiqarish hajmini oshirish;

• ishlab chiqarish xarajatlari darajasini pasaytirish va buning natijasida qo‘shimcha foyda olish imkonini beruvchi tannarxni pasaytirish.

2. Texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari takomillashgan holatda yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishdan (iste’mol sohasidagi ta’sir).

Mazkur holatda innovatsiyalarni qo‘llovchi korxona yuqori sifatli materiallardan foydalanish, mahsulot dizaynini murakkablashtirish, qo‘shimcha texnologik operatsiyalarni joriy etish va boshqalar hisobiga xarajatlar miqdorini oshiradi.

Iqtisodiy samara takomillashgan mahsulotni iste’mol qiluvchi tomonidan o‘zlashtiriladi. Bu holda innovatsiyani ishlab chiqaruvchi korxona iqtisodiy samaraning bir qismini iste’molchidan olgani holda, innovatsion mahsulot narxini oshirishi taqozo etiladi.

Amaldagi innovatsiyalar samaradorligini iqtisodiy jihatdan baholash innovatsion loyihalarni dastlabki baholash kabi bir xil ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Shuningdek, innovatsiyalarni joriy etishning prognoz qilingan va haqiqiy natijalari o‘rtasida taqqoslash amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, innovatsiyalar samaradorligi tahlili rentabellik, likvidlik, to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham amalga oshiriladi. Innovatsiyalarni yakuniy iqtisodiy baholash korxonaning innovatsion faoliyatini keyingi loyihalash va prognozlash uchun foydalaniladi.

Innovatsiyalarning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish mumkin:

1. Integral samara.
2. Daromadlilik indeksi.
3. Daromadlilik me’yori.
4. Qoplanish davri.

Samaradorlikni baholashning umumiy tamoyili natijalar va xarajatlarni ma’lum vaqt oralig‘ida taqqoslashga asoslanadi. Shu tarzda hisoblash davri uchun xarajatlar farqining birga, odatda boshlang‘ich yilga qisqartirilgan qiymati, ya’ni natijalar va xarajatlarni diskontlashni hisobga olgan holda integral samarani hisoblash mumkin: Barcha mavjud innovatsion variantlarni rentabellik darajasining kamayishiga ko‘ra tartiblash lozim. Daromadlilik ko‘rsatkichi sifatida daromadning o‘sha vaqtdagi innovatsion xarajatlarga nisbati tarzida rentabellik indeksidan foydalanish mumkin.

Daromadlilik indeksini quyidagi formula bo‘yicha hisoblash amalga oshiriladi:

$$Jr = \frac{\sum_{t=0}^{Tr} Dj * at}{\sum_{t=0}^{Tr} Kt * at} \quad (1)$$

Jr – даromadlilik indeksi;

Dj – j vaqtdagi daromad;

Kt – t muddatda innovatsiyadagi investitsiyalar hajmi

Daromadlilik indeksi integral samara bilan chambarchas bog‘liq, agar Ei integral ta’sir samarasi ijobiy bo‘lsa, daromadlilik indeksi Jr>1 va aksincha. Jr>1 bo‘lsa, innovatsion loyiha iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Aks holda, Jr < 1, bo‘lsa loyiha samarasiz sanaladi.

2. Ilmiy-texnika ta’siri, eng avvalo, axborotning ko‘payishini, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni ifodalaydi. Biroq, axborotning o‘sishini miqdoriy jihatdan baholash va bu o‘sishning samaradorlik darajasini aniqlash deyarli mumkin emas.

Ilmiy-texnikaviy natijalarning samaradorligi odatda mutaxassis tomonidan xarakteristikalar shkalasidan foydalangan holda baholanadi. Keyinchalik, yangi bilimlardan amaliy foydalanish bosqichida ularning samaradorligini bilvosita ushbu bilimlar asosida yaratilgan yangi mahsulotlar, uskunalar, mashinalar va texnologiyalarning samaradorligi orqali baholash mumkin.

3. Innovatsion faoliyatning ijtimoiy samarasi, eng avvalo, aholining sifat jihatidan yangi turmush darajasiga erishish, uning yashash muhitini yaxshilashda namoyon bo‘ladi. Innovatsion faoliyat, shuningdek, ta’lim darajasining oshishiga, yangi nomoddiy qadriyatlar - madaniy, axloqiy, estetikaning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Bundan tashqari, innovatsiyalar sof ijtimoiy bo‘lishi mumkin, ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Ijtimoiy ta’sirni baholash juda qiyin. Odatda uning sifat tavsifi bilan chegaralanadi. Biroq, ijtimoiy samaradorlikning alohida komponentlari xarajatlar smetasiga ega bo‘lishi mumkin va loyihaning iqtisodiy samaradorligini hisoblashda aks ettirilishi mumkin, masalan:

- hududda ish o‘rinlari sonining ko‘payishi;
- uy-joy va madaniy sharoitlarni yaxshilash;
- odamlar salomatligini mustahkamlash;
- bo‘sh vaqtlarini ko‘paytirish;
- ishlab chiqarish xodimlari tarkibining o‘zgarishi

Ekologik ta’sir - bu atrof-muhit ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi sanalib, unga shovqin darajasi, elektromagnit maydon ko‘rsatkichlari, ifloslanish, yorug‘lik, tebranishlar va boshqalar. Maqsadlariga ko‘ra innovatsiyalar ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligini oshirishga qaratilgan bo‘lsa, sof ekologik bo‘lishi mumkin. Ammo har qanday holatda ham, murakkab texnologik tizimlarga asoslangan, ekologik xavflarni, baxtsiz hodisalar va ularning og‘ir oqibatlarini yuqori ehtimolini o‘z ichiga olgan innovatsiyalarda umumiy ta’sirning ekologik komponenti majburiydir.

Har qanday korxonaning innovatsiyalar sohasidagi rivojlanish strategiyasini shakllantirishda asosiy e’tiborni diversifikatsiya qilish, inson resurslari qiymatini oshirish (ular innovatsion g‘oyalar manbai), yuqori texnologiyali sanoat va aloqa va axborot texnologiyalarini rivojlantirishga qaratishi lozim.

Bu shartlar bajarilgan taqdirdagina innovatsion faoliyat mahsulot, texnologik va boshqaruv innovatsiyalarini joriy etish bilan bir qatorda iqtisodiyotning eng qimmatli resurslaridan biri bo‘lgan inson resurslarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Korxonaning innovatsionligi muhim raqobat ustunligidir, chunki u rivojlanish

uchun yangi imkoniyatlarni ilg‘or va uzluksiz izlash tizimi orqali biznesni tashqi muhitdan paydo bo‘ladigan tahdidlardan o‘z vaqtida himoya qilishga imkon beradi. Shu bilan birga, korxonaning moslashuvchan qobiliyatlari kuchayadi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish ufqlari kengayadi, mahsulot va texnologiyalarning xilma-xilligi va o‘zgaruvchanligi ortib bormoqda. Bu innovatsion o‘zgarishlar asosida keyingi rivojlanish strategiyasini aniqlash uchun sanoat korxonasi o‘zining innovatsion salohiyatini hisobga olishni taqozo etadi. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, innovatsion strategiyalar o‘ziga xoslik xususiyatlaridan kelib chiqib, raqobat strategiyalarini amalga oshirish uchun asos bo‘lishi kerak. Xo‘jalik yurituvchi subektlar doimiy innovatsiyalarsiz va doimiy o‘zgarib turuvchi tashqi muhit ta’sirida ularning faoliyatidagi o‘zgarishlarsiz bugungi raqobat sharoitida korxonalarning samarali faoliyat yuritishi mumkin emasligini aniq bilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аньшин, В.М. Инновационный менеджмент: концепции, многоуровневые стратегии и механизмы инновационного развития [Текст] / В.М. Аньшин, А.А. Дагаев. – 3-е изд., перераб., доп. – М.: Дело, 2007. – 584 с.

2. Коган, А.Н. Как стимулировать инновационную деятельность [Текст] / А. Н. Коган // Финансовая газета. 2008. № 13. С. 55–57

3. Баранчеев, В.П. Управление инновациями [Текст]: учебник / В. П. Баранчеев. – Москва: Юрайт, 2011. – 711 с.

4. Yuldasheva, N. (2022). Scientific and Theoretical Aspects of the Development of Innovative Strategies in the Management of Industrial Enterprises. Bulletin of Science and Practice, 8(5), 457-461. (in Russian). https://doi.org/10.33619/2414-2948/78/53

5. Юлдашева, Н. (2022). Особенности управления стратегией инновационного развития на предприятиях. Экономика и образование, 23(2), 129–135.

М.Э.Ахтамова -Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти Менежмент кафедраси в.б доценти, PhD

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТУРИЗМ СОҲАСИДА БОШҚАРУВ ТИЗИМИНИ ИННОВАЦИОН АСОСДА РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Annotatsiya: *maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimini turizm sohasida innovatsion asosda rivojlantirish va faolligini oshirish yo‘llari tadqiq etilgan, shu jumladan sayyohlik industriyasining eng yaxshi tendensiyalari ta’siri yoritilgan.*

Tayanch so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, boshqaruv, turizm, innovatsiya, sun’iy intellekt, immersiv turizm, narsalar interneti, kontaktsiz sayohat, katta ma’lumotlar*

va tahlillar, pandemiyadan keyingi turizm, turni premiumlashtirish, ekoturizm, blokcheyn.

***Аннотация**: в статье исследуются пути развития и повышения активности системы управления в сфере туризма на инновационной основе в условиях цифровой экономики, в том числе с учетом лучших тенденций туристической отрасли.*

***Ключевые слова:** цифровая экономика, менеджмент, туризм, инновации, искусственный интеллект, иммерсивный туризм, интернет вещей, бесконтактные путешествия, большие данные и аналитика, постпандемический туризм, премиализация туров, экотуризм, блокчейн.*

***Abstract**: The article explores ways to develop and increase the activity of the management system in the field of tourism on an innovative basis in the digital economy, including taking into account the best trends in the tourism industry.*

***Key words:** digital economy, management, tourism, innovation, artificial intelligence, immersive tourism, Internet of things, contactless travel, big data and analytics, post-pandemic tourism, premiumization of tours, ecotourism, blockchain.*

Глобализация шароитида туризм соҳасида туристик хизматлар бозорида бошқарув тизимини жадал ривожлантириш, туристик хизматларни диверсификация қилиш ва сифатини яхшилаш, туризм инфратузилмасини ривожлантириш орқали туризм соҳасини инновацион иқтисодиётнинг етакчи стратегик секторига айлантиришни устувор вазифалардан бири сифатида белгилаб олинган. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни ривожлантириш тўғрисидаги қарорни имзолади. Рақамли иқтисодиётнинг Ўзбекистон ялпи ички маҳсулотидаги улушини 2023-йилга бориб икки баравар, электрон давлат хизматлари улушини эса 2022-йилгача 60 фоизга етказиш режалаштирилган. Мамлакатнинг барча ҳудудларида рақамли билимларни ўқитиш марказлари очилмоқда. Шу жумладан Шавкат Мирзиёев томонидан 2022 йили 28 апрел куни “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорни имзонлади. Ҳужжатда рақамли иқтисодиётни жадал шакллантириш, унинг мамлакат ялпи ички маҳсулотидаги улушини 2023 йилгача икки баравар ошириш назарда тутилган.

Жахонда Саёҳат инновацион харитасига асосланиб, қуйидаги дарахт харитаси 2023-йилда сайёҳлик индустриясининг 9 та энг яхши тенденциялари таъсирини кўрсатади.

1. Сунъий интеллект
2. Иммерсив туризм
3. Нарсалар интернети
4. Контактсиз саёҳат
5. Катта маълумотлар ва таҳлиллар
6. Пандемиядан кейинги туризм
7. Турни премиумлаштириш
8. Экотуризм

9. Блокчейн

Туризмда сунъий интеллектдан фойдаланиш саёҳатни муаммосиз режалаштиришни таъминлайди, сайёҳларга турли жойлар ва экскурсияларга деярли ташриф буюриш имконини беради. Туризм индустрияси операцияларининг кўринишини оширади ва йўловчиларга ўз юкларини янада самарали кузатиш имконини беради

Иммерсив туризм саёҳатчилар орасида мазмунли тажрибага ортиб бораётган талабни ҳал қилади. У саёҳат тажрибасини яхшилаш ва ҳатто виртуал саёҳатларни тақдим этиш учун фойдаланади. ИТ компьютер томонидан яратилган муҳит орқали асл жойларнинг симуляциясини яратади, бу сайёҳларга саёҳат қилишдан олдин йўналишларга виртуал ташриф буюриш имконини беради.

Сайёҳлик компаниялари кейинги ташрифларида хизматларни шахсийлаштириш учун фойдаланадиган кўплаб маълумотларни яратади. Меҳмонхоналар хона ёритилиши, ҳарорат ва атмосферани бошқаришни автоматлаштирадиган, меҳмонларнинг қулайлигини оширадиган ақлли хоналарни ёқиш учун НИ сенсорларидан фойдаланади. Ушбу сенсорлар жиҳозларни созлаш ва энергияни тежаш учун бўш хоналарни ҳам аниқлайди.

Контактсиз саёҳат дастлаб сайёҳлар учун қулай тажрибани тақдим эта бошлаган бўлса-да, пандемия саёҳатчилар хавфсизлигини таъминлаш учун зарурат туғдирмоқда. Тўр пардани сканерлаш каби контактсиз таниш технологиялари паспорт ва бошқа саёҳат ҳужжатлари ўрнини эгаллайди. Бу йўловчиларни идентификациялашни тезлаштиради ва аэропортда узун навбатларнинг олдини олади.

Катта маълумотлар сайёҳлик компанияларига стратегик маркетинг учун мижозлар тенденциялари билан ёрдам беради. Меҳмонхоналар, таксилар, рейслар ёки чипталарни брон қилиш учун мослаштирилган тавсиялар бериш учун саёҳатчиларнинг хатти-ҳаракатларини таҳлил қилади.

Саёҳат чекловлари юмшатилгани сабабли, компаниялар мижозлар ишончини тиклаш учун саёҳатчиларнинг хавфсизлиги ва гигиенасини таъминламоқда. Масалан, меҳмонхоналар ниқоб кийиш, ижтимоий масофани сақлаш, хоналарни дезинфекция қилиш ва бошқалар каби ҳимоя чораларига риоя қилишади.

Саёҳатда гиперперсоналлаштиришга талаб ортиб бормоқда. Сайёҳлар янги тажрибаларни излайдилар ва турли маданиятларни ўрганадилар. Тур премиумизацияси ҳашаматли саёҳатчиларга интуитив хизматлар билан мослаштирилган тажрибани таклиф қилади. Саломатликни мустаҳкамловчи дам олиш масканлари, шунингдек, детоксификация учун тўйимли озиқ-овқат таклиф қилади.

Масъулиятли саёҳат туризмнинг атроф-муҳитга салбий таъсирини камайтиради ва маҳаллий ҳамжамиятларнинг фаровонлигини қўллаб-қувватлайди. Экотуристлар саёҳат пайтида углерод изларини минималлаштиришга фаол интилишади. Бунга ёрдам бериш учун кўплаб стартаплар барқарор транспорт усуллари, экология ва қуёш энергиясидан фойдаланадиган курортларни ишлаб чиқади.

Блокчейн саёҳат саноатини операцион шаффофлик ва хавфсизлик билан таъминлайди. Блоскчейннинг асосий қўлланмаларидан бири, айниқса халқаро саёҳатларда кузатилиши мумкин бўлган тўловларни таъминлашдир. Бу битим тузаётган томонлар ўртасидаги ишонч даражасини оширади.

Ҳозирда туризм хизматлари турли шаклларда ривожланмоқда. Бу электрон тижорат элементларини жорий этиш жараёнлари ҳамма жойда бўлганлиги аниқ, яъни электрон туризм бозорига ҳам етказиб берувчи, ҳам истеъмолчи сифатида тобора кўпроқ мамлакатлар киритилишидан далолат беради. Шу билан бирга, бошқарув тизимида туризм хизматларининг бошқа турлари ҳали ҳам янги савдо канали сифатида Интернетдан самарали фойдаланмаяпти. Демак, мавжуд таклифлардан эмас, балки ўз эҳтиёжларидан келиб чиқиб, исталган тартибда ва саёҳатнинг исталган босқичида ўз хизматларини яратиш қобилияти, оммавий мижоз учун мўлжалланган тизимларни бошқариш талабини оширади.

Адабиётлар руйхати:

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори 2022 йили 28 апрел ПҚ-3549-сон;

2.Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Фармони, 05.10.2020 йилдаги ПФ-6079-сон;

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Электрон тижоратни жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғриси”даги 2018 йил 14 майдаги ПҚ-3724-сон қарори;

4.Ўзбекистон Республикаси Президентининг Рақамли иқтисодиётни жорий этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар, электрон ҳукумат, шунингдек, давлат бошқарувидаги ахборот тизимлари Ўзбекистон Республикаси” тўғрисида”ги 2018 йил 13 декабрдаги ПФ-5598-сонли Фармони;

5. https://www.startus-insights.com/innovators-guide/travel-trends-innovation

Баймуратова Г.Т. - Oriental universiteti “Иқтисодиёт ва туризм” кафедраси доцент в.б.

МОЛИЯВИЙ РИСКЛАРНИ СУҒУРТАЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ - ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ

Аннотация: *Мазкур мақолада молиявий рискларни суғурталашнинг ижтимоий - иқтисодий моҳияти ўрганиб чиқилган. Молиявий рискларни суғурталаш усулларининг тавсифи келтирилади.*

Калит сўзлар: *иқтисодиёт, молиявий риск, молиявий рискларни бошқариш, молиявий рискларни баҳолаш усуллари, риск обьекти, риск субъекти, капитал, иқтисодий инқироз, актив, пассив, диверсификациялаш, инвестицион стратегия.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается страхование финансовых рисков изучена его социальная и экономическая природа.*

Приведено описание методов страхования финансовых рисков.

Ключевые слова: *экономика, финансовый риск, управление финансовыми рисками, методы оценки финансового риска, объект риска, субъект риска, капитал, экономический кризис, актив, обязательство, диверсификация, инвестиционная стратегия.*

Abstract: *This article deals with financial risk insurance its social and economic nature has been studied. A description of financial risk insurance methods is provided.*

Key words: *economy, financial risk, financial risk management, financial risk assessment methods, risk object, risk subject, capital, economic crisis, asset, liability, diversification, investment strategy.*

Инсоният тарихида анъанавий тарзда “молиявий риск” - зарар кўриш маъносида қўлланиб келинган бўлса, XXI асрнинг дастлабки 10 йилликларида мазкур қарашлар янги талқинда, яъни риск - бу мўлжалга нисбатан ҳар қандай салбий оғиш ёки ижобий натижа эҳтимоли сифатида қарала бошланди.

Молиявий риск моҳиятан кўп қиррали бўлиб, мазмунан кенг маъно касб этади. Бундан ташқари, молиявий рисклар концентрацияси[30], ўз навбатида, уларнинг универсаллашувида намоён бўлувчи иқтисодий ва миллий чегараларни ҳисобга олмайдиган “бумеранг эффекти”ни[31] келтириб чиқаради. Бугунги кунда рисклар эҳтимолликка кўра, инерция ва инновация хусусиятларининг уйғунлиги, шунингдек иқтисодий жараёнда ортиб бориш анъанасини намоён этаётган омиллар концентрацияси бўлиб қолмоқда.

Молиявий рискни таърифлашда, “моҳият” ва “муҳим хусусият” категориялари қатор илмий ишланмаларда ўзаро муқобил тушунчалар сифатида талқин этилмоқда, бироқ улар ўзаро айнан бир мазмун-моҳият касб этмайди, бундай ёндашув улар билишнинг ўзига хос турли даражаларда жойлашганлиги билан изоҳланади. Шу боис, “моҳият” ва “муҳим хусусият” категорияларининг этимологик жиҳатдан лингвистик ўхшашлиги асосида қатъий хулоса чиқарилиши мумкин эмас.

Ҳодисанинг муҳим хусусиятларини ажратиб кўрсатиш кўпинча билиш жараёнига тайёргарлик кўришнинг зарурий дастлабки компоненти ҳисобланади, бу формал мантиқ қонуниятларидан фойдаланишда ўзига хос дахлдорлик доирасини белгилаш имкониятини беради[32].

Шу ўринда келтириб ўтиш лозимки, халқаро даражада қатор илмий тадқиқотлар амалга оширилганлигига қарамасдан, “молиявий риск” категориясининг мазмун-моҳиятини, формал мантиқ қонуниятлари ва тамойилларига мувофиқ умумий ва турғун тушуниш, унга оид назарий қоидаларга асосланган фундаментал яхлит, кенг қамровли ва тизимли тарзда ўзида намоён этган умумий талқин ҳозирга қадар яратилмаган.

---

[30]Молиявий рисклар концентрацияси [financial risks concentration]. // Бланк И.А. Словарь-справочник финансового менеджера. - К.: “Ника-Центр”, 1998. - 480 с.

[31] Luhmann N. Op. cit. Цитируется по русскому переводу: Луман Н. Понятие риска . Пер. А.Ф.Филиппова // THESIS. 1994. № 5. С. 149.

[32] Кондауров В.И. Процесс формирования научного понятия (логико-гносеологический аспект определения и деления понятий). М.: ГУУ, 2008. С. 4-6.

Рискнинг бирмунча мукаммал концепцияси У.Бек томонидан шакллантирилган: риск - бу “оқибат” ҳам, “қўшимча маҳсулот” ҳам, истисно тарзидаги “ҳолат” ҳам эмас[33]. Риск жамият фаолияти ва ривожи жараёнида барча соҳаларида муқаррар намоён бўлиш хусусиятига эга қонуниятдир. Бу жараёнда риск сифатида белгиланадиган вазият(ҳодиса)лар концентрацияси юзага келади, жамиятда кўзланган натижага эришилиши ва унга таъсир этувчи тафовут омилларининг тизимли яхлитлиги кузатилади.

Мазкур тизим тасодифийлик контингенцияси негизида шаклланади, “...риск хусусида шундай мулоҳазалар билдириладики, қачонки қарорнинг қабул қилиниши, ўз навбатида, зарар юзага келишига омили бўлиши мумкин”[34]. Н. Луманнинг фикрига кўра: “Рискдан воз кечилиши, айниқса, замонавий шароитда, рационал фикрлашдан воз кечилишини англатади”[35].

Н. Луман ва У. Бекнинг тадқиқотлари кенг умумий моҳият касб этсада, уларнинг ёндашувларида риск кўп қиррали ва ноаниқ ҳодиса эканлиги қайд этилган. Шу боис, риск, шу жумладан, молиявий рискнинг ҳам омилли хусусиятлари ортиб бориши ўзига хос катор муаммолар юзага келишига, уларни назарий-амалий жиҳатдан ҳал этилишининг долзарблиги ортишига сабаб бўлмоқда.

Кейинги йилларда рисклар тадқиқ этилган қатор илмий ишланмаларда уларнинг суғуртаси борасида маълум натижаларга эришилганлик таъкидланаётган бўлсада, мазкур жабҳада ҳамон ўз ечимини кутаётган қатор муаммолар мавжудлигини алоҳида қайд этиш лозим. Хусусан, бу жараёнда молиявий рискларнинг моҳияти, уларнинг юзага келиш сабаблари ва ўзаро боғлиқлиги, шунингдек оқибатларини сезилари даражада минималлаштирилишига қаратилган фаолият, яъни улардан ҳимояланиш имкониятларини тадқиқ этиш иқтисодий-илмий фанларнинг азалий долзарб мавзуларидан бири ҳисобланишини қайд этиш ўринлидир[36].

Мазкур тадқиқотларда[37], бир томондан, рискни бошқариш имкониятлари бирмунча орттириб кўрсатилиши рисклар умумий назарияси яратилишига бўлган талабни оширган бўлса, бошқа томондан, ҳозирга кунга қадар иқтисодий-илмий адабиётларда “молиявий риск” категориясининг мазмун-моҳияти тўлалигича тизимли тарзда очиб берилмаганлиги бу йўналишда тадқиқот ишларини олиб боришнинг аҳамиятини янада оширганлигини таъкидлаш мумкин.

---

[33] Бек У. От индустриального общества к обществу риска. // THESIS. 1994. № 5.с. 4

[34] Luhmann N. Soziologie des Risikos. Berlin, New York: Walter de Gruyter, 1991. p. 25.

[35] Яна ўша манбадан. p. 23.

[36] Р.Кантильон, Ф.Найт и Дж.М.Кейнснинг риск, ноаниқлик ва фойданинг ўзаро боғлиқлиги тўғрисидаги назариялари: умумийлик ва ўзига хослик. манба: http: // knowledge.allbest.ru/economy.

[37] Балабанов И.Т. Риск-менеджмент. -М.: Финансы и статистика, 1996, стр. 21.; Лобанов А.А. Энциклопедия финансового риск-менеджмента. // А.А.Лобанов. А.В.Чугунов.-М.:Альпина Бизнес Букс, 2009. стр.936; Рудашевский В.Д. Риск, конфликт и неопределенность в процессе принятая решений и их моделирование. -М: Менатеп-информ, 1996, стр. 89.

«Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar»

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(II qism)

(2023 yil 10 - noyabr)

“STAP-SEL” MChJ. nashriyoti
Samarqand - 2023.

6895

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
Chop etishga ruxsat etildi: 09.11.2023 y.
© **“STAP-SEL” MChJ.** Nashriyoti,
Samarqand.

Qog‘oz bichimi A5, 60x84 $^{1}/_{16}$, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 13,68
Buyurtma № 0112B. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.

